

1+94(575.1)

D'17

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROT LASHTIRISH V.A  
TELEKOMMUNIKATSIIYA TEXNOLOGIYALARI DA VLAT QO'MITASI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

O'zbek va rus tillari kafedrasi

O'ZBEK XALQINING BUYUK ALLOMALARI

2062 824

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti  
Toshkent-2012

373343

Axborot Resurs Markazi

**TATU AKT sohasida kasb ta'limi fakul'teti ilmiy-uslubiy kengashida  
ta'sdiqlangan (№ 10 son bayonnomá 17 iyun 2014 yil)**

**Tuzuvcilar:** K.A.Gayubova  
N.D.Yulanova

**Ushbu qo'llanma** barcha yo'nalishda tahsil oluvchi rusiyabon va o'zbek xalqining buyuk allomalari xronologik tarzda asrlar bo'yicha bo'lib berilgan. Barcha matnlar uchun topshiriqlar keltirilgan. Buyuk allomalarning hayot va ijod yo'li, ularning qolamiga mansub asarlari juda qiziqarli mansub asarlari juda qiziqarli malumotlar yordamida ochib berilgan.

## V-XII ASRD A YASHAB IJOD QILGAN ALLOMALAR

### MAXMUD ZAMAXSHARIY

Ara bu ajamin ustozi

Xoraznda kamol topgan bu zot Arab olamining yetuk olimlari ham jur'at qilmagan ishga qo'l urib, lug'atshunoslikda o'z maktabiga asos soldi. Allomalar o'n yillar davomida tafsir yo'zadilar, u esa "Kashshof" dek bebaho manbani juda qisqa muddatda imomiga yetkazdi. Mislsiz zakosi, serqirra ijodi bois "Faxri Xorazm", "Ustoz ul-a'mb val-ajam", "Jonullox", "Ka'bat ul-udabo" kabi sharaflı nomlarga ega bo'ldi. Hazrat Alisher Navoiy ham ilmda yuksak rutbaga ko'tarilgan allomani "Oncha tafsir ishida yo'q ogoh" deb ulug'iadi.

Abulqosim Maxmud Zamaxshariy hijriy 467 yili, rajab oyining 27 kuni (milodiy 1075 yil 19 mart) Xorazmning Zamaxshari qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni otasi Umar ibn Amaddan Olgach, o'z bilimlarini kamolga yetkazi sh niyatida Urganch shaxridagi madrasalardan birida ta'lim oladi. Madrasada yosh Maxmud o'z davrining yetuk olimlari dan tafsir, hadis, fiqh, adab, nahvu sarf, balog'at kabi bilimlarni mukammal o'rGANADI. Ilmga bo'lgan qiziqish uni madrasadan so'ng ma'rifat markazi-Buxoroi sharifga yetekladi. Ma'lumotlarga qaraganda, Zamaxshariy qishning ayozli kunlarida Buxoroga yo'1 oladi, uning oyog'inisovut uradi. Bir oyog'ini kesib tashlashiga to'g'ri keladi. Ayrim kishilar Zamaxshariyning jismoniy kamchiligini yuziga soladilar. Olim esa ularga parvo qilmay, "Olijanoblik so'qmog'idan chaqqon o'rlaydigan Oqsoqlarni va egzilik yo'lida qadam bosolmaydigan oyog'i sog'larni ko'p ko'rGANMAN", deb javob beradi.

Zamaxshariy hayoti davomida ko'p mamlakatlar jumladan Isfaxon, Shom, Arabistonga safar qiladi. U xar bir to'xtagan joyida o'sha yerlik olimlar bilan muloqotda bo'lib, ularning ilmiy merozi bilan tanishadi. Ayni paytda ularning o'z bilimi zakosidan bahramiand etadi. Maxmud Zamaxshariy ta'lim olgan olimlar qatorida uni ustoz deb e'tirof etgan yuzlab buyuk insonlar ham bor. Ular dunyo ilm-fani va madaniyatiga, tafsirshunoslik, qormusiy adab ilmi, balog'at, aruz, nahvu sarf, lig'atshunoslik rivojiga katta hissa qo'shg'anlar.

Zamaxshariyning islamshunoslik, tafsirshunoslik, lug'atshunoslik, aruz, adabiyot, mantiq, geografiyaga oid yetmishta yaqin asari ma'lum. "Al-kashshof an haqoiq it-tanzil va uyun ul-aqovil fi vujuh it ta'vil" ("Qur'on dagi berk haq iqtatlarni va uni sharhash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochgich"), "Al-mufassal fi sa'nat il-i'rob" ("I'rob sa'nati bo'yicha mufassal kitob"), "Muqaddamat ul-adab" ("Adab ilmiga kirish"), "Atvoq uz-zaxab fil-mavzo'iz va al-xutab" ("O'git va nasixatlarining oltin

sho dalari”), “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyor” (“Taqvodorlar bahori va fozillar axbori”) kabi asarlar olim ijodining benazir namunalaridir.

Hijriy 522 yil. Ko’hna Urganch osuda hayot kechirmoqda . Shox qasri suv quy gandek jirnijit. Yaqindagina taxtga chiqqan yosh shox Aloudavla Abulmuzaffar Otsiz derazadan tushgan oftob nurlariga temulib hayol surib o’tiribdi. Shu mahal uning oldiga vazir Nizomulmulk asta yaqinlashdi va bosiq tovush bilan so’z boshladi:

-Ulug’ shohim! Dilingizni qanday o’ylar band qildi? Ayting, shoyad u ravshanlashib, g’uboringiz tarqatay!

Xorazmshoh vazminlik bilan javob qildi :

-Nizomulmulk, siz marhum otamga ham sidqidildan xizmat qilgansiz. Uning barcha ezgu ishlariiga xayrixoh bo’lib ko’maklashgansiz. Padari buzrukvorimning marja shu xayrli ishlarini davom ettirmoq, yurtni gullatib, obod etmoq, elni ma’rifatlil qilmoq istagiadurmen.

-Ezgu ishlaringizga Allohnинг o’zi madadkor bo’lgay, ilohim dunyo turguncha hukm surgaysiz! Shohim oldingizga kirib, tinchingizni buzganimning boisi bor edi. Bugun erta tongdan zamon allomalaridan bir guruhi saroyingizda to’plangan . Ular huzuringizga kirmoq istagidalar.

-Juda soz! Olimlar bilan suhbatlashish menga huzur bag’ishlaydi. Marhum padarim ham olimlar, adiblar, shoirlar bilan ko’p majlislar o’tkazar edilar. Men ularning aksariyatida qatnashib, nurhikmat so’zlar, nafis she’rlardan bag’oyat ta’sirlanar edim . Qani, ulami ichkariga chorlang, muntazidurmen.

Nizomulmulk ohista yurib eshikni ochdi, olimlarni ichkariga chorladi. Xonaga tibbiy bilimlar sultonı Hakim Ali ibn Muhammad Hijoziy, tengi yo’q faylasuf, faqih Bahovuddin Abu Muhammad Xiraqiy, allomai zamon Rashiduddin Muhammad Votvot, nahvu sarf, aruz ilmlarining bilimdoni Abulhasan Ali Xorazmiy, fozillar hujasi, adiblar sayyidi, mashoyixlar faxri Abulhasan Ali ibn Muhammad Xorazmiy, fiqh limning farid uz-zamoni Abu Muhammad Mahmud Xorazmiy, falakiyot ilmning sharmasi Muayyiddin Mahmud ibn Umar Xorazmiy, manzar ul-olam Alovuddin Abulfath Samarcandi, barcha fanlarning bilimdoni Abu Muzar Zabbiy Xozazmiy va yana o’n besh nafarga yaqin kishi ta’zim ila kirib keldilar . Orqaroqda oddiygina kiyungan, cho’qqi soqol, 50 yoshlar chamasidagi Mahmud Zamaxshariy ham oqsosqlangancha kirdi.

Xorazmshoh o’rnidan turdi va “Assalomu alaykum, aziz yurtimning allomayu fozillari, qadamlaringizga hasanot, marxabo!” deya har biri bilan quchoqlashib ko’rishdi. Hukmdor Zamaxshariy bilan ko’rishhar ekan, uning qo’lidan olib yuqoriga boshladi va taxting chap tomonidagi kursiga o’tirmoqqa undadi. Hamma o’rniga joylashgach, fotixa qilindi. Barchadan hol-ahvol so’rab chiqqan Xorazmshox Zamaxshariygа yuzlandi:

-Mavlono, siz yaqinda Iroq, Shom, Arabiston safaridan qaytibsiz. Ziyoratingiz qabul bo'lg'ay! Yiroq o'kalarning hukmdoru olimlari siz yaratgan betakror asarlardan bahramand bo'lib, si zni "Jorulloh", "Ustoz ul-arab valajam "kabi tabarruk nomlarga sazovor qil ibdil ar. Eshitib ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Yana, navhu sarf, balog'at, fasohat, aruz, lug'at ilmlaririda ham nodir asarlar yaratibsiz. Siz buyuk Xorazm shonu shuhratini rub'i maskunga taratdingiz. Shu bu kundan e'tiboran "Faxri Xorazm" nomiga ham munosibdursiz. Muborak bo'lg'ay sharaflı unvon!

Allomalar o'n yillar davomida tafsir yo'zadilar, ammo Zamaxshariy "Kashshof" ni ikki yilda (1332-1334) yakuniga yetkazgan.

Zamaxshariy "Qulluq, ming bor qulluq", deya o'rnidan turib ta'zim qildi. "Sharaflı unvonlar qu'lluq bo'lsin" deya yig'ilganlar allomani muborakbd etdilar.

Faxri Xozarm — deya so'zida davom etdi Otsiz, -siz shu kunlarda elni, xalqni adab va ma'rifatga oshno etish niyatida "Muqaddamat ul-adab" asarini yozgan ermishsiz. Balog'at yetuk, ravon bo'lmish asaringizda arabiyl, forsiy, turkiy tillardagi chog'ishmalar ham bor ermish. Xabaringiz borkim, padari buzrukvorimizdan bizga bebafo kitoblar xazinasi — ma'mura kutubxona meros bo'lib qolmishdir. Siz nafis husnixat sohibi hamsiz, o'zingiz yaratgan "Muqaddamat ul-adab"dan bitib, xazinamizga tuhfa qilgaysiz, toki avlodlarimiz durdonas asaringizdan bahramand bo'lg'aylar va toabad haqqinqizga duo qilg'aylar.

Ulug' shohim, ko'rsatgan oliv marhamatingizdan boshim osmonga yetdi. Darhaqiqat, ojiz bandagiz elga nafi bo'lar, degan umidda ushbu asarning qoralamasini yozib, fikrularini bilmoq uchun ustoz Abu Muzarga bergen erdim. So'zingizga qaraganda, asari ustozimiga ma'qil bo'Igan chog'i, -dedi va Abu Muzarga asta o'grili b qaradi. Abu Muzar Zabbiy kulimsirab bosh egdi. Inshoolloh shu ondan e'tiboran Onhazratlariga atab asarimdan bir noyob nusxa bilmaklikka ont ichurmen. Xudo xohlasa, bu kitob yaqin kunlarda xazinangizdan munosib o'rin oladi, degan umiddamen.

Shundan so'ng Xorazmshoh olimlar bilan mamlakatda madrasalar qurmoq, ular uchun darsliklar yaratmoq, qo'shni o'kalardan olimlar taklif etmoq to'g'risida suhbatlashdi.

Kechga yaqin suhbat tugadi, olimlarning barchasi mamniyat bilan xaylashib, saryordan chiqdi. Xorazmshohdan olgan vazifasining naqdalar muhim va mas'u liyatli ekanligini anglagan Mahmud saroy hovlisida qoldirgan otiga minib, ona qishlog'i Izmixshir tomon yo'li soldi.

Eng baxtsiz odam kim deyilsa, men aytardimki, u mol-dunyosini saqlab, ehtiyoq qiluvchi, obro'-e'tiborining bemalol to'kilishiغا rozi bo'lувчи, qadr — qimmatini poymol qilishsa-da, boyligi but bo'lishini istovchi kishidir!

Mahmud Zarmashariyning bebafo asarları orasida "Muqaddamat ul-adab" muhim o'rin egallaydi. Bu asar adabiyotlarda "Adab ilmiga kirish",

“Adabiy otshunoslikka kirish”, “So’z ilmiga kirish“ deb tarjima qilingan . Asarning mazmun-mohiyati ni aniq va ravshan anglash uchun adab kalimasiga, aniqrog’i, adab ilmi tushunchasiga nazar solish muhim . Ilmiy adabiyotlarda “adab” atamasi umumta’lim fanlarining yig’indisi sifatida izohlandi. O’rta asr Sharq ilmida morfologiya, sintaksis, aruz, leksika, etmilogiya, ritorika, stilistika va husnixat adab ilmi tarkibiga kiritilgan. Adabga bag’ishlangan asarlar juda rang-barang. Ammo ularni yaratishda muayyan ilmiy tari bga rioya qilish talab etilgan. Keng o’quvchilar ommasiga mo’ljal lab yozilgan bunday asarlarda yuqorida nomi zikr etilgan ilmlar bo’yicha ma’lumot lar jamlangan, so’zlarning turli ma’nolariga izoh berilgan.

Adab ilmini to’liq egallagan kishi esa adib nomiga sazovor bo’lgan . Adib hamonki savodxon, madaniyatli, o’qimishli kishi ekan, u shu darajaga munosib bilimlarni o’zlashti rish uchun juda katta miqdorda so’z boyligiga ega bo’lish lozim edi. Bu kabi mas’uliyatli vazifaning adiblar ka’basi Mahmud Zamaxshariyga yuklanishi bejizernasdi . Chunki o’z davrining ilmiy tili-arab tili hamda forsiy va turkiy tillarni nukammal egallagan ulug’ alloma bu paytga kelib nafaqat Xorazmda, balki butun musulmon dunyosida ma’rufu mashhur edi.

Alloma ayni yetuklik davrida -1130-yillari tilshunoslikka oid noyob qomus – “Muqaddamat ul-adab” asarini yozdi . Atoqli adib Sadreddin Ayniy bu kitobni “Mehnatkashlar ovozi “ gazetasida e’lon qilgan maqolasida “dunyo xazinasiga teng asar” deb e’tirof etadi.

Izmixshir qishlog’i. Mahmud Zamaxshariy Urganchdan muhim topshiriq olib qaytganiga ham chomasini uch-to’rt yil bo’ldi. Qishloq ko’chalarining u yer-bu yerida tomi loysuvоqlangan uylar ko’rinadi. Muallim Umar ibn Ahmadning uyi ham o’zgalardan farq qilmaydi. Uy hujralaridan birida Zamaxshariy kitoblar uyumi orasida yozish bilan band. Mana bir necha yillardan beri tiniimsiz ishlaydi . Ayni lahzalarda u yirik asarining oxirgi jum lalarini yozmoqda : “tamma-l-qism ul-xamisu fi tasrifi-l-af’ol min muqaddamat ul-adab”. Mana shu jumlalarni yozib, Zamaxshariy salqigan ko’zlarini biroz yumdi va qo’lyozmani olib tashqariga chiqdi . Asarga boqib alloma “Alhamdulil loh, alhamdulilloh “ deya xitob qildi. Nafis nasx, suls va nasta’liq xatlarida mohirona bitilgan, sarlavhalariga zarhal berilgan qo’lyozma o’zining ham havasini keltirdi. Alloma shu kuniyoq Urganchga – Xorazmshoh saroyiga yo’l oldi. Zamaxshariy tinnimsiz mehnatidan qoniqish zavqi bilan Urganchga yetib kelganini ham sezmadidi . Saroyda uni Nizomulmulk kutib oldi . Xos xonaga kirganlardan so’ng Mahmud Zamaxshariy so’z boshladi :

- Shohim, Yodgingizda bo’lsa, kaminaga “Muqaddamat ul-adab “ asarimdan nusxa ko’chirishti buyurgan edingiz. Ana shu topshirig’ingiz, inshoolloh bitdi. Unisizning muborak humkingizga havola qilgani olib keldim . Hukmdor qo’lyozmani qo’liga olib, muqovasini zavq bilan tomosha qildi, so’ng asarni varaqlay boshladi .

Uning chehrasidan ni hoyatda mammuni ligi bilinib turar edi. Qo'lyozmani sinc hiklab varaqlagan shoh g'urur bilan :

- Borakallo. ofarin sizga, Mavlon! Bu asar dunyo xazinasiga teng, balki undan qimmatliroq bo'lubdur. Bu qo'lyozma bizning kutubxonamizdan munosib o'rin olgay - dedi. Keyin Nizom ulmulkka yuzlani b:

- Vaziri a'zam, siz darhol yurtdagi mohir xattotlarni jamlang! Tez fursatda kitobdan nuxalar ko'chirishga farmon bering . Toki bu noyob asar sultanatning barcha sarhadlariga tarqatilgay. Alalxusus, mavlono Zamaxshariyning sharaflı xizmatlarini munosib taqdirlash tadori gini ham ko'ring! – dedi .

### Topshiriq:

- Matndan notanish so'zlarning izohli lug'atini tuzing.
- Matnni o'qing va quyidagi jadvalning har bir ustunchasiga matndan 3-5 tadan so'z topib, qo'shimchalarini bilan yozing.

Fellor	Otlar	Sifatlar	Sonlar	Ravishlar	Olmoshlar

- Zamaxshariy ilm-fanning qaysi sohasida ijod qilgan.
- Zamaxshariyning adabiyotshunoslikka oid qanday asari bor?

## AL- HAKIM AT- TERMIZIY HAYOTI VA IJODI

Bu allomaning to'liq ismi — Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir (ayrim manbalarda Bishr) al-Hakim at-Termizi. Hakim at-Termizining ilmiy va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot Tojiddin Subkiy ("Tabaqot ash-shafi'iyya al-Kubro"), Xotib al-Bag'dodiy ("Tarixi Bag'dod"), Ibn Hajar al-Asqaloniy ("Lison al-miyzon"), as-Sulamiy ("Tabaqot as-sufiyya") va boshqa bir qator olimlar asarlarida keltirilgan.



Xakim at-Termizi o'z hayoti to`g'risida o'zining "Bad'u sha'ni Abu Abdulloh" asarida bayon etadi. Bu asar 1965 yilda Bayrutda Yahyo Ismoil tomonidan olimning "Xatmul avliyo" asari bilan birga chop etilgan. Hakim at-Termizining tavalludi va vafoti sanalari yozma manbalar hamda hozirgi adabiyotlarda turlicha keltiriladi. Ba'zi mualliflar, masalan, Hoji Xalifa "Kashf az-zunun"da Hakim at-Termizi vafoti yilini milodiy 869 yil deb ko'rsatgan. Allomaning qabr toshi da ham shu sana keltirilgan. Hakim at-Termizi yuz yildan oshiq vaqt umr ko'rganidan kelib

chiqilsa, manbalarda ham u 112, 116, yoki hatto 120 yoshgacha umr ko'rgani keltiriladi, u holda alloma I taxminan 750-760 yillar oralig'ida tug'ilgan bo'lib chiqadi. Ayni mahalda bundan 30 yil oldin "Al-Hakim at-Termiziy va nazariyyatu hu fil valoyati" asarini yozgan misrlik mashhur olim Abdulfattoh Abdulloh Baraka Hakim at-Termiziy milodiy 820 yilda tavallud topib 112 yil yashab 932 yilda vafot etgan, deb yozgan.

Allomaning bo'lalik va yoshlik yillari haqida manbalarda bat afsil ma'lumot berilmagan. "Tarjima hol" iga ko'ra, u sakkiz yoshidan boshlab diniy ilmlar bilan jiddiy shug'ullangan, yigirma sakkiz yoshida esa Makkaga haj safariga jo'nagan. Safardan qaytgach, Hakim at-Termiziy sufiylik yo'lini tutgan: xilvatga ketib, nafsi ammorani yengib, sufiyona risolalarini o'rgangan.

Uning padaribuzukvori Ali ibn Hasan bilirendon muhaddis olim bo'lgan, ilm izlab Bag'dodga borgan, o'sha davrning taniqli olimlari bilan xadisning turli masalalari borasida ilmiy munozaralarda faol ishtirok etgan. Voldai muhtara-masi hamda tog'asi ham hadisi nabaviyyaning durust bilimdonlari hisoblanishgan. Binobarin, Hakim at-Termiziy o'z dunyoqarashiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bilimli va ilmiy muhitida voyaga yetgan.

Yozma manbalarda Hakim at-Termiziy ustozlari haqida ishonchli ma'lumotlar keltirilgan. Uning dastlabki ustozi otasi Ali ibn al-Hasan at-Termiziy bo'lgan. Al-Xotiyb al-Bag'dodi yining "Tarixi Bag'dod" asarida bir munkha ma'lumot keltirilgan. Ustozlari orasida Qutayba ibn Sa'id as-Saqafiy al-Balxiy (798 — 888 yillar), Ibn Xibbonning "Mashxur kishilar to'g'risida kitob" asarida ancha dilbar gaplar aytilan Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, bir qancha vaqt Termiz qozisi bo'lgan Solih ibn Muhammad at-Termiziy, Sufyon ibn Vakiy' (vafot 860 yil), Hasan ibn Umar ibn Shafiq al-Bahriy (vafot 840 yil), Ahmad ibn Hadravayh (vafot 854 yil), Abu Turob al-Naxshabiy, Yahyo ibn Maoz ar-Roziylar (vafot 875 yil) bo'lishgan.

Hakim at-Termiziy xayoti va faoliyatini tafsiflovchi yozma manbalar ma'lumoti ga asoslangan holda uning uzun hayotini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich — sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalik yillari. Taassuslar bo'lsinki, uning hayotining bu davri haqida aniq ma'lumotlarga ega emasiz. Shunday bo'lsa-da, u o'z tengdoshlaridan farqli ravishda, shu yoshga xos turli o'yinlarga ko'ngil ko'yongan, balki o'zini istiqboldagi ilmiy hayotga tayyorlab borgan — ustozlaridan ko'proq dars olgan, turli ilmlarni (ayniqsa kalom ilmini) o'rgangan, sirli ma'naviy hayotga o'zini chog'lagan, deb aytish mumkin.

Ikkinci bosqich Hakim at-Termiziyning sakkiz yoshdan yigirma sakkiz yoshgacha bo'lgan hayotini o'z ichiga oladi. Bu davrda u turli shayxlardan bilim o'rgangan. Ilm izlab Sharqning boshqa shaharlariga borgan, Makkada bo'lib. Baytullohni ziyorat qilgan. Hayotining shu davrida u hadis o'rganishga hamda fiqh masalalariga ko'proq e'tibor bergan.

Alloma hayotining uchirchi bosqichida Qur'oni karimni chuqur o'rghanish bilan mashg'ul bo'lgan. U kalomullohni, uning mohiyatini chuqur o'rghanish, ro'za tutish, ibodat qilish, taqvo va hokazolar bilan shug'ullangan. Al-Antokiyning "Qalb muolajasi" falsafiy-tasavvifiy asari unga ayniqsa qattiq ta'sir ko'rsatgan. Hakim at-Termiziyning shogirdlari ham ko'p bo'lgan. Bular: Abu Muhammad Yahyo ibn Mansur al-Qoziy (vafoti 960 yil), Abu Ali Mansur ibn Abdulloh ibn Xolid az-Zuhliy al-Hiraviy, Abu Ali al-Hasan ibn Ali al-Jurjoniy. Ahmad ibn Muhammad ibn Iso, Abu Bakr Muhammad ibn Umar al-Hakim al-Varroq, Muhammad ibn Ja'far ibn Muhammad ibn al-Xaysari ibn Umron ibn Burayda va boshqalardir.

Hakim at-Termiziyning ilmiy-ijodiy faoliyati uning boshqa mamlakatlar va shaharlarga sayohati bilan chambarchas bog'liq. U Balxda, Nishopurda bo'lган, fan va madaniyat yuksak rivojlangan Bag'dodga borgan. Bu shaharlarda umashxur olimlar bilan uchrashgan, ilmiy munozaralarda qatnashgan. Shunday bo'lsa-da, Hakim at-Termiziyning ilmiy-ijodiy hayotida uning ona shahri — Termiz juda muhim rol o'yagan, o'zining asosiy asarlarini alloma shu yerda yaratgan. Uning mav'izayu xutbalari, shuningdek ayrim asarlari va, eng avvalo mu-sulmonlik marosimlari, Allohga oshiqlik, sufylarning ayrim toifalari, "xotamul anbiyo" bilan bir qatorda bo'lgan "xatmul avl iyo" to'g'risida mulohaza yuritilgan "Xatmul-avliyo", "Ilal ash-shari'a" faqihlar va arboblarning ma'lum qismida norozilik uyg'otgan. Hakim at-Termizi badxo'llar ta'qibidan qutulish uchun Balxga, so'ng Nishopurga ketishga majbur bo'lgan. U yerlarda allomani kuvonch bilan kutib olishgan. Keyinchalik u yerlarda tarafdorlari va izdoshlari ko'paygan.

### Topshiriq:

- 1 Notanish so'zlar lug'atini tuzing..
- 2.Matndan kelishik affiksleri ishtirok etgan so'zlarni yozing.
- 3.Al-Hakim at-Termiziyy tarjimaiy holiga oid qanday ma'lumotga egasiz?
4. Al-Hakim at-Termiziyy o'zin ing asosiy asarlarini qaysi shaharda yaratgan va bular qaysilar?

## AT-TERMIZIY

(to'liq ismi-sharifi Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Shaddod al-Bug'iy at-Termiziyy, tavallud yili noma'lum - 883 yoki 892-893 yillarda vafot etgan) - musulmon olamida mashhur yirik muhaddislardan hamda Qur'oni karim tafsirchilarini orasida eng yetuklaridan biri. Bu insonni Abu Abdulloh al-Hakim at-Termiziyy (X

asming birinchi choragida vafot eigan) va boshqa Termiziylar bilan chalxashtirmaslik lozim.

At-Termiziy yoshligidan mukammal oliv musulmon ta'limini olgan. hadislar toplash maqsadida Xuroson, Iroq, Hijoz diyorlarida sayohat va ziyoratda bo'lgan, yashagan. o'sha davming ma'lum va mashhur olimlari rahbarligida tahsil olgan, mustaqil ijod qilgan. Uning dunyo tan olgan asarlari ko'p. Xususan, "Al-Jome' as-sahiyh", "Ash-shamoil an-Nabaviya" mashhurdir. At-Termiziy zuhd (toat-ibodat), kunya (ism-laqab), shuningdek, shariat, tarix, tafsir va tasawwuf ilmlari bilan shug'ullangan. balog 'atli asarlар qoldirgan.

Payg'ambар hadislarini toplash va o'rganishda Abu Iso at-Termiziy ikki yo'ldan borgan: birinchidan, hadislar isnodlari (nisbat berish zanjiri)ning bog'lanishiga tanqidiy yondoshgan. Ikkinchidan, har bir hadis atrofidagi mazhabilararo nuqtai nazarlar kurashiga etibor qilgan, xolisona tahlil va talqin qilgan. Bu ishda u mashhur imomlar izidan borib, islomga maqsadga moslashish tamoyillarini kiritgan, musulmon Sharqidagi hursikrlilik, ilmiy-falsafiy, diniy-ahloqiy tafakkurning keng qamrovligini, umuman, islomning zamon shart-sharoitlariga o'ta moslashuvchanlik qobiliyatini shakllantirganlardan biri bo'lgan. U shariatda insonparvarlik mayllarining kuchayishida katta rol uynagan.

A fsusk.i. istibdod davrida Imom at-Termiziy hayoti va ijodini o'rganish taqiq ostida edi, chunki u "reaksion falsafiy oqim tarafdoi, mutasavvif" deb e'lon qilingan di. Mustaqillik sharofatidan buyuk olimning asarlari uning Vatanida nashr etilmoqda, ha yoti va ijodi har tomonlama o'rganilmoqda.

### Topshiriq:

1. Matndan juft so'zлами ajratib yozing.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. At-Termiziying tarjimaiholiga oid qanday ma'lumotlamibilasiz?
4. At-Termiziying dunyoga mashhur asarlarini aytинг.

## AL-HAKIM AT-TERMIZIY ASARLARI

Xakim at-Termiziy qalamiga mansub asarlar soni to'g'risida yozma manbalarda turli raqamlar keltirilgan. Ba'zi mualliflar uning asarlari adadi to'rt yuzga boradi, deyishgan. Biroq ko'pchilik mualliflar uning asarlari soni saksonga yaqin, deb hisobla shadi.

Abdul fattoh Abdulloh Baraka yozishicha, Hakimat-Termiziyyashgto'rtuyaqasari dan oltmis gayaqini yetib kelgan.

Eng muhim, bizgacha allomaning ilmiy-ma'naviy merosining asosini taslikil qiluvchi asarlari yetib kelgan.

Ular orasidan, eng avvalo, 291 hadisni o'z ichiga oluvchi

"Navodir al-usul fi ma'rifat axbor ar-Rasul" nomli asarini ko'rsatib o'tish zarur. Bu asarda Hakim at-Termiziy dunyoqarashi muayyan darajada bayon etilgan. "Navodir al-usul"ning bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasining kutubxonasi fonda saqlanadi. Allomaning nashr etilgan boshqa asarlaridan "Kitob xaqiqat al-odamiya", "Adab an-nafs"ni sanab o'tish lozim.

Hakimat-

Termiziyyaslarining kattaqismibizgacha qo'lyozmalar zid yetib kelgan hamdajahondagi turli qo'lyozma fondalaridasal klanmokda. Chunonchi, alloma asarlarining qo'lyozmalari Parij, Qohira, Damashq, Iskandariya, Istanbul va Londonda saqlanmoqda. Parij Milliy kutubxonasiда (arab bo'limida 5018-inventar ostida) Hakim at-Termiziyyining quyidagi asarları saqlanmoqda:

1. "Kitob as-salot va maqosidiho".
- 2." Kitob al-hajj va asrorihi".
3. "Kitob al-Ehtiyyot".
4. "Kitob al-Jumal al-lozim ma'rifihi".
5. "Kitob al-Furuq va man' at-taroduf".
- 6." Kitob haqiqat al-odamiyya".
7. "Kitob Urs al-muvahhad iyn".
8. "Kitob al-Azo val-nafs va yusammo kazalika g'avr al-umur".
- 9." Kitob Manozil al-i bod min al-ibodati".
- 10."Kitob al-Aql val-havo".
- 11."Kitob al-Amso'l min al-Kitob vas-Sunna".
- 12."Kitob al-Manohiy".

Damashkda, az-Zohiriyya kutubxonasiда Hakim at-Termiziyyining ikki asari va besh risolasi qo'lyozmlari (tas avvuf turkumi, 104-raqami ostida); Misrdagi Iskandariya shahrida uch risolasi (Maktabat al-baladiyya, 3585-raqami ostida) saqlanmoqda. Allomaning Londonda saqlanayotgan asarlari ro'yxatida beshta risola ko'rsatilgan.



Qohirada, "Dor al-kutub al-ilmiyya"da "Ilal al-u`budiyya" asarining qo`lyozma nusxasi ma vjud. "Kitob as-salot" asarining qisqartirilgan varianti bo`lgan bu risola ko`proq "Ilal ash-shari`a" nomi bilan mashhur.

Bularдан tashqari, Leypsig va Istambulda ham uning ba`zi asarlari qo`lyozmalari mavjud. Xakim at-Termiziyning asosiy asarlaridan biri — "Xatmulaviyo" haqidagi biroz to`xtab o`tish maqsadga muvofiq. Ko`p vaqtgacha bu asar bizgacha yetib kelmagan, deb hisoblangan. Baxtimizga bu taxmin noto`g`ri bo`lib chiqdi.

Parijilmiy-tadqiqotmarkaziningislomqadriyalaribolimia'zosiUsmonJsmoilYahyo 1965 yilda Bayrutda "Xatmul-avliyo" nichopettirdi. 586 sahifadan iborat bu ulkan nashrga Hakim at-Termiziyning bir necha risolasi, shu jumladan tarjimai holiga oid o`ttiz ikki sahifadan iborat "Bad'u sha`ni Abu Abdullox" asari ilova qilingan. Uncha katta bo`lmagan ayni shu asarga asoslanib Hakim at-Termiziyyayotini xaqida haqikatga birmuncha yaqin ma'lumotlarga ega bo`lin-di. Unda allomaning hayoti, u dastavval padari buzrugvoridan ta`lim olgani, Kufa va Basraga sayohati, Makka ziyorati haqida yozilgan. Ma lum bo`lishicha, alloma hadisi nabaviyyani aynan Kufada chucqur o`rgangan ekan.

Termizga qaytar ekan, yo`l-yo`lakay Qur`oni karimning ma lum qismini yod olgan. "Xatmul-a vliyo" mazmuni haqida gapirladigan bo`lsa, 6u asaming asosiy mazmunini valoyatning haqligi, shuningdek uning nubuvvat va risolat bilan bog`liq masalalari tashkil etishini qayd qilish darkor. Risola muqaddima hamda yigirma to`qqiz bobdan iborat. Uning asosiy mazmuni muridning savollariga shayxning bergan javobi tarzida bayon etilgan.

Hakim at-Termiziyning bu asarida valoyat masalalari sufiylik tarixida ilk bor mutlaqo tug al nazariya tarzida tafsiflangan. Bu asar Termiz va Balxda yoyilgan mashhur "xakimiyya" sufylari uchun sufiylik tarixida o`ziga xos yangi hodisa bo`lgan. Bu ta`limnot diniy vasiyatnomasi yoki ma`rifiy dastur sifatida xizmat qilgan. "Xatmul-avliyo" Sharq musulmonlari dunyoqarashiga kuchli ta`sir qilgan, shunga qaramay, yuqorida ta`kidlanganidek, ayrim faqihlar harnda arboblarda norozilik uyg`otgan.

Hakim at-Termiziyning sufiylik tarixidagi ahamiyati asosan uning risolalari bilan belgilanadi. Ulardan "rux" va uning "holati" hamda "harakati" to`g`risidagi, o`zini-o`zi takomil topotirish hamda tuban xatti-harakatlarni jilovlash usullari haqidagi, poklanishga olib keluvchi iztirob va shu kabilar sufiylik ruhiyatining rivojlanishiga ulkan ta`sir ko`rsatdi.

Hakim at-Termiziyya sufiyona "ma`rifat" ("hikmat")ni inson yetishishi mumkin bo`lgan oliy bilim deb hisoblangan. Bu bilimni u inson qalbidan joy olgan "ilohiy nur" ga o`xshatgan. Shariat qoidalarini sharhlash va qo`llashdan iborat bo`lgan odaiti ilmdan farqli o`laroq "ma`rifat" narsalarning ichki mohiyatini va oxir oqibatda,

"ilohiy mohiyatni" anglab yetadi. Ilmni ta'lim jarayonida egallash mumkin bo'lsa, "ma'rifat" Allohning suygan bandalariga nozil qilgan rahmatidir. Ilmni tatbiq etish sohasi hamda vaqt cheklangan, "ma'rifat"ning esa cheki yo'q. Qalbini dunyo mehridan poklagan va Allohga oshiq bo'lganlarga ma'rifatga yetishadilar. Hakim at-Termiziy sufiy valiylarni shundaylardan deb hisoblagan. Ular qolgan dindorlardan ayni ma'rifatga yetishganliklari bilan ajralib turishadi.

Avliyo haqidagi sufiyona tasavvurlarni birinchi bo'lib nazariy asoslab, huquq borasida ulami rusul va anbiyo bilan amalda tenglashtirgan ham, aftidan, Hakim at-Termiziydir. Allomaning risolat va valoyat nisbati, sufylilikdagi avliyolik darajasi to`g`risidagi g`oyalarini taniqli olim Ibn Arabiy ijdoda o`z rivojini topdi. Ibn Arabiy o`z asarlariga ko`pincha Hakim at-Termiziy risololaridan katta-katta bo'laklar kiritigan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Hakim at-Termiziy buddaviylik, xristianlik va moniylik ta'limotlaridan xabardor bo`lgani ehtimol. Uning asarlarida shu ta'limotlar ta'sirini ko`rish mumkin. Allomaning chuhur va har tomonlarma bilimini e'tirof etgan zamondoshlari unga faxrli al-Hakim — donishmandrutbasini bejiz berishmag'an.

### Topshiriq:

1. Quyidagi jadvalning har bir ustunchasiga matndan 3-4tadan so'z topib yozing.

Otlar	Sifatlar	Sonlar	Olmoshlar	Fe'llar	Ravishlar

2. Parij Milliy kutubxonasida at-Termiziyning qaysi asarlari saqlanmoqda?

### AHMAD AL – MARVAZIY

Ma'lumki, O'rta asrda Bag'dodda vujudga kelgan ilmiy maktab - «Hikmatlar uy» («Bayt ul-hikma») Sharq xalqlari fani tarixida alohida ahamiyat kasib etdi. Bu markazda faoliyat ko'rsatgan allomalar o'sha davr ilmlari, xususan, aniq fanlarning rivojiga salmoqli hissa qo'shib, qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlar ilmiy merosini o'qib o'rgandilar, ularni tahlil qilib, yangi g'oyalar bilan boyitdilar. Natijada, ularning qalamiga mansub bo'lgan qator asarlar paydo bo'ldiki, buasarlar O'rta asr ilmining noyob durdonalariga aylandi. IX-X Iasrlarda butun musulmon Sharqfani va madaniyati taraqqiyotida Markaziy Osiyo donishmanlari yetakchi mavqeni egallagan bo'lsa-da, musulmon madaniyatining «oltindavri» to'liq aniqlanmagan. Markaziy Osiyolik olimlarning ma'lum qismi xalifaal-Ma'mun tarafidan tanlab olinib, Bog'dodga olib ketilgan. Ular orasida xorazmlik buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy, farq'onalik mashhur astronom Ahmad al-Farg'oniy,

o'sha davrda Forob (hozirgi Gavhartepa) mintaqasidan chiqqan yirik astronom va matematik al-Abbos al-Javhariy, Bag'dod va Darnashq shaharlariだagi astronomik tadqiqot va kuzatishlarning tashkilotchisi marvlik Yahyo ibn Abu Mansur va boshqalar bo'lgan.

Bag'dod ilmiy maktabida faoliyat ko'rsatgan yirik astronom va matematiklardan yana biri Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy bo'lib, u «Habash al-Hosib» («Habash hisobchi») laqabi bilan tanilgan. Uning ismidagi al-Marvaziy rutbasi esa muallifni hozirgi Turkmanistonning Bayram Ali shahri yaqinidagi Marvdan ekanligini ko'rsatadi. Olimning ismi va ba'zi asarlari O'rta asr mualliflaridan Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (1173-1248) va Haji Xalifalar (1609-1657) tomonidan zikr etiladi. Jumladan, Ibn an-Nadim uni yildan ortiq yashagan, deb ma'lumotberib, Marvaziyning yettiita kitobining nomini sanabo'tadi. Ibn al-Qiftiy esa uning asli marvlik bo'lib, xalifaal-Ma'munvaal-Mu'tasim zamonda Bag'dodda faoliyat ko'rsatganligini aytadi. Olimning yashagan umrini Ibnal-Qiftiy uzyillarotrofida, debxabarberadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdik i, Ahmadal-Marvaziy uzoq umr ko'rgan. Fan tarixiga oid bibliografik kitoblardan bu olimni 770-870 yillar mobaynida yashab o'tgan deb taxmin qilinadi. Ahmad al-Marvaziy «Zij» («Astronomik jadvallari») deb ataladigan «Damashq ziji» («az-Zij al-ma'ruf bi-d-Dimashqiyya»), «Zij» (bu zиж Bag'dod shahri uchun tuzilgan) va «al-Ma'munning tekshirilgan ziji» («az-Zij al-Ma'muniy al-murtaħħan») asarlarining muallifidir. Ibn al-Qiftiy al-Marvaziy «Shoh uchun ziji» («az-Zij al-Shahiyya») nomli yana bir kichik hajmdagi risolaning ham muallifi, deb ko'rsatadi. Lekin bu risola yuqoridağı zikr etilgan «zij»larning birortasi bo'lishi mumkin.

«Damashq ziji» hozirda Istanbulda saqlanmoqda. Al-Marvaziy o'zining bu asarini o'sha davrda «Sindhind» nomi bilan mashhur bo'lgan hind astronomik jadvallarini qayta ishlash asosida yozgan. Undagi ba'zi masalalar Ibrohim al-Fazariy, Muhammad al-Xorazmiyning «zij»laridan farqlanadi. Olimning Bag'dod shahri uchun yozilgan ikkinchi «Zij»i Berlinda saqlanmoqda.

Beruniyning «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Geodeziya» asarlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, bu kitob keyingi davr astronomlari tarafidan hurmat bilan tilga olingen. Uchinchi «al-Ma'munning tekshirilgan «ziji» ham o'z vaqtida katta shuhrat qozongan bo'lib, xalifa al-Ma'mun bir guruh olimlarga qadimgi yur'on astronomlarining kitoblarida keltirilgan ma'lumotlarni tajribalar asosida qaytadan tekshirib chiqishi vazifasini yuklagan va tajriba natijalari o'laroq, ushbu asar duriyoga kelgan. Bu asarda o'sha davr astronomiyasining barcha yutuqlari mujassam etilgan va O'rta asr manbalarida, ba'zan Yahyo ibn Mansur va Ahmad al-Marvaziy, ba'zan esa o'sha davring boshqa astronomlari tarafidan bitilgan, deb

keltiriladi. Bunday asarning yaratilishida ko'pchilik ishtirok etgan bo'lishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi.

Shunga qaramasdan, mutaxassislar al-Ma'mun «ziji»ni Yahyo ibn Mansur boshlab, Ahmad al-Marvaziy yakunlagan bo'lishi kerak, degan taxminni qilaclar. Umuman esa, al-Marvaziy al-Ma'mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarda eng faol ishtirok etgan olirlardan bo'lib, 832-833 yillarda Sinjar sahrosida yer meridianining bir darajasini o' Ichash ishlarida ham qatnashgan.

Al-Marvaziyning yiğirmaga yaqin nomdagi asarlari ro'yxatida biz astronomik jihozlar - astrolyabiylar, quyosh soati va zat al-halaklarga bag'ishlangan risolalarini uchratishimiz mungkin. Afsuski, ularning katta qismi bizgacha yetib kelmagan. Olimning astronormiyadagi yutuqlariga qaramasdan, uning asosiy xizmatlari trigonometriyada deb topilgan. Bu fikrimizning mag'zini al-Marvaziyning fanga birinchi bo'lib olib kirgan tangens va kotangens tushunchalari va ularning funksiyaviy jadvallari tashkil etadi. Olimning asarlarida bayon qilingan tangens, kotangens va kosekans tushunchalari trigonometriya rivojiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi

Ibn an-Nadim o'zining «al-Fixrist» kitobida al-Marvaziya oid yana ikki muhim ma'lumotni keltiradi. Ulardan biri al-Marvaziyning Abu Ja'far ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Shabash ismli o'g'li bo'lib, u ham astronomiya bilan shug'ullangan va «Yassi astrolyabiya» («Kitab al-asturlab al-musattah») nomli kitobning muallifi ekanligidir. Ikkinchisi esa, IX asrdagi mashhur astrolog va astronomlardan biri Muhammad ibn Bazyar biz hikoya qilayotgan al-Marvaziyning o'quvchilaridan deb e'tirof etilishidir. Bu esa Ahmad al-Marvaziyni nafaqat mashhur olim, balki yetuk shogirdlar tayyorlagan mohir ustoz bo'lgan idan ham dalolat beradi.

### Topshiriq:

- 1) Matndan ko'makchi va bog'lovchilarni topib ko'chiring.
- 2) Matndagi notanish so'zlarning izohli lug'atini tuzing.
- 3) "Hikmatlar uy'i" ilmiy maktabi haqidagi nimalarni bilasiz?
- 4) Marvaziy fanning qaysi sohasida izlanishlar olib borgan? Uning taniqli asarlarini nomlarini aytинг.

## ABU ABDULLOH RUDAKIY

Abu Abdulloh Ja'far binni Muhammad binni Abdurahmon Odam 858 -yili Samarqand shahri yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Dastlabk i ta'limni oila muhitida olgan Ja'far Samarqand madrasalarida zamonasidagi barcha bilimlarni puxta egallaydi, Qur'on hofizi darajasiga yetadi; xalq she'riyati, qo'shiqlarini sevib kuylab yuradi; mashhur mashshoq va badihago'y Abu Abbas Baxtiyordan musiqa ilmini o'rganadi; barbat, rud, ud, chang, qonun asboblarini chalishda shuhrat qozonadi: musiqalarga o'zi she'rlar bitib, ularda Rudakiy taxallusini qo'llay boshlaydi.

Arablar istilosiga barham berilib, markazlashgan davlat barpo etilgach, Xurosonu Movaro unnahrda ilm-fan, madaniyat, adabiy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkira b rivojlanadi. Ayniqsa, davlatning qudrati Amir Nasr II Somoni (914 — 943) davrida yanada oshadi. U shaharu qishloqlardan, uzoq-yaqindan ahli hunar, ilm-adab ahlini markaz Buxoroga to'playdi, ularning faoliyatiga sharoit tug'dirib beradi, homiylik qiladi. She'riyat va musiqada shuhrati oshgan Rudakiy ham saro'ya chaqirtiriladi. Natijada shoir butunlay ijodga sho'ng'ib ketadi: qasidalar, g'azallar, ruboyi, q it'a, dostonlar yaratadi. Uning obro'si ortib, boyligi ham oshib boradi. Bu xususda mashhur tarixchi, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy «Lubob ul-albab»(1 222) tazkirasida quyidagilarni yozgan: «Rudakiy usta cholg'uchi bo'lib yetishgach, uning ovozasi butun olamga yoyildi. Xuroson amiri Nasr binni Ahmad Somoni yuni o'zining yaqin kishilar qatoriga qo'shgach, u yuqorilab ketdi, uning boyligi esa haddan tashqari ko'payib ketdi... Undan keyingi shoirlar orasida hech kimiga bunday boylik nasib etmadidi va hech kim uningdek baxt egasi bo'lomadi».

Haqiqatan ham, Rudakiy Somoni amirlarining eng «yaqin nadimi» (Avfiy), xushxon hofiz, mohir mashshoq, nuktasanj shoir sifatida beqiyos obro'ga ega edi. Somoni amirlarining barcha safarlarida shoir asarlarining qo'lyozmalari Turondan Xuroson shaharlariiga tuyalarga yuklab olib borilib, ko'z-ko'z qilib yurilishi ham buni tasdiqlaydi. X asmining o'rtalariga kelib saroydagisi ahvol og'irlashadi. O'z homiysi va do'stlaridan judo bo'lgan, qaratayib qolgan, saroy atrofidagi mashmashalardan zada Rudakiy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazib, 941 yili vafot etgan.

Qadimiy sarchashrnalarda Rudakiyning shaxsiyati, taqdiri haqida rang-barang ixtilofli filklar mavjud: ayrim olimlar shoir tug'ma ojiz edi, deyishsa, ba'zi tadqiqot va maqolalarda u qand kasaliga giriftor bo'lgani uchun qariganida ko'r bo'lib qolgan, degan fikmi uqtiradilar. Bizningcha, Rudakiyning «modarzod ko'r» bo'lgani haqiqatga yaqin. Zeroki, Homer, Abu A'lo al-Maariy, Ahmad Yugnakiy singari buyuk ijodkorlar ham tug'ma ojizliklariga qaramay, o'z asr-larining yagonasi bo'lganlar.

Rudakiy ijodiy merosi haqidagi mulohazalar ham turli-tuman. As-Saolibiy(XI asr), Muhammad Avfiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy(XIII asr), Davlatshoh Samarqandiy(XVI asr) kabi olimlar shoir asarlarining hajmini bir million baytdan uch million baytgacha taxmin qiladilar. Bu raqam qay darajada mubolag'ali bo'lmasin, muttasiyl badiiy ijod bilan shug'ullanigan, doim badiha tarzida she'r aytil yurgan Rudakiy merosi ulkan bo'lgani tabiiy. Yuksak vatanparvarlik ruhidagi «Buxoro» qasidasining yaratilish tarixi ham bu mulohazani quvvatlaydi. Afsuski, mo'g'ul yang'mosining vahshiyligi tufayli O'tror, Samarcand va Buxoro kitobxonalaridagi dastxatlar kuyib, kul bo'ldi. Shuning oqibatiда Rudakiy asarlaridan bizgacha ikki ming baytdan ziyodroq namunalar saqlanib qolgan, xolos. Ammo ana shu boqiy misralamingo'ziyoq Rudakiy dahosini tasavvur qilish imkonini beradi.

IX—X asrlarda hali forsiy adabiy til to'la shakllanib ulgurmagan, unda yetarli darajada badiiy ijod ne'matlari yaratilmagandi. Ana shunday bir sharoitda Rudakiy xalq og'zaki ijodi injulariga suyangan holda forsiy adabiy tilning poydevorini qurdi, forsiy tildagi adabiyotga asos soldi. Bu sohada aytarli an'ana bo'lмаган yerda lirik turning barcha janrlarida mumtoz asarlar yozdi. «Kalila va Dimna», «Sindbondnomia» singari masnaviytlarni yaratdi. Badiiy ijodning barcha sohasida birinchib o'ldi. Shuning uchun ham zamondoshlari uni «Odam ush-shuar — shoirlar Odam Atosi» degan nom bilan sarafroz etdilar.

Haqiqatan ham, Rudakiy she'rlerini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda haqiqiy ishq bilan majoziy ishq, insondo'stlik, vatanparvarlik, ilm o'rganish, kasb-hunar egallash, insof va diyonat,adolat va adolatlilik shoh, ona tabiatga mehr, atrof-muhitni avaylab-asrash g'oyalari betakror nafis obrazlilikda tasvirlanganining guvo hi bo'lamiz. Shoir g'azallarida oshiq ruhiy kechimnalarini qay yo'sinda bokira tarzda ifodalashga erishsa, ma'shuqa chiroynini undan-da go'zal vositalarda tasvirlaydi. Masalan, bir baytda yorning sadafdek tishlarini yomg'irdan so'ng nihol shoxchasi da tizilib qolgan shaffof donachalar — qatraboronga o'xshatsa, boshqa bir baytda «yuzingdan pardangni ko'targaningda quyosh xijolatdan yuzini berkitdi, ya'ni o'zini bulut orqasiga oldi», deydi. Ma'shuqa etaklarini yer yuzidan sudrab o'tgani uchun tuproq poklanib, «suv bo'lmasa tayammum» etib, ibodat qilish joiz bo'lgan ekan. Bunday tasvir mavlono Lutfiyda ham uchraydi. Oshiq ertalab bog' sayriga chiqsa, anhordan gulob hidi anqirdi. Yorab, yorim mendan oldin chiqib ariq boshida yuz-qo'lini yuvdimikan, deb o'yga toladi oshiq. Ruhiy holat tabiat chiroyining turfa unsurlari ta'rifli orqali chiziladi:

Bahor oyiyetib kelib, qish oyini etdi yag'mo,

Fazo yuzin qopladi ch'ang, qonga to'ldi dashtu sahro.

Ilk bahorning ko'z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang,  
Hamal oyin xush hididan bo'ldi tuproq anbaroso.

Layli yuzi kabi lo'lakeng sahroda kulib turar,  
Majnun ko'zi kabi bulut qon yoshini qilur daryo.

Oqar suvdan kelmo qdadir har soatda gulob hidi,  
Mening yorim ariq ichra gul yuzini yuv mish go'yo.

Rudakiy asarlarida ilm egallashga da'vat, insonni sharaflash, bu dunyoda «bani odamga yaxshilik qilib» yashashga undov. Olloh tomonidan berilgan qisqa umrni ilm o'rganib, umi ijtimoiy-foydali menehatga sarflash ga da'vat yetakchi motivlardan hisoblanadi:

Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki,  
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.  
Jahon dengiz erur yaxshi ishingdan,  
Kema yasab o'tgil nargi tormonga.

Shoir asarlarida shodu xurramlik, Navro'zi olam tarovatiyu, sharobning hayotbaxsh fazilati, yorning nozu karashmasiyu, do'stilar diyordining farahbaxsh qudrati, xayr-ehson, insof va muruvvat, rahm-shafqatlari bo'lish ham masnaviyalarini qasidalarida qit'ayu ruboiyalarida zo'r musiqiylikda tarannum etiladi.

Rudakiy qasida janining eng mumtoz namunalarini yaratgan. «Buxoro», «Mayning onasi», «Qarilikdan shikoyat» singari asarlarida shoir, bir tomonidan, vatanparvarlik, insondo'stlik, rnehnatsevarlik, umming qadriga yetish xususida jo' shqin fikrlar yuritsa ikkinchi tomonidan, go'zal tabiatni sevish, hamisha shodu xurram yashashga undaydi. Sononiy zodagonlar madhiga bag'ishlangan qasidalarda esa, shoir ko'proq ularning davlat ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini, xalq farovonligini oshirishdag'i sa'y-harakatlarini ta'riflashga intilgan. Rudakiy asarlari o'ta sodda, rav'on bir usulda — sahli mumtane' — osonu nomumkin usulida yozilgan.

O'tmishda juda ko'p fors-yo'y shoirlar uning asarlariga o'xshatma, tazminlar yozgan. Ammo biron ijodkor Rudakiy darajasiga yetolmagan. Jumladan, «Bo'y i jo'yi Mo'liyon oyad hame...» deb boshlanadigan Buxoro qasidasiga fors-tojik adabiyoti klassiklaridan 120 shoir nazira yozgan. Ammo biron tasi asl matn darajasiga yetolmagan: vazn, ohangini topganlar mavzuda qoqilgan, mavzuni nishonga to'g'ri ola olganlar esa, musiqiylik qofiyani uddalay olmaganlar. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan buyuk so'z san'atkorlari Rudakiy dahosini munosib qadrlagan, uning she'riy qudratiga yuksak baho berishgan.

Jumladan, zabardast lirik shoir, birinchi shohnomanavis Daqiqiy uni shunday ta'riflaydi:

G'aza l rudakiyvor bo'lgay go'zal,  
Rudakiyich a g'azal yoza olmadim.  
Juda nozik xayol bilan urinib,  
Bu pard a ichiga yo'l topolmadim.

Abu Abdulloh Rudakiy o'zi kuylagan vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, xalqlar do'stligi g'oyalari bilan barcha zamonlarda bashariyatga xizmat qilaveradi. Shoir ijodi qadim ul-ayyomdan beri o'zbek xalqiga juda yaqin. Bobur «Muxtaras» risolasida shoir asarlaridan namunalar keltirgan, Po'latxon Domullo Qayumiy o'z tazkirasida shoir ijodini yoritgan. Ustozlarimiz S.Ayniy, N.Mallaev, Sh.Shomuhammad hamda M.Muinzoda Rudakiy hayoti va ijodini tahlil qilib, asarlarini tajirma etib, targ'ib qilishda zahmat chekkanlar.

### Topshiriq:

- 1.Matndan atoqli otlarni ajratib yozing yozing.
- 2.Notanish so'zlarining izohli lug'atini tuzing.
- 3.Rudakiy hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
- 4.Rudakiy asarlarida qanday mazvular tarannum etilgan?

### AL-XORAZMIY (783-850)

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xorazmda tug'ilgan. Bag'doddagi "Bayt-ul Hikma" ilmiy markazida faoliyat ko'rsatgan. U yerda ilmiy rahbar bo'lib ishlagan.

Al-Xorazmiy ilmu fan sohasida bir qancha shoh asarlar yaratgan va insoniyat amaliyotiga quyidagi olamshumul ilmiy-amaliy yangiliklarni kiritgan: Al-Xorazmiy algebra fanining asoschisi va buyuk kashfiyotchidir. U "Al-Jabr val-muqabil hisobi haqida qisqacha kitob" asarida tarixda birinchi marta algebra fani, ya'ni Matematikaning miqdorlar ustida, ularning son qiymatidan qat'i nazar bajariladigan amallarining umumiyy qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limini yaratdi. Al-Xorazmiyning "Al-Jabr" asari o'rta asrlar Yevropasida fanning asosiy tili bo'lgan lotin tiliga Sharq mamlakatlariда fanning umumiyy tili bo'lmish arab tilidan o'girildi va arab tilidan o'zlashtirish qoidalariiga binoan "Algabr" shaklida namoyon qilindi, keyinchalik esa "algebra" deb o'qila boshladi. Bu asar birinchi marta lotin tiliga 1145

yilda tarjima qilingan. XIX-XX asrlar davomida ingliz, fransuz, olmon va boshqa tillarda chop etilgan. 1964 va 1983 yillarda rus va o'zbek tillarida nashr etilgan. Al-Xorazmiy algoritmnинг kashfiyotchisidir, ya'ni bir turdagи masalalarning biror sinfiga r mansub har qanday konkret masalani soф mexanik ravishda yechishga imkon beruvchi qoidalari tizimini tarixda birinchi marta tuzib bergan. "Algoritm" so'zi "al-Xorazmiy" so'zining o'rta asr Yevropa fanida o'qilishidir (dastlabki tarjimonlar arabcha yozilgan "al-Xorazmiy"ni "algoritm" deb lotinchaga o'girganlar). Al-Xorazmiyning fan va amaliyotdagi buyuk xizrnati shundan iboratki, alloma kosmonavтика, atom elektr stansiyalari, elektronika, iqtisod, xalq xo'jaligining, hayotning har bir sohasida boshqarish tizimlarini tuzishda, elektron-hisoblash mashinalari hamda kompyuterlar oilalarini yaratishda asos va zamin bo'lib xizmat qila digari qoidalari majmuuni ishlab chiqgan. Texnika, fan, texnologiya va umuman hayot murakkablashgani sayin algoritmnинг ahamiyati oshib bormoqda.

Al-Xorazmiyning "Hind hisobi bo'yicha kitob", "Astronomik ziyy", "Yer surati haqidа kitob" asarlari XI-XII asrlardayоq lotin tiliga, XIX-XX asrlarda esa hozirgi zamonnинг eng keng tarqalgan tillariga o'girilgan. Bu asarlar deyarli o'n ikki asr davomida barcha musulmon mamlakatlariда (al-Xorazmiy o'z asarlarini o'sha zamон musulmon mamlakatlariда barcha fanlarning umumiy tili bo'lgan arab tilida yozgan) va deyarli ming yil davomida Yevropa mamlakatlariда fanga, amaliyotga, inson manfaatlariga xizmat qilmoqda.

1983 yili YUNESKOning qarori bilan Muhammad al-Xorazmiyning 1200 yillik yu bileyi o'tkazildi. Hozirgi paytda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida "Algoritm" instituti, mamlakatimiz poytaxtida "Algoritm" zavodi ishlab turibdi. Buyuk aj dodimiz O'zbekiston faxridir.

### Topshiriq:

1. Matmazmuni yuzasidan reja tuzing.
2. Matndan yasama so'zlarni ajratib yozing.
3. Al-Xorazmiyning mashhur asarlarini aytинг.
4. Al-Xorazmiy qaysi fanning asoschisi.

### AL-BUXORIY

(810 yil, Buxoro - 870 yil, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'i) - "hadis ilmida amir al-muminiyn" (hadis ilmida musulmonlarning yetakchisi) degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan, hayoti va ijodi alohida e'tiborga molik buyuk olim, muhadis, ya'ni hadisshunos mutafakkir. Yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida

o'sgan. Aql-idroki, o'tkiz zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallagan. O'n yoshida Qur'oni karimni yod olgan, olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilish va kishilardan eshitish asnosida hadislarni yodlagan, ustoz Shayx Doxiliy bilan hadis rivontchilar haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825 yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijoza yo'l oladi, muqaddas shaharlar Makka va Madinada olti yil yashaydi, o'sha davr ilmiy markazlari — Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod shaharlari umr kechirib, fiqh (ilohiyot) fani bo'yicha ham ta'llim oladi, bahslarda qatnashadi, dars ham beradi. Zamondoshlaridan birining yozishicha, o'z ilmini oshirish maqsadida, al-Buxoriy to'qsontacha olimidan ta'llim oladi, o'z navbatida ko'pgina shogirdlariga ustozlik qiladi.

Uzoq yillar Sharqning turli mamlakatlarda safar qilgandan so'ng, umrining oxirlarida al-Buxoriy besh yil (863-868 yillar) Eronning shaxsi-shimolida, ona yurtiga yaqin joylashgan Nishapur shahrida yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan, at-Termizi bilan unutilmas, qizg'in bahslar o'tkazgan, "Men sendan ko'rgan foyda, sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq", deb unga nisbatan chuqrur hurmatini bildirgan. Imam al-Buxoriy xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatpeshaligi, himmati va sahovati bilan ajralib turgan, zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat mashhur bo'lgan. Manbalarda al-Buxoriyning 300 mingga yaqin hadisini yod bilgani qayd qilingan.

Imam al-Buxoriy xorijdan qaytgach, ona yurti Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Hasadgo'ylarning xatti-harakati sababli Buxoro amiri bilan munosabatlari buzilib qoladi va Samarqandga yo'l olib, shahar yaqinida joylashgan Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari davrasida yashab, og'ir kasalga chalinadi va vafot etadi.

Imam al-Buxoriy yigimidan ortiq asar yozgan bo'lib, ular orasida eng mashhuri "Al-Jome' as-sahiyh"dir. O'zigacha o'tgan muhaddislardan farqli o'laroq al-Buxoriy hadislarni tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchllilarini ajratib alohida kitob yaratgan. Ushbu asar yozilganiga taxminan 1200 yil bo'lsa-da, u islam ta'llimotida Qur'onidan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuksak baholanib kelmoqda. Bu kitobning 1325-yilda ko'chirilgan sakkiz jiddan iborat go'zal nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda.

Imam al-Buxoriy asarlarini mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onas, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va halollikka da'vet etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunalini tartibotlar majmuasidir. Ularda ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'gitlar aks ettirilgan.

## Topshiriq:

1. Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing.
2. Yolash gan unlilar ishtirok etgan so'zlarni ajratib yozing.
3. Al-Buxoriy hayoti va ijodi haqida qanday ma'lumotlami bilasiz?
4. Imom al-Buxorining eng mashhur asari qaysi?

## AL – FARG'ONIY IBN MUHAMMAD

(Fargona vodisida tug'ilgan, taxminan 861- yili vafot etgan, tavallud sanasi esa an iq emas) - al-Xorazmiy bilan bir vaqtda, Bag'doddagi "Bayt-ul Hikma" ilmiy markazida ilmiy ishlilar bilan shug'ullangan. Kitoblari Yevropa o'rta asrlar universitetlari da astronomiyadan asosiy darslik va qo'llarma hisoblanib, muallifning ism-nasabi "al-Farg'oniy"ni lotinchasiga "Alfraganus" deb ataganlar. Al-Farg'oniy shu nom bilan dunyoda mashhur va ma'lumdir.

Al-Farg'oniyning asosan olita kitobi jahon bo'ylab tarqalgan:

- 1) "Kitob fi usul ilm an-Nujum". Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lib, besh xil nom ostida saqlanib kelmoqda. Chunonchi, "Almajisti"ga bag'ishlangan astronomik risola, "Falak sferalari sababiyati", "Almajisti" (Almagest), "Ilm al-haya" (Astronomiya ilmi). Bu qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSh, Marokash, Misr va Rossiya kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. Asar 1145 yili va 1175 yili lotin tiliga tarjima qilingan, chunki o'sha davrda lotin tili Yevropa mamlakatlari mushtarak fan tili hisoblangan, har bir diqqatga sazovor yirik ilmiy asar shu tilda chop etilgan va lotin tili orqa li butun fan olamiga tarqalgan va ma'lum bo'lgan. Asar 1193, 1533, 1590 va 1910 yillarda atoqli olimlar va noshirlar rahbarligida Yevropaning turli mamlakatlari da chop etilgan.
- 2) "Al-Farg'oniy jadvallari" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).
- 3) "Oy Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqt ni aniqlash risolasi" (qo'lyozmasi Qohira da saqlanmoqda).
- 4) "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).
- 5) "Yetti iqlimi hisobi" (qo'lyozmasi Olmoniyada saqlanmoqda).
- 6) "Usturlob yasash haqidagi kitob" (qo'lyozma nusxalari Fransiya yoki Olmoniyada toplilishi mumkin. chunki 1919 yilda asarni Eyderman olmon tilida nashr etgan). Samoviy jismilar harakatini Nyuton va Laplas massa harakatining dinamikasi shaklidagi, Kepler esa geometrik yo'sinda bayon etgan bo'lsa, al-Farg'oniy ulardan bir necha asr avvalroq jadvallar qonuriyat shaklidagi izohlagan. Jadvalning fazilati va imtiyozi – uning jonli mushohadaga ochiq ekanligidir.

oyeksiyalar nazariyasining kashfiyotchisi ham al-Farg'oniyidir. Yoralar va yulduzlarining, binobarin, umuman osmonning bo'lajak uchun geometrik-kinematik usul astronomiya fanining umumiy abul qilib olingen bo'lsa, jahon munajjimlik fanining bunday elishida al-Farg'oniy topgan va asoslagan usturlob (Yevropachasiga asbobining ahamiyati katta bo'lgan. Chunki osmon gumbazida la joylashtirilgan meridian, ekvator, ekliptika, azimut, koordinata arining, burchaklarning, nuqtalarning doira asbobga proeksiyalarini, hukllarning tekislik dagi tasvirini tushirish fanga, astronomiyaga, ncha qulayliklar tug'dirgan. Bu asbob ilgari ham bor edi. Lekin, ni faqat al-Farg'oniy kashf etdi. Bu kashfiyotning ahamiyati va ilmiy oslanganligini shundan ham bilsak bo'ladiki, al-Farg'oniy davridan keyin, XVII asrda buyuk matematik Eyler bu nazariyani jug'rofiy nazariyasiga tatbiq qildi va "Rossiya imperiyasining bosh jug'rofiy da ishlataldi. Bu nazariya kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, triyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrani-Kleyen proeksiyasi, a va kosmografiyaning zaminlarida yotadi.

Tanimiz d'ovrug'ini jahonshumul darajaga ko'tarib kelayotgan alloma lir.

### Topshiriq:

■ hragan notanish so'zlar lug'atini tuzing.  
■ niyning dunyoga mashhur nomini aytинг.  
■ lab tarqalgan asarlari nomini yozing.  
■ niyning yana qanday kashfiyotlarini bilasiz?

## A BU MAN SUR AL-MOTURIDIY

(870 - 946)

diy 870 yilda tavallud topgan. Uning to'liq ismi Abu Mansur Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiyidir. U Samarqand Nasr saroyida ilohiy bilimlar bilan shug'ullangan. Samarqandning tomonidan bosib olinishi allomaning ijodiga halqit beradi, u Moturid qishlog'ida yashaydi.

moniy al-Moturidiyni saroyga taklif qiladi, lekin alloma bu taklifni marqanddagi katga Jome' masjidida imom-xatib bo'лади, o'z bog'ida diy juda ko'p shogirdlar yetishtirgan, bir qancha asarlar yaratgan. U my 335 y) vafot etgan. Uning qabri Samarqanddagi Chokartiza

Stereografik proyeksiyalar **nazariyasining** kashfiyotchisi ham al-Farg'oniyidir. Quyosh, Oy, sayyoralar va **yulduz laming**, binobarin, umuman osmonning bo'lajak manzarasini bilish uchun **geometrik-kinematik** usul astronomiya fanining umumiy usuli sifatida qabul qilib olingan **bo'lisa**, jahon **munajjimlik** fanining bunday umummaxraja kelishida al-Farg'oniy topgan va asoslagan usturlob (Yevropachasiga - astrolyabiya) asbobining **ahamiyati** katta bo'lgan. Chunki osmon gumbazida mavhum ravishda joylashtirilgan **meridian**, ekvator, ekliptika, azimut, koordinata o'qlari va tizimlarining, burchaklarning, nuqtalarning cloira asbobga proeksiyalarini, ya'ni fazoviy shakllarning **tekislikdag'i** tasvirini tushirish fanga, astronomiyaga, dengizchilarga ancha **qulayliklar tug'dirgan**. Bu asbob ilgari ham bor edi. Lekin, uning nazariyasini faqat al-Farg'oniy **kashf** etdi. Bu kashfiyotning ahamiyati va ilmiy izchillik bilan asoslanganligini shundan ham bilsak bo'ladiki, al-Farg'oniy davridan qariyb ming yil keyin, **XVII asrda** buyuk matematik Eyler bu nazariyani jug'rofiy xaritalar tuzish nazariyasiga **tatbiq qildi** va "Rossiya imperiyasining bosh jug'rofiy xaritasini"ni tuzishda ishlatdi. **Bu nazariya kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevklid geometriyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrani-Kleyn proeksiyasi, kosmik geodeziya va kosmografiyaning zaminlarida yotadi.**

Al-Farg'oniy Vatanimiz dovvug'ini jahonshumul darajaga ko'tarib kelayotgan alloma ajdodlarimizdandir.

#### **Topshiriq:**

1. Matnda uchragan **notanish so'zlar lug'atini tuzing**.
2. Al-Farg'oniying **dunyoga mashhur nomini aytинг**.
3. Juhon bo'ylab tarqalgan **asarlari nomini yozing**.
4. Al-Farg'oniying **yana qanday kashfiyotlarini bilasiz?**

#### **ABU MAINSU R AL-MOTURIDIY**

(870 - 946)

Al-Moturidiy 870 yilda **ta Vallud** topgan. Uning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiyidir. U Samarqand shahrida podshoh Nasr saroyida ilohiy bilimlar bilan shug'ullangan. Samarqandning Ismoil Somoniy tomonidan bosib olinishi allomaning ijodiga halaqit beradi. u saroydan ketib, Moturid qishlog'ida yashaydi.

Ismoil Somoniy al-Moturidiyning saroya taklif qiladi, lekin alloma bu taklifni rad etadi. U Samarqanddagi katga **Jome'** masjidida imom-xatib bo'ladi, o'z bog'ida ishlaydi. Moturidiy juda ko'p shog'irdlar yetishtirgan, bir qancha asarlar yaratgan. U 946 yilda (hijriy 335 y) vafot etgan. Uning qabri Samarqanddagi Chokartiza

qabristonidadir. O'zbekistonda alloma tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi. Asarlari: «Kitab al-usul» («Diniy ta'limat usuli kitobi»), «Kitab tawhid», «Shariat asoslari sarasi», «Dialektika haqida kitob», «Risola jonvor doriy» («Jonvorlarga oid risola»), «Pandnoma» va boshqilar.

### Topshiriq:

1. Matndan egalik affikslari ishtirok etgan so'zlarini yozing.
2. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.
3. Motridiy hayoti va ijodiga oid qanday ma'lumotga egasiz?

## QAFFOL SHOSHIY

Shof'iilik mazhabining yetakchi olimlaridan biri, muhaddis, faqih, tilshunos, shoir Qaffol Shoshiy Hazrati Imom (qisqacha — Hastimom) nomi bilan mashhur. Alloma, shuningdek, mohir hunarmand ham bo'lib, qulfozlikda shuhrat qozongani bois "Qaffol", ya'ni qulphi, qulfsoz degan nom bilan e'zozlangan va bu so'z uning taxalilusiga aylanib ketgan. U chuqur bilimi, ulkan ishlari evaziga "Innom al-Kabir" ("Ulug' i nom") deb tariflangan. (to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol ash-Shoshiy al-Kabir) (903—976)

Qaffol Shoshiy Shosh (Binkat)da hunarmand oilasida tugildi. Dastlabki bilimini O'z yurtida, keyinchalik Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarda olib, o'zidan avvalroq o'tgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi yirik allomalar merosi bilan tanishdi. Taniqli muhaddis va ilohiyotchi Haysam ibn Kulaybdan, shuningdek, Shoshiy Xuroson, Iraq. Shomda bo'lib zamonasining yetuk allomalaridan tahsil oldi. Arab Sharqi mamlakatlari bo'ylab uzoq safarda boldi, ancha vaqt Bag'dodda yashadi. Mashhur imom Abul Abbas Ahmad ibn Umar ibn as-Surayjiy (850—918)ning shogirdi bolgan. Xalifalikda turli lavozim, vazifalarni ado etgan. Xususan, xalifalikka tahdid etib turgan Vizantiya imperatori Nikifor Foka (963—969) nomidan musulmonlarga yuborilgan haqoratli she'riy maktubga Qaffol Shoshiy javob qasid asini yozgan. Natijada bu raddiya xalifalik boshiga tushgan xavf-xatarni bartaraf etilishiga sabab bo'lgan. Xalifa Muti'lilloh (946—974) Qaffol Shoshiyga xizmati evaziga Usmon Mushafini berganligi manbalarda zikr etilgan. Qaffol Shoshiy haj safarlaridan birida xalifalik bilan Vizantiya o'tasidagi urushga qatnashishiga to'g'ri kelgan. Jangda vizantiyaliklar g'olib chiqib o'n ming musulmonni, jurnladan Qaffol Shoshiyi asir olganlar.

Qaffol Shoshiy Tavrotring asl n usxasini arab tiliga tarjima qilib bergani uchun imperator uni va boshqa asirlarni ozod etgan. Bag'dod xalifasi uning bu xizmati evaziga va allomaning iltimosiga ko'ra Toshkent shahrida sug'orish ishlari olib borish uchun xazinadan 160 ming tanga in'om etgan.Qaffol Shoshiy Movarounahrda, xususan, Shoshda shofi'iylik mazhabini targ'ib etib, diniy bilimlarning tarqalishiga, shariat asoslari qaror top ishiga hissa qo'shdi.

Qaffol Shoshiy faqihlar ichida birinchi bo'lib "Yaxshi bahs-munozara" ("al-Jadal al-hasan") bo'yicha asar yozgan. Shuningdek, uning "Fiqh asoslari bo'yicha kitob" ("Kitob fi usul al-fiqh"), "Risola sharhi" ("Sharh ar-risola"), "Qozi odobi" ("Adab al-qozi"), "Payg'ambarlik dalillari" ("Daloil an-nubuvvat"), "Shariat go'zalliklari" ("Mahosin ash-sharia"), "Hikmatli iboralar to'plami" ("Javomi' ul-kalim") kabi asarlari islam olamida mashhur bo'lgan. Qaffol Shoshiy she'rlar ham yozgan. Ulardan ayrim parchalar olim Tojuddin as-Subkiyning "Shofi'iylik mazhabi darajalari" ("Tabaqot ash-Shofi'iya") kitobi orqali saqlanib qolgan.

Qaffol Shoshiy Toshkentda vafot etgan va shu yerda dafn etilgan. Alloma qabri atrofida keyinchalik Hazrati Imom majmuasi shakllangan. Majmua tarkibidagi Namozgoh masjidida o'tmis hda shahar aholisi juma va hayit namozlarini o'qigan. Mustaqillik yillarda davrlar o'tib xaroba holiga tushib qolgan majmua tubdan qayla ta'mirlandi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan boshlangan 2007-yildagi ulkan ta'mirlash ishlari natijasida Hazrati Imom jome masjidi bunyod etildi. Masjid poytaxti mizdagina emas, yurtimizdagi eng katta masjid hisoblanadi. Hozirda majmua hududi xalqimizning sevimli sayilgoh, ziyoratgohlaridan biriga aylangan.Bizzgacha shoirning adabiy merosidan bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboilyari, "Suhayl va Guldursun" dostoni (1394) hamda Sa'diy Sheraziyning asarinining tarjimasи "Gulstoni bit-turkiy"(1390-91) yetib kelgan. Ayrim asarlari Istanbulda (1926) "Turk adabiyoti namunalari"da berilgan. "Suhayl va Guldursun" dostoni o'zbek epik she'riyati taraqqiyotida o'z o'miga ega. Doston xalq afsonasi "Guldursun" asosiga qurilsa-da, unda real tarixiy voqealar, ya'ni Amir Temurning Xorazmga yurishi ham aks etgan.

### Topshiriq:

- 1.Matndan -li, -si, -chi, -ki, -iy qoshimchali yasama sifatlarni topib ko'chiring.
- 2.Matnda omonim so'zlarini ajratib yo'zing.
- 3.Qaffol Shoshiy hayoti haqidada nimalarni bilasiz?
- 4.Mustaqillikdan Shoshiy nomini abadiylashtirish yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi.

## BERUNIY ABU RAYHON

(973-1048) - jahon, xususan, Sharqmadaniyati, fanining yorqin siymolaridan biri, o'rtalaslar davrining buyuk qomusiy olimi (to'liq ismi-sharifi Abu Rayhon Muhammad ibn Axmadal-Beruniy) Xorazmida tug'ildi, onayurtida ta'lif oldi va zamonasining eng yirik olimlaridan bo'lib yetishdi. 1973 yilda YUNESKO tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miyosida keng nishonlandi.

Beruniy Xorazmshoh Ma'mun raxnamoligida Urganchda vujudga kelgan o'z davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri - Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'ssatdi. Keyinchalik esa har xil sabablarga ko'ra G'azna shahriga ketishga majbur bo'ldi, ona yurtidan yiroqda ham yirik fan va jamoat arbobi sifatida katta obro' qozondi.

Abu Rayhon Beruniyning o'rta asrlar fanlariga, xususan, astronomin, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, geologiya, farmakognoziya, falsafa, xronologiya, fanlar tarixi va boshqa fanlarga qo'shgan ulkan hissasi uni butun dunyoga tanitdi. U o'rta asrlar sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos solgan allomalardan biri bo'lib, turli sohalarda o'z davri uchun taajjubga soluvchi fikrlar, xulosalar va ilmiy farazlarni oлg'a surgan ediki, ular bir necha asrlardan so'ng Yevropa ilmida o'z isbotini topdi. U haqiqiy tajribaga, kuzatishga, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardandir. Aniq ilmiy yondoshuv asosida mashhur yunon mutafakkiri Aristotel qarashlarini rivojlantirdi, zaif tomonlariga esa tanqidiy nuqtai nazardan yondoshishga harakat qildi.

Beruniy komil insonparvar sifatida xalqlar do'st-inoq va birdamlikda yashashi uchun kurashdi, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Allomaning Hindiston va boshqa mamlakatlarda amalga oshirgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o'tasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik, madaniy, ilmiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Beruniyning e'tiqodiga ko'ra, har bir xalq ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish uchun haqiqiy mustaqil bo'lishi kerak. Shuning uchun Beruniy Sulton Mahmud Faznaviy tomonidan Hindistonga uyushtirilgan yurishlar hind madaniyatiga katta zarar keltirganligi to'g'risida ochiqdan-ochiq yozadi.

Qomusiy olim avvalo chinakam vatanparvar bo'lib, butun fikri-zikri, faoliyati xalqi va diyori mustaqilligi hamda rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Ubunday ezgu ishga ham buyuk olim, ham yirik ijtimoiy-siyosiy arbob sifatida salmoqli hissa qo'shdi. Asarlarida Xorazm xalqining qadim va boy madaniyati va fanini yuksak baholaydi, Ibn Qutayba boshchiligidagi arab istilochilar tomonidan keltirilgan talafotlar to'g'risida darg'azab yozadi.

Beruniy ullkan meros, o'z davri ilm-fanining turli sohalariga oid '160 dan ortiq asarlar, bir necha tillardan bajarilgan tarjimalar, turli yozishmalar qoldirdi. Ular orasida jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Saydana" (Mineralogiya) kabi asarlari alohida o'rinn tutadi. O'rta asrlardan boshlab, xususan XIX asrda, uning asarlari lotin, fransuz, ingliz, olmon, fors, turk tillariga o'girildi.

O'zbekiston olimlari Beruniy merosini o'rganishga katta hissa qo'shamoqdalar. Asosiy asarlarini qamragan ko'p jildlik saylanma nashrlar o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etildi. Hozirgi kunda ulug' alloma merosiga jahon miqyosida qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda fan va texnika sohasidagi eng yaxshi asarlar uchun beriladigan Davlat mukofoti Beruniy nomi bilan ataladi.

### Topshiriq:

1. Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing.
2. Matndan juft so'zlarni ajratib yozing.
3. Beruniy hayotiga oid qanday ma'lumotlarni bilasiz?
4. Beruniy ilm-fanning qaysi sohalarida ijod qilgan?

## ABU RAYHON BERUNIYNING IQTISODIY IXTIROSSI

Pul paydo bo'lgan davrdan boshlab, ayniqsa, tanga shaklidagi turli metallardan pul zarb etish boshlangan. Misrda Movaroynnahr va Xurosonda juda katta miqdorda to'la qiymatga ega bo'limgan tangalar zarb etish avjga chiqqan. Masalan, muomalada bo'lgan "Ismoil iy" dirhamlari qimmatga ega bo'limgan metallardan zarb qilingan Buxoro dirhami - "gitrifly" yoki past sifatli kumushdan yasalgan "Muhammadiy" tangalar muomalaga chiqarilgan. Bunday hoi turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Bu oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Malumki, Abu Rayhon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik bo'yicha o'z davrining eng yirik olimi edi. U iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday ahvolga qarab turmadni. U juda katta tadqiqotlari, izlanishlar, amaliy tajribalar o'tkazib, minerallar tarki bidagi qrimmatbaho metallar hissasini topish uslubi-maxsus o'Ichov asbobini yaratdi. Bu asbob pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebahoh amaliyatga ega bo'lg'i. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar

tarkibidagi qimmatbaño metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtaşıdagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almash tirishning adołatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qay usulda yasalganini "Mineralogiya" nomli asarida bavon qilgan.

### Topshiriq:

1. Matndan iqtisod sohasiga oid so'zlarni ajratib yozing.
2. Beruniyning iqtisodiy ixtirosi nimadan iborat?

## ODAMUSH – SHUARO – ABU ABDULLOH RUDAKIY

Abu Abdulloh Ja'far ibn Muhammad ibn Abdurahmon Odam 858 yili Samarqand shahri yaqinidag Panjrudak qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limmi oila muhitida olgan Ja'far Samarqand madrasalarida zamonasidagi barcha bilimlami puxta egal laydi, Qur'on hofizi darajasiga yetadi: xalq she'riyat, qo'shiqlarini sevib kuy lab yuradi; mashhur mashshoq va badihago'y Abu Abbas Baxtiyordan musiqa ilmini o'rganadi; barbat, rud, ud, chang, qonun asboblarini chalishda shuhrat qozonadi; musiqalarga o'zi she'rلар bitib, ularda Rudakiy taxallusini qo'llay boshlaydi.



Arablar istilosiga barham berilib, markazlashgan davlat barpo etilgach, Xurosonu Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, adabiy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq gurkirab rivojlanadi. Ayniqsa, davlatning qudrati Amir Nasr II Somoni (914 — 943) davrida yanada oshadi. U shaharu qishloqlardan, uzoq-yaqindan ahli hunar, ilm-adab ahlini markaz Buxoroga to'playdi, ularning faoliyatiga sharoit tug'dirib beradi, homiylik qiladi. She'riyat va musiqada shuhrati oshgan Rudakiy ham saroya chaqirtiriladi. Natijada shoir butunlay ijodga sho'ng'ib ketadi: qasidalar, g'azallar, ruboiiy, qit'a, dostonlar yaratadi. Uning obro'si ortib, boyligi ham oshib boradi. Bu xususda mashhur tarixchi, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy «Lubob ul-albab»(1222) tazkirasida quyidagilarni yozgan: «Rudakiy usta cholg'uchi bo'lib yetishgach, uning ovozasi butun olamiga yoyildi. Xuroson amiri Nasr ibn Ahmad Somoni uni o'zining yaqin kishilari qatoriga qo'shgach, u yuqorilab ketdi, uning boyligi esa haddan tashqari ko'payib ketdi... Undan keyingi shoirlar orasida hech kimga bunday boylik nasib etmadidi va hech kim uningdek baxt egasi bo'loImadi».

Haqiqatan ham, Rudakiy Somoniy amirlarining eng «yaqin nadimi» (Avfiy), xushxon hofiz, mohir mashshoq, nuktasanj shoir sifatida beqiyos obro'ga ega edi. Somoniy amirlarining barcha safarlarida shoir asarlarining qo'lyozmalari Turondan Xuroson shaharlariga tuyalar-gayuklab olib borilib, ko'z-ko'z qilib yuri lishi ham buni tasdiqlaydi. X asrning o'talariga kelib saroydagi ahvol og'irlashadi. O'z homisi va do'stlaridan judo bo'lgan, qartay ib qolgan, saroy atrofidagi mashmas halardan zada Rudakiy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazib, 941 yili vafot etgan.

Qadimiy sarchashmalarda Rudakiyning shaxsiyati, taqdiri haqidagi rang-barang ixtilofli fikrlar mavjud: ayirnoli rmlar shoir tug'ma ojiz edi, deyishsa, ba'zi tadqiqot va maqolalarda u qand kasaliga g'rifitor bo'lgani uchun qariganida ko'r bo'lib qolgan, degan fikmi uqtiradilar. Bizningcha, Rudakiyning «modarzod ko'r» bo'lgani haqiqatga yaqin. Zero ki, Homer, Abu A'lo al-Maariy, Ahmad Yughnakiy singari buyuk ijodkorlar ham tug'ma ojizzliklariga qaramay, o'z asrlarining yagonasi bo'lganlar.

Rudakiy ijodiy mero si haqidagi mulohazalar ham turli-tuman. As-Saolibiy (XI asr), Muhammad Avfiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy (XIII asr), Davlatshoh Samarqandiy (XVI asr) kabi olimlar shoir asarlarining hajmini bir million baytdan uch million baytgacha taxmin qiladilar. Bu raqam qay darajada mubolag'ali bo'lmasin, muttasil badiiy ijod b'ilan shug'ullangan, doim badiha tarziда she'r aytib yurgan Rudakiy merosi ulkan bo'lgani tabiiy. Yuksak vatanparvarlik ruhidagi «Buxoro» qasidasining yaratilish tarixi ham bu mulohazani quvvatlaydi. Afsuski, mo'g'ul yangmosining vahshiyligi tufayli O'tror, Samarkand va Buxoro kitobxonalaridagi dastxatlar kuyib, kul bo'ldi. Shuning oqibatida Rudakiy asarlaridan bizgacha ikki ming baytdan ziyo droq namunalar saqlanib qolgan, xolos. Ammo ana shu boqiy misralarning o'ziyoq Rudakiy dahosini tasavvur qilish imkonini beradi. IX — X asrlarda hali fors iy adabiy til to'la shakllanib ulgurmagan, unda yetarli darajada badiiy ijod ne'matlari yaratilmagandi. Ana shunday bir sharoitda Rudakiy xalq og'zaki ijodi injulariga suyangan holda forsiy adabiy tilning poydevorini qurdi, forsiy tildagi adabiyotga asos soldi. Bu sohada aytarli an'ana bo'lmagan yerda lirik turning barcha janrlarida mumtoz asarlar yozdi. «Kalila va Dimna», «Sindbonchoma» singari masnaviyatlarni yaratdi.

Badiiy ijodning barcha sohasida birinchi bo'ldi. Shuning uchun ham zamondoshlari uni «Odam ush-shuaro — shoirlar Odam Atosi» degan nom bilan sarafoz etdilar. Haqiqatan ham, Rudakiy she'rlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda haqiqiy ishq bilan majoziy ishq, inson-do'stlik, vatanparvarlik, ilm o'rganish, kasb-hunar egallash, insof va diyonat, adolat va adolatli shoh, ona tabiatga mehr, atrof-muhitni avaylab-asras h g'oyalari betakror nafis obrazlilikda tasvirlanganining guvohi bo'lamiz. Shoir g'azzallarida oshiq ruhiy kechinmalarini qay yo'sinda bokira tarzda ifodalashga erishsa, ma'shuqa chiroyini undan-da go'zal vositalarda

**tasvir laydi.** Masalan, bir bayt-da yorning sadafdek tishlarini yomg'irdan so'ng nihol shoxchasiда tizi lib qolgan shaffof donachalar — qatraboronga o'xshatsa, boshqa bir baytda «yu'zingdan pardangni ko'targaningda quyosh xijolatdan yuzini berkitdi, ya'ni o'zini bulut orqasiga oldi», deydi. Ma'shuqa etaklarini yer yuzidan sudrab o'tgani uchun tuproq poklanib, «suv bo'lmasa tayammum» etib, ibodat qilish joiz bo'lgan ekan. Bunday tasvir mavlono Lutfiyda ham uchraydi. Oshiq ertalab bog' sayriga chiqsa, anhordan gulob hidi anqirdi. Yorab yorim mendan oldin chiqib ariq boshida yuz-qo'llini yuvdimikan, deb o'ya toladi oshiq. Ruhiy holat tabiat chiroyining turfa unsurlari ta'rifni orqali chiziladi:

Bahoroysi yetib kelib, qish oyini etdi yag'mo,

Fazo yuzin qopladi chang, qonga to'ldi dashtu sahro.

Ilk bahorning ko'z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang,  
Hamal oyin xush hididan bo'ldi tuproq anbaroso.

Layli yuzi kabi lola keng sahroda kulib turar,  
Majnu nko'zi kabi bulut qon yoshini qilur daryo.

Oqar suvda nkelmoqdadir har soatda gulob hidi,

Mening yorim ariq ichra gul yuzini yuv mish go'yo.

Rudakiy asarlarida ilm egallashga da'vat, insonni sharaflash, bu dunyoda «bani odamga yaxshilik qilib» yashashga undov, Olloh tomonidan berilgan qisqa umrni ilm o'rganib, uni ijtimoiy-foydali mehnatga sarflashga da'vat yetakchi motivlardan hisoblanaadi :

Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki,

Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.

Jahon dengiz erur yaxshi ishingdan,

Kerna yasab o'tgil nargi tomonaga

Shoir asarlarida shodu xurramlik, Navro'zi olam tarovatiyu, sharobning hayotbaxsh fazilati, yorning nozu karashmasiyu, do'stlar diydorining farahbaxsh qudrati, xayr-ehson, insof va muruvvat, rahm-shafqatlari bo'lish ham masnaviyatlariyu qasidalarda, qit'ayu ruboylarida zo'r musiqiylikda tarannum etiladi.

Rudakiy qasida janrining eng mumtoz namunalarini yaratgan. «Buxoro», «Mayning onasi», «Qarilikdan shikoyat» singari asarlarida shoir, bir tomonidan, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, umrning qadriga yetish xususida jo' shqin fikrlar yuritsa; ikkinchi tomonidan, go'zal tabiatni sevish, hamisha shodu

xurram yashashga unday **di**. **S**emoniy zodagonlar madhiga bag'ishlangan qasida larda esa, shoir ko'proq ularning davlat ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini, xalq farovonligini oshirishdagi sa'y-harakatlarini ta'riflashga intilgan. Rudakiy asarlari o'ta sodda, ravon bir usulda — sahli **mumtane'** — osonu nomumkin usulida yozilgan. O'tmishda juda ko'p forsiygo'y shoirlar uning asarlariga o'xshatma, tazminlar yozgan. Ammo biron ijodkor Rudakiy darajasiga yetolmagan. Jumladan, «Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame...» deb boshlanadigan **Buxoro** qasidasiga fors-tojik adabiyoti klassiklaridan 120 shoir nazira yozgan. Ammo biron tasi asl matn darajasiga yetolmagan: vazn, ohangini topganlar mavzuda qoqilgan, mavzuni nishonga to'g'ri ola olganlar esa, musiqiylik, qosiyani uddalay olmaganlar...

Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan buyuk so'z san'atkori Shoh Rudakiy dahosini munosib qadr-lagan, uning she'riy qudratiga yuksak baho berishgan. Jumladan, zabardast literik shoir, birinchi shohnomanavis Daqiqiy uni shunday ta'riflaydi:

**G'azal rudakiy vor bo'lgay go'zal,**  
**Rudakiycha g'azal yoza olmadim.**  
**Juda nozik xayol bilan urinib,**  
**Bu parda ichiga yo'l topolmadim.**

Abu Abdullohu Rudakiy o'zi kuylagan vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, xalqlar do'stligi g'oyalari bilan barcha zamonlarda bashariyatga xizmat qilaveradi. Shoir ijodi qadim ul-ayyomdan beri o'zbek xalqiga juda yaqin. Bobur «Muxtaras» risolasida shoir asarlari dan namunalar keltirgan, Po'latxon Domullo Qayumiy o'z tazkirasida shoir ijodini yoritgan. Ustozlarimiz S.Ayniy, N.Mallaev, Sh.Shamuhammad hamda M.Muinzoda Rudakiy hayoti va ijodini tahvil qilib, asarlарини tarjima etib, targ'ib qilishda zahmat chekkanlar.

### RUDAKIY HIKMATLARI

Jaho nning shodligi to'plansa butun,  
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

\*\*\*

Kimda-kim hayotdan olmasa ta'lim,  
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

\*\*\*

Ilmdan yaxshiroq xazina yo'qdir,  
Qo'-lingdan kelgancha terib ol uni.

\*\*\*

Odamlar qalbining charog'i bilim,

Balodari saqlanish yarog'i bilim.

\*\*\*

Badbaxt erur kimki, bermas ham yemas,  
Yeb ham eh son qilgan xushbaxt umrbod.

### Topshiriq:

- 1) Matndan qo'shma fe'llarni ajratib yozing.
- 2) Uchun, kabi sof ko'makchilarini ishtirot etgan gaplarni ko'chirib yozing.
- 3) Rudakiy hayoti haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
- 4) Shoirijo'dida qanday mavzular tarannum etilgan?

### IBN SINO ABU ALI

(980-1037)

Jahon farni, madaniyatining eng yirik namoyandalaridan biri, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston xalqlari madaniyatini dunyo miqyosida ko'tarishga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim. Uning ismi G'arbda "Avitsenna" tarzida talaffuz qilingan. Xalqimizning ma'naviy mustaqilligini ta'minlashda katta xi zmat ko'rsatgan. O'zining ulkan ilmiy muvaffaqiyatlari orqali u Sharq va G'arbda keng tanilib. "Shayx ur-rais", "Olimlar boshligi", "Tabiblar podshohi" degan nomlarga sazovor bo'lgan. YUNESKO qaroriga binoan uning 1000 yillik yubileyi 1980 yilda butun dunyo miqyosida nis honlandi.

Ibn Sino yoshligidanoq o'zdavri fanlarini, diniy manbalarini, bir necha tillamni chuqur egallab oladi, 16-17 yoshidayoq mashhur tabib bo'lib taniladi. Bir necha vaqt u Xorazmda Xorazmshoh Ma'mun tashkil qilgan, o'sha davrdagi eng yirik fan markazlaridan biri, o'z zamonasining akademiyasida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik esa u Xuroson. Eronning turli shaharlarida bo'ladi va 1037 yilda Isfahon shahrida vafot etadi.

Ibn Sino Sharq, eng avvalo, Abu Nasr Forobi y va G'arb, xususan, Qadimgi Yunoniston falsafiy an'analarini chuqur o'zlashtirib, rivojlantirdi, o'z ijtimoiy ta'limotida u buyuk insonparvar, vatanparvar va adolatparvar mutafakkir sifatida tanildi. Shu bilan birga Ibn Sino boshqa bir necha, xususan, tabiiy fanlar (astronomiya, matematika, geologiya, kimyo, mineralogiya va boshqalar) sohasida ish olib borgan va yirik natijalarga erishgan. Lekin Ibn Sinoning tabobati, xususan, anatomiya, psixologiya, farmakologiya, diagnostika, gigiyena fanlarini rivojlantirishdag'i xizmatlari ulkan bo'lib, u insoniyatning eng mashhur tabiblari qatoridan joy o'llgan. Uning nazariy va tajribaviy tabobat sohasiga oid ishlarining

ahamiyati hozirgi zamonda yana ham oshib bormoqda. Uning bu sohaga oid asarlar XIII-XVII asrlarda barcha Yevropa hakimlari va tabiblari uchun qo'llanma hamda ma'lumotnoma bo'lib xizmat qildi.

Ibn Sino jahon fanı, xususan, falsafa, tabobat, logika (mantiq) va boshqa fanlarda butun bir davr yaratdi, uning kitoblari esa bir necha asrlar davomida Sharq va G'arb olimlari uchun eng muhim manbalar qatorida qo'llanilib kelindi.

Ibn Sino qoldirgan ulkan ilmiy merosini 450 dan oshiq asarlar tashkil etadi: shulardan bizgacha 160 ga yaqini yetib kelgan. Eng yiriklari qatorida ko'p jiddli "Kitob al-Qonun fit-tibb" (Tib qonunlari), "Kitob ush-shifo" (Shifo kitobi), "Kitob ul-insof" (Insof kitobi), "Donishnoma" va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Uning Aristotel asarlari bo'yicha, Abu Rayhon Beruniy va Bahmanyor bilan olib borgan yozishmalari katta ahamiyatga ega. Ibn Sino asarlarini Yevropada XIII asrdan boshlab lotin tiliga, keyinchalik esa ko'p sharq va g'arb tillariga tarjima etildi. Uning ta'limoti, ilmiy ishlari bo'yicha butun dunyo miqyosida tadqiqotlar olib borilayapti. O'zbekiston olimlari Ibn Sino merosini o'rganishga, asarlarini o'zbek va rus tillariga tarjima etishga va nashr qilishga katta hissa qo'shmaqdalar.

Ibn Sino o'z ilmiy va ijtimoiy faoliyatini bilan Sharq, xususan, Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston xalqlarining ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotiga, ma'rifiy va madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning mustaqillik masfurasi tizimida faxli o'rin egallab turganligi tabiiyidir.

### Topshiriq:

1. Matnda uchrangan qiyin va notarish so'zlar lug'atini tuzing.
2. Matnda uchrangan kelishik qo'shimchalar qo'shilgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va tahlil qiling.
3. Nima uchun Ibn Sino qomuniy olim deb ataladi?
4. Ibn Sinoning eng mashhur asari haqida nirmalarni bilasiz?

## YUSUF XOS HOJIB BOLSOG'UNIY

Yusuf Xos Hojib 11 asrda yashab, turkiy tilda ijod etgan buyuk sho'ir hisoblanadi. Yusuf —asl ismi Aynan "Qutadg'u bilig" dostoni zamon hukumdori tahriniga sazovor bo'lgani uchun muallifga "xos hojib", ya'ni eshik og'asi rasmiy lavozimi berilgan. Sho'ir urni taxallusiga qo'shilib qolgan. Yusuf qadimiy Bolosog'un shahrida tug'ilgan. Bolsog' uniy deyilishi shundan.

Bizga Yusuf Xos Hojibning birligina "Qutadg'u bilig" asari yetib kelgan. Sho'ir hayotiga oid ma'lumotlarni ham faqat shu dostondagina topamiz. Asar hijriy

462.ya'ni milodiy 1069 -1070-yili Koshg'arda yozib tugallangan.Hajmi 6 ming 409 baytdan iborat.Muallifning o'zi uni bir yarim yil mobaynida bitganini aytadi. Yusuf Xos Hojib bu kitobni elliq yoshlarida yaratgan. Doston yaratilgan 11 asr Quraxoniylar davlatining eng gullagan davri edi.Yuqori Chindan Kasbiy dengizga qadar bo'lgan juda katta hudud shu sultanat hukmi ostida bo'lgan.Koshg'ar shu ulug' sultanatning poytaxti edi. Bolosog'un mamlakatning muhim markazlardan biri hisoblanardi. Yusuf Xos Hojib dostonini tugallagach.uni zamon hukumdori Tavg'achxon Ulig' Bug'ra Quraxonga taqdim etadi.Asar garchi 11 asrda yaratilgan bo'sada.u haqida o'zbek adabiyotining keyingi asirlardagi namunalarida hech qanday ma'lumot uchramaydi.Hatto,turkiy tildagi har bir asarga alohida mehr e'tibor bilan munosabatda bo'lgan buyuk Alisher Novoiy, shuningdek Zahiriddin Muhammad Bobur ham "Qutadg'u bilig" yoki uning muallifini mutloq tilga olmagan.Shundan kelib chiqib,bu bobokalon shoirlarimiz "Qutadg'u bilig" haqida bilgan -bilmagani borasida bir narsa deyish qiyin.

Bunga sabab -asaming bor-yo'g'i uchun nusxasi saqlanib qolgan."Qut"-baxt,saodat,"bilig" esa -bilim degani.Shunga ko'ra,asaming nomini "Baxtga eltuvchi bilim" yoki "Saodatga yo'llovchi bilim" deb tarjima qilish mumkin.Abdurauf Fitrat uni "Baxtliklanish bilimi "deb o'girgan. Bizgach yetib kelgan ilk turkiy doston - "Qutadg'u bilig".

Dostonda to'rt asosiy qahramon bor.Ularning har biriga ramzan muayyan bir ezgu tushunchacha-ma'naviy qadriyatning timsoli yanglig' qaralib,alohida ma'noma'mazmun yuklatilgan .Kuntug'di (chiqqan Quyosh) -elig,yani hukumador.U adolat ramzi bo'lib kelgan.Oyo'ldi (to'lgan Oy)-vazir.U baxt va davlat ramzi hisoblanadi.O'gdulmish ( aqlga to'lgan) -vazirning o'g'li.U aqil va zakovat ramzi yanglig' tasvirlangan.O'zg'urmush (uyg'ongan) - vazirning qarindoshi.U asarda qanoat,ofiyat,ya'ni sog'lomlik ramzi sifatidaqlamga olingan.

Bu to't nang uza so'zladim men so'zug

O'qisa ochilg'ay yetig qil ko'zug.

(So'zni shu to'rt narsa ustida yuritdirin,

Uni o'qib,tushunilsa, ro'shnolik bo'iadi, ko'zingni och)

Doston -sof badiiy asar. "Qutadg'u bilig" pandona (didaktik) ruxdagi, ta'limgartarbiya,odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan tipik badiiy asar.Shaxs tarbiyasi,uning janniyatdagi o'mi, komilllik shartlari ummi bekorga o'tkazmaslik,turli ijtimoiy tabaqaga mansub kasb-kor egalarining axloqiy mezonlari, davlatchilik qatiyatlari asosiy yo'nali shga ay langan. Asar, nasriy hamda she'riy muqaddimadan tashqari, 71 maxsus bobdan tashkil topgan.Boblarda ko'proq savol -jabob,munozara olib boriladi.

Ko'tarilgan masalalarining barida aynan qanday bilim kishini baxt-saodatga sari yetaklashi oydinlashadi. Bu esa asar nomi naqadar oqilonan tanlanganini ko'rsatadi.

### Topshiriq:

1. Matndan sifat va ravish so'z furkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.
2. Matnga savol tuzing.
3. "Qutadg'u bilig"ning yozilishi va saqlanish tarixi haqida nima deya olasiz?
4. Asarning nomi qanday ma'no anglatadi?

## YUSUF XOS HOJIB

(1019 — vafot etgan vaqtin nomi alum)

Turkiy didaktik dostonchilikning asoschisi Yusuf Xos Hojib 1019-yilda tug'ilgan deb taxmin qilinadi, hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Shoir qadimiy Quz O'rdu shahrida (uni Bolasog'un ham deyishadi) tugilib, Koshg'arda ulg'aygan, degan fikr bor. Ayrim mutaxassislar shunga asoslanib, uni Yusuf Bolasog'uniy ham deyidilar. U haqda birdan-bir ma'lumot benvchi manba muallifning bizgacha yetib kelgan yagona asari „Qutadg'u-bilig"dir. Kitob muqaddimasida adib o'zi tug'ilgan yurtni eslatib o'tadi: Munuqi turug'laq Quz O'rdu eli, Tub asli, nasabdin yurumish tili. (Buning tug'ilgan eli Quz O'rdu dir, Tub asli, nasl-nasabdan tili soz ochdi.) Avvalo, kitobning nomi haqida. „Qut" eski turkiy tilida „baxt", „baraka" ma'nolarini bildiradi, hozirgacha bu so'z xalq tilida keng ishlatalib keladi. Masalan: „qut-baraka", „qutlug' bo'lsin", „qutlaymiz" kabi. „Adig'u" — etuvchi degani. Uningasli, edg'u "dir. „Bilik" bilimdir. Demak, kitobning nomi „Baxtga eltvchi bilim" yoki „Baxtiyor etuvchi bilim" "dir.

Yusuf Xos Hojib „Qutadg'u bilig"ni bir yarim yilda yozganligini ta'kidlaydi: Tugal o'n sakkiz ayda aydim bu so'z, O'durdum, adirdim so'z evclim tera. (Bu so'zni tugal o'n sakkiz oyda aytdim, Tanladim, farqladim, terib so'z yig'dim.) O'n sakkiz oy, tabiiyki, asami bevosita yozish uchun sarflangan muddat. Adibning unga katta tayyorgarlik ko'rgani va ko'p kuch sarflagani aniq.

Asarning Qashqarda tuzatilgani qayd etilgan:

Barusi bitilmish, eturmish nizam,  
Bu Qashg'ar elinda qo'shulmish tamam.  
(Borini yozdim, tartib berdim,  
Bu kitob Qashqar elida tamorniga yetdi.)

„Qutadg'u bilig"da dostonning yozi lish sanasi ham qayd etilgan:

Yil altimish eki to'rt yuz bila,  
Bu so'z so'zl adm men tutib jan sura.

(To'rt yuz oltmis ikkinchi yil edi,  
Men jan koyitib bu so'zni so'zladim.)

Asar hijriy 462- yilda yozib tugatilgan bolsa, milodiy hisob bilan 1069—1070-yillarga to'g'i keladi. Shu paytlarda u o'zi xabar qilishicha, ellik yoshlarda bo'lgan:  
Tegurd i menga alg'i ellik yashim,  
Qug'u qildi quzg'un tusi teshi bashim.  
(Ellik yoshim menga qo'legizdi.  
(Qora) quzg'untusidek boshim(ni) oqqush(dek) qildi.)

Adib kitobni yozib tugatgach. Bug'roxon nomli hukmdorga in'om etadi. Xon unga „Xos Hojib” (eshik og'asi) unvonini beradi. Shu tariqa, muallif „Yusuf Xos Hojib” nomi bilan shuhrat topadi. „Qutadg'u bilig” dostoni muallifning yuksak adabiy-badiiy salohiyatidan, ijoddha katta tajribaga ega ekanligidan darak beradi. Shunga qaraganda, uning boshqa asarlari ham bo'lishi kerak. Lekin hozircha, „Qutadg'u bilig” Yusuf Xos Hojibning qo'llimizdag'i yagona asari bo'lib turibdi. Qadim qo'lyozma kitoblarining topilishi va o'rganilishining o'zi bir tarix. „Qutadg'u biiig”ning ham o'ziga xos tarixi bor.

Qizig'i shundaki, bu kitob garchi 1069 —1070- yillarda yozilgan bo'lsa-da, XIX asming birinchi choragidagina ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'ladi.. Asar haqida ilk ma'lumot bergen kishi fransuz sharqshunosi J. Amedi edi. Kitobning 1439-yilda Hirotda uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bir nusxasi bir qator sarguzashtlar bilan Turkiyaning Istanbul shahriga kelib qoladi va yevropalik abjir kitob jalloblarining qo'liga o'tib, Vena saroy kutubxonasidan joy oladi. „Qutadg'u bilig”ning „Vena nusxasi”ning tarixi shu. Asaming bundan tashqari yana ikki qo'lyozma nusxasi mavjud. Bularning tarixiga to'xtalib o'timiasdan, nomlarini aytish bilan chhecklanamiz: „Qohira nusxasi” (1896- yilda Qohirada topilgan), „Namangan nusxasi” (1913- yilda Namanganda topilgan). Keyingi har ikki nusxa arab yozuvida ko'chirilgan.

Asar topilishi bilan uni organish boshlanib ketdi. Har uch nusxa ma'lum bo'lгach, ularni qiyosiy o'rganish yo'lg'a qo'yildi. Bunda G'arb va Sharqning tanqli mutaxassislar qatorida S. Mutallibov, Q. Karimov, B. To'xliyev kabi o'zbek olimlari ham o'z hissalarini qo'shdilar.

Doston 73 bobdan iborat bo'lib, 6500 baytni tashkil etadi. Asar u haqda ma'lumot beruvchi qisqa muqaddima bilan boshlanadi. So'ng Allohga „hamd” (maqtov) va payg'ambarga „na't” qismalari keladi. Hukmdor Bug'raxon tavsifiga maxsus bob bag'ishlangan. Undan keyin olarning qurilishi, bilim tarifi, til odobi haqida ham alohida-alohida boblar bor. So'ng muallifning o'z-o'ziga murojaati, ezzulik amallari, uquv-idrok foydalari, kitobga nom berilishi haqida so'z yuritilib,

gap elig (podsho) Kuntug'diga kelib t̄aqaladi. Uning odil hukmdor sifatidagi ta'rif-tavsi fidan so'ng, 12-bobdan e'tiboran as ar voqeasi boshlanadi.

Elig Kuntug'diningadolati haqidagi gaplar butun dunyoga taraladi. Har tomonidan uning huzuriga odamlar kela boshlaydilar. Shular qatorida ko'p mashaqqatlar chekib Oyto'ldi nomli oqil va mard kishi ham keladi. Kuntug'di uni har tomonlama sinab ko'rib,adolati va sadqatiga ishonch hosil qilgach, o'ziga vazir qilib oladi. Yurda nizom va qida ustuvor bo'lib, shu darajadaadolat qaror topadiki, xazina oltinga to'lib, qo'zi bo'ri bilan yonma-yon omonlikda yashay boshlaydi. Lekin kunlardan bir kun Oyto'ldi xastalanib vafot etadi. O'limi oldidan o'g'li O'gdulmishga Kuntug'di xizmatiga borishini vasiyat qiladi. O'g'li ulg'ayib, karmogha yetgach, podsho huzuriga borib, uning e'tibor va hummatiga sazovor bo'ladi. Oyto'ldidan ham oqil va tadbirli chiqib, el-yurtni yashnatib yuboradi. Tabiiyki, el-yurt kengayib, ishlar ko'payib boraveradi.

O'gdulmishga munosib yordamchi izlash ehtiyoji paydo bo'ladi. O'gdulmish bunga eng munosib nomzod O'zg'urmish ekanligini aytadi. O'zg'urmishning ma'nosi „hushyor qiluvchi”, „sergaklantiruvchi” demakdir. Uning zohid qiyofasida ko'rinishida shu ma'noga uyg'unlik bor. U behuda ishlar bilan band bo'lish, har xil mayda-chuyda orzu-havaslarga ovuniq qolishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg'ularni sergaklantiradi.

Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo'lmaydigan ishlar ham borligidan, inson ko'nglida nozik tuyg'ular mayjilanib turishidan xabar beradi, shu tuyg'ularga beparvo bo'lmaslikka undaydi, hushyorlikka chaqiradi. O'zg'urmish—qat'iy fikri inson. U Eligning shiiharg'a taklifini rad etadi. Garchi bu taklif uch marta takrorlansa-da, u fikrini o'zzgartirmaydi.-Faqat O'gdulmishning tushuntirishlaridan so'ng, ziyorat maqsadidagina Elig huzuriga boradi. Shunda ham u saroyda biror martabani qabul qilinmaydi, faqat ularga o'gitlar beradi. Shu bilan kifoyalaniq, yana o'z manziliga - tog' etagidagi g'orga qaytadi va shu yerda vafot etadi. O'zg'urmish nazarida:

Tilagan qulini siylasa xudo, Ung'a dunyo emas, yo'l berar a'lo.

Shuning-chu ni yaxshimas bu du ryo quti -Xudodan yiratar, udir din yuti.

Ko'ringanidek, asar voqeasi kishini jalb qiladigan darajada qiziqarli emas. Asosiy gap dostonidagi to'rt personaj o'rtasida kechgan suhbatda. Bu suhbatlar haqida tasavvur hosil qilmoq uchun Oyto'ldi va Kuntug'di o'rtasida kechgan ilk uchrashuvlardan birini keltiraylik.

Kuntug'di bir kuni yolg'iz qolib, yoniga Oyto'ldini chaqirdi. Xonning qovogi soliq, qo'lida pichoq, chap tomonida o'rog'un degan dori, o'ng tarafida bir kosa sharbat, o'zi uch oy oqli kumush kursida o'tiribdi. Xonaga kirgan Oyto'ldi podshoning

avzoyini ko'rib qo'rqib ketadi. Kuntug'di Oyo'ldining ishlaridan qanoatlanmayotganidan darg'azab ekanini aytadi. Uni o'z huzuriga cha-qirishidan maqsadi Odilona siyosat qarorgohini ko'rsatib qo'yish.

Podshoh o'tirgan uch oyoqli kursi — rostlik, adolat timsoli. Uch oyoqli narsagina joyidan siljimaydi, qimirlamaydi. Agar bittasi siljsa, qolganlari ham turmaydi, yiqiladi. Xon qo'lidagi pichoq muammoni hal qilish ramzidir. Sharbat mazlumlar, dori esa zolim riasibasidir.

Yusuf Xos Hojib ilming jamiyatdagi o'miga yuksak baho beradi. Uni insonlar yo'lini yorituvchi mash'alga qiyoslaydi. Olimlarni haqiqat ustunlari deb biladi. Shoir farzand tarbiyasiga alohida diqqat qaratadi. Masalan, Oyo'ldi o'limi oldidan o'g'li O'gdulmishga vasiyat qilar ekan. bolaga ilm-u hunar o'rgatish va xushaxloq qilib tarbiyalash otaning burchi ekanligini, o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, buning uchun ota javobgar ekanligini alohida ta'kidlaydi. Umuman, bu masalalarga shu qadar keng o'rin berilganki, ular oddiy salomlashishning ma'no-mazmunidan mehmon kutishgacha, hatto uylanishgacha bo'lgan fikr-mulohazalami qamrab oladi.

Asar Yusuf Xos Hojibning o'z zamonasini ilm-fanidan xabardor, katta bilim egasi bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan: borliq haqida fikr yuritar ekan:

Yaratti ko'r, avran tuchi evrulur,  
Aning birla tezginch yema tezginur.  
(Yaratdi falak ni doim aylanar,  
U birla bu charx ham tinmay tebranar) —

deb yozadi. Qizig'i shundaki, muallifning osmon yoritgichlari, jumladan 12 burj, 7 sayyora haqidagi kuzatishlari ilmiy jihatdan bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan ernes.

„Qutadg'u bil ig"ni vatan, el-yurt madhiyasi deb atash ham mumkin. Zero, asar to'laligicha turkiy xalqlarning davlat tuzilishi, el-yurt farovonligini ta'minlashga qaratilgan omillarning badiiy tahlilidan iboratdir. Ana shu fikrlarni bildirish jarayonida Yusuf Xos Hojib o'z vatanining chin oshig'i, o'z elining sadoqatlari va fidokor farzandi sifatida namoyon bo'ladi. U asarda goh olam sirlaridan yaxshi xabardor mutafakkir, goh qadim moziy sarhadlariga nazari yetgan tarixchi, goh zamonasining turli sohalariga oid fanlardan puxta xabardor bo'lgan zukko olim va, tabiiyki, inson qobiliyatining turli-tuman manzaralarini kashf etuvchi shoir sifatida ko'rindi.

XI asrda xalq, ei „budun“, „bo'dun“ atamalari bilan yuritilgan. Mamlakatning daxsizligi, uning ravnaqi faqat budun bilanganadir. Shuning uchun ham:

Kimung davlati bash ko'tursa o'rur,  
Qamug' ezu qilg'u budunkato'ru.

(Kimning davlati ziyo'da bo'lsa,  
U xalqqamutlaq ezgu siyosat yuritishi kerak.)  
Xalqning qanday bo'lishi mamlakat boshlig'i ga to'la bog'liqdir:  
Begi ezgu bo'lsa budun barcha tuz, Bo'lur qilqi ezgu, yo'riqlari uz.  
(Agar begi ezgu bo'lsa, bo'lar xalq to'g'ri, Qiqliqlari ezgu, yo'riqlari soz.)

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qadimgi turklarda vatan tushunchasi shu vatanga mansub bo'lgan xalq bilan birgalikda tasavvur etilgan. Ushbu tushuncha „el" so'zi bilan ifodalandi. „El" so'zi mamlakat, o'lka, xalq, saltanat, yurt tushunchalarini ifodalaydi. Uning „kum" so'zi bilan birga kelishi „el-u xalq", „yurt", „vatan" tushunchalariga teng keladi:

O'ziyetti, tuzdi, ko'r, el-kunishi, Taqima tilar erdi o'zrum kishi.  
(El-u xalq ishini o'zi bildi va tuzdi, U yama sara kishilarni tilardi.)

Yusuf Xos Hojib mamlakat mustaqilligini, vatan ozodligini el-yurt, xalqozodliqidantashqaridako'rmaydi:

Ekinangtururelkabag'ibeki. Biri — saqliqtil, biri — to'ruelko'ki.  
(Ikki narsa el uchun mustahkam bog'(ich)dir,  
Biri — hushyorlik, biri — adolat, bular elning asosidir.)

Yusuf Xos Hojib nazarida Vatanga xizmat bu, avvalo, xalqqa, el-uyurtga xizmat qilishdir. Faqat shu yo'l bilangina Vatanning ozodligini, uning iqtisodiy, harbiy va siyosiy qidratini ta'minlash mumkin. Shu mafqadda adib XI asrdagi juda ko'plab ijtimoiy gurah va tabaqalarga tavsif beradi, ularning jamiyat va yurt oldidagi mas'uliyat va burchlariga alohida to'xtab o'tadi. Yusuf Xos Hojib nazarida har bir shaxs jamiyatning og'irini yengillatishga urin mog'i kerak. Buning uchun esa har bir kishi o'z ishi bilan shug'ullanmog'i, halol, pokiza yashamog'i, o'zining tor shaxsiy manfaatlari doirasida binqinib qolmasdan el-yurt manfaatlарини ustun qo'ya o'ladigan darajaga ko'tarilmog'i shart. Buning yo'li o'qish, o'rganishdir:

Yula-uluj ush, ko'r, qarag'ukako'z,  
O'lug tang'a janul, ag'in tilqa so'z.  
(Uquv-idrok bir mash'aldir, ko'rgin, nobinoga ko'z.  
O'lik tanlarga jon va lol tillarga so'z.)

Uquv-idrok kishi ko'nglini boyitadi. Ko'ngli boy kishi esa himmat-muruwatli, sofdil, odil bo'ladi. Aksincha, biliimsiz, uquv-idroksiz kishilarni tiriklar qatoriga

qo'shish qiyin. Shuning uchun ham bilimga intilish, o'zini bilim bilan poklashga urinish chin insoniy fazilatdir.

Shoirning siyosiy qarashlari, xususan, bek va raiyat munosabatlari borasidagi fikrlari kishini hayratga soladi. Uningcha, bek o'zi boshqaradigan mamlakatning timsolidir. Shu sababli, u jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham yetuk inson bo'lmos'i kerak. Adibning o'yiga ko'ra, hukmdor o'rta bo'yli, ko'rkam, xushmuomala va albatta, aqli bo'lishi lozim. Muallif, ayniqsa, bekning chuqur bilimga ega bo'lishini shart qilib qo'yadi. Bilimni ideallashtiradi, hatto „bek" so'zining o'zidan ham „bilim" ma'nosini qidiradi.

Chunonchi:

Bek oti bilig bila bag'lig' turur,  
Bilik lomi ketsa bek oti qolur.

Arab yozuvida „bilig" so'zidan o'tdagisi „l"(„lom") olib qoyilsa, „beg" bo'lib qoladi. Shoir bekning bilimli bo'lishi lozimligini mana shu tarzda ifodalaydi. Shoir bular bilan ham cheklanmaydi. Uningcha, bek bo'lish uchun bular ham kifoya emas, yuqorida ko'rsatilgan ko'plab fazilatlarga ega bo'lishidan l;islic;iri, zoti ham aslzoda bo'lishi kerak. Bu ham kifoya qilmaydi. Il bek bo'lib tug'ilmos'i lozim. Adib insonlar ustidan hukm chiqaradigan kishining shu qadar noyob, salkam ilohiy bo'lmos'ini orzu qilgan edi.

Yusuf Xos Hojib bek va xalq munosabatlari haqida fikr vuritganda, o'z zamonasidan juda ilgarilab ketadi, ij'timoiy sharhioma masalasini o'rtaga qo'yadi. Jumladan, raiyat—xalq hukmdor oldiga uch shartni qo'yishga haqlidir: pulning qadrini saqlash, adolatli siyosat yuritish, yo'llarni qaroqchilardan saqlash:

Biris — elingda arig' tut kumush. Iyarin ko'zazg'il, ye bilgi o'qush.

(Biri — mamlakatda oltinning sofligini saqlash, nazorat qilib turishdir, ey dono kishi.)

Taqi bir — buzu nqa to'ru ber ko'nii, Ko'tur bir ekidin kuchin ko'r, ani.

(Biri — xalqqa odil siyosat yurit, Jabr-zulmni o'tdadan ko'tar, ezgu yo'l tut.)

Uchinchi — emi na tut, qamug' yo'llarig', Qarag'chig', sabarchig' aritg'il arig'.

(Uchinchi — emi na tut jami yo'llarni, Qaroqchi va yo'lto'sarning qo'yma birini.)

Ayni paytda, hukmdorning ham xalq oldiga qo'yadigan talablari bo'ladi.

Uhamxalqdan uch narsanitalab qilishgahaqlisi: birinchidan, larmonlar, qonunlar aziz tilishi waso'zsiz bajarilishi lozim:

Biri — yarlig'ingni ag'ir tutalar. Neku ersa terkin, ani qilsalar.

(Biri — yorlig'ingni aziz tutalar, Nima bo'lsa, darhol uni qilsalar.)

Ikkinchidan soliqlar vaqtida **to'lab turilishi kerak**: lik inch — tizmasa lar xazina haqi, (V.inda teg'usa, ey elchi aqi.

(Ikkinci — xazina haqintiymasa, Ke/j kclgach, darhol uni to'lasa.)

Uchinchidan xalq hukmdomi ng do'stini do'st, dushmanini dushman **bilishi kerak**.

Uchunchi — yag'iqa y ag'i bo'l salar, Sevaring kim ersa, ani sevsalar.

(Uchinchi — yovingning yovi bo'l salar, Sevaring kim ersa, uni sevsalar.)

Ijtimoiy shartnoma jamiyat osoyishtaligini, el-yurt ravnaqini ta'minlashdagi buyuk omil edi. Yevropada bu masa lalar XVIII asrda fransuz adibi Jan Jak Russo asarlarida o'rta ga qo'yilgan edi. Shu jihatdan, Yusuf Xos Hojibning jamiyat borasidagi bu fikrlari o'sha davr uchun o'ziga xos inqilob edi. Sho'ir yashagan zammonni hech bir jihatdan osoyishta deyish mumkin emas edi. Quyidagi ishoralarga etibor qiling, muallif nimalarga diqqatni qaratadi?

Kichigdaadab yo'q, ulug'da — bil ig, O'tunlar o'k ush bo'ldi, yitti silig.

(Kichikda odob yo'q, kattada — bilim, Pastkashlar ko'paydi, c/gu yo'qoldi.)

Kishi barcha yarmoq quli bo'ldilar... (Barcha odamlar pul quliga aylandilar.)

Musulmon qarishti, ichin eteshur.

(Musulmonlar urushib, bir-birining etini g'ajimoqda.)

Otaлиq qilur, ko'rataqa o'g'il, O'g'ul bekbo'lib, ko'r, ata bo'ldi qul.

(Otaлиq qilur, ko'r, otaga o'g'il, O'g'il bek bo'lib, ota bo'ldi qul.)

Ajun bo'ldi oxir, to'ru artadi... (Dunyo oxir bo'ldi, tartib buzildi.)

Bularni uzatish, orniga qo'yish uchun ma'rifat kerak edi. Ma'rifatni yoymoq, jamiyat bagriga singdirmoq uchun sharoit kerak edi. Sharoitning birinchi belgisi osoyishtalik, undan keyin esa, el-yurt ravnaqi, obodlik, farovonlik edi. JBek bilan raiyat (xalq) o'rta sidagi shartnoma osoyishtalik va el-yurt ravnaqini ta'min etmog'i lozim edi.

„Qutadg'u bilig“ — badiiy asar. Uning badiyligi asarning sh'riy yo'lda, doston shaklida yozilganligidagina emas. Asar katta badiiy mahorat bilan yozilgani, unda teran fikr va g'oyalilar yuksak san'atkorlik bilan ifoda etilgani uchun badiydir. Sho'irning doston muqaddimasida: „Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga. O'qurda unutma, duo qil menga“ deb yozgani bejiz emas. U chindan ham buyuk ajdodimizning inson qanday bo'lmos'i, qanday yashamog'i kerakligi haqidagi, turkona ideal turmush to'g'risidagi turkey. Olam tutdi Tavg'ach ulug' Bug'roxon, Ato bo'lsin unga bu ikki jahon.

Yusuf Xos Hoji bек va xalq munosabatlari haqida fikr yuritganda, o'z zamonasidan juda ilgarilab ketadi, ijtimoiy shartnoma masalasini o'rta ga qo'yadi. Jumladan, raiyat—xalq hukmdor oldiga uch shartni qo'yishga haqlidir: pulning qadrini saqlash, adolatlari siyosat yuritish, yo'llarni qaroqchilardan saqlash:

Birisi — elingda arig' tut kumush, lyarin ko'zazg'il, ye bilgi o'qusish.

(Bir — mamlakatda oltinning sofligini saqlash, nazorat qilib turishdir, ey dono kishi.)

Taqi **bır** — buzzunqa to'ru ber ko'ni, Ko'tur bir ekidin kuchin ko'r, ani.

(Biri — xalqqa odil siyosat yurit, Jabr-zulmni o'rtadan ko'tar, ezgu yo'l tut.)

Uchinchi — ernin tut, qamug' yo'llarig', Qarag'chig', sabarchig' aritg'il arig'.

(Uchin chi — emin tut jami yo'llarni, Qaroqchi va yo'lto'sarning qo'yma birini.)

So'ng uning d'unyo jamoli, sharafga chiroy, baxtga tayanch, qorong'u kechaga oy, baxt va taxtегаси ekanligi tilga olinadi. Bug'roxonni qurshab turgan olam ham uning madhi bilan band. Buning sababi shoir talqinida quy'idagicha:

Olam **Os**oyish-u siyosat odil -Xoqonning nomi ham o'sar muttasil. Jafosiz, vafoli kishi istasang, **Yu**ziga boqa ko'r — vafo birla shan.

Bug'roxon fazilat larga boy kishi. Shuning uchun ham ezgu niyatli kishilar uning atrofidan **Ketmaydi**. Shoirning ham bu yerda bo'lishi tasodifiy emas:

Senga tuhfa garchi talaydir, Elig, Meningdin qabul qil „Qutadg'u bilig". Ular tuhfasi, bil, kelar **ham** borar, „Qutadg'u bilig"-chi, u mangu qolar.

Demak, bahor tasviri shoir uchun qalb tug'yonlarini, tabiat manzaralari tufayli hosil bo'ladiigan tuyg'ular to'lqinini aks etirishga imkon bo'lib qolmasdan, ayni paytda, yana da jiddiyroq voqealarni tasvirga tortish vositasi hamdir. Tabiat tasviri asosida inson rahi yatiagi nozik o'zgarishlar, qalb kechinmalari, hatto yirik ijtimoiy hodisalarga berilacligan baho yashiringandir.

„Qutadg'u bilig"da ilgari surilgan g'oya va fikrlar hanuzgacha o'z ahamiyatini saqlab keladi. Chu niki u insonlik haqida, uning insondek yashamog'i haqida edi. Inson bor ekan, bu fikrlarga ehtiyoj bo'ladi. Doston saltam ming yil oldin turkiy tilda yozilgan, turkoia aytilgan edi. Shu sababli u biz, Yusuf Xos Hojibning vorislai uchun g'oyat qadrlidir.

### Topshiriq:

1. Matndan sifatdosh shaklidagi so'zlarni topib yozing.
2. Matndan bog'lovchilarni topib ko'chiring.
3. "Qutadg'u bilig" asari qachon yozilgan, necha bob va baytdan iborat?
4. "Qutadg'u bilig" asarida qanday mavzular yoritilgan?

## MUHAMMAD QOSHG'ARIY

Mahmud ibri Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariy, qomusiy olim, fiqh va hadis ilmirning bilimdoni. Qoshg'arda tug'ilgan (sanasi noma'lum), qoraxoniyalar davlatining poytaxt Bolasog'unda yashagan. "Devonu lug'otit-turk" asari (1068)

bilan turkshunoslik faniga asos solgan. "Devon"da tilga olingan "javohirun-nahvi fi lug'atit-turki" ("Turkiy t illarning nahv qoidalari") asari bizgacha etib kelmagan. Izohli lug'at tarzida tuzilgan asar muqaddimasida turk tilining grammatisasi (arab tilida) ilmiy asosda yoritilgan. Asarda 9-10 asrlarda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar tarixi, madaniyati, mavqeい va odatlari to'g'risida ma'lumotlar bor. Jurnladan, o'g'uzlar, qarluqlar kabi yirik qabilalar tarixi alohida yoritilgan.

"Devonu lug'otit-turk" adabiy manba sifatida turk qavmlari tomonidan yaratilgan qo'shiq, maqol, matal va hikmatli so'zlarni ham jamlagan, u parchalar qadimgi turkiy adabiyotda lirik va epik janrning rivojidan dalolat beradi. Keltirilgan adabiy parchalar mehnat. yor tavsiyi, qahramonlik, ezzulikka da'vat, vatanparvarlik mavzularida, ayrimlari xalq og'zidan yozib olingan. Devonda ayrim shoirlarning nomlari(mas. Cho'chu) chraydi. O'zbekistonda asar izoh va tarjimalari bilan to'la nashr etilgan, u haqda Fitrat, S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, E.Umarov ishlari e'lon qilingan.

### Topshiriq:

1. Matndan otlarning ko'plik, kichraytirish kabi shakllarda kelganlarini alohida ko'chiting.
2. Matnda uchraydigan notanish so'zlaning izohli lig'atini tuzing.
3. Mahmud Qoshg'ariy qaysi asari bilan tilshunoslik faniga asos slogan?

### NAJMIDDIN KUBRO

(1145-1221)

Markaziy Osiyonning shayxul-mashoyixlardan biri, "kubroviya" tariqatining asoschisi. Asl nomi Ahmad bin Mukhammad al-Xivaqiy al-Xorazmiy bo'lib, kunyasi "Abuljannob" (takvodorlar otasi)dir. Shariat va tariqat ilmining buyuk donishmandi bo'lgani uchun "Kubro" (uluglarning ulugi), "Najmiddin" (dinning yulduzi) degan laqablarni olgan. Iste'dodli muridlar tarbiyalashda mahorat ko'rsatgani sababi uni "Shayxi valitarosh" (valilarni voyaga yetkazuvchi) ham deganlar.

Xiva shahrida tug'ilgan, shu yerda ilm asoslarini egallagach, hamadon, Bag'dod, Dizful, Damashq, Tabriz, Qohira, Nishapur, Tus shaharlariga borib, atoqli hadisshunos olimlarda, faylasuflardan ilmi kalom, hikmatni o'rganadi, tasavvufga qiziqib, tariqat odobiidan ta'lif oladi. 1185 yili uylanib, Xorazmga qaytadi va Xorazmda katta xonakoh qurdirib, muridlar tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Mo'g'ullar Xorazmga bostirib kelganda, muridlari bilan dushmanga qarshi jaingga kiradi va bosqinchilar qo'lida shahid bo'ladi. Qabri Ko'hna Urganchdadir.

Uning maqsadi odamlarni ham jismonan, ham aqliy tafakkuriy, ham ruhiy-ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash bo'lgan.

Najmiddin Kubro tariqat va futuvvatni (javonmardlikni) bir-biriga qo'shdi, axloqiy poklik, mardlik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etdi, Ilohnin sevish bilan yaxshi insonlarni sevishni birga olib qaradi, nafsni qattiq mazammat etib, ya'nini qoralab, ulug' taqvo piri sifatida nom chiqardi. Ifron (bilish nazariysi)da aqliy va vajdiy (hissiy-imtuitiv) bilishni birlashtirdi, tasavvufda "xushyorlik" (sahv) maslagini tanlab, "bexud" - devonalikni inkor etadi. U insonni "kichik olam" deb, uning karmoloti cheksiz ekanini ta'kidlaydi, tasavvufda oriflik rutbasini (martabasini) oldingga surib, rnaqomotning, ya'nini darajalarga ajratishning o'nta bosqichini joriy etgan. Kubro ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini kashf etgan olimdir: xilma-xil ranglar - moddiy olam o'zgarishlari, rangsizlik - Xudo olami belgisi, deydi u. U risolalar va falsa fiy-sufiyona ruboilalar yozgan.

Najmiddin Kubro asoslagan "Kubrovlya" tariqati Osiyo va Afrikadagi musulmon mam'lakatlariga tarqalib, minglab muxlislarga ega bo'lgan.

Najmiddin Kubro ulug' ruhoni shayx, karomatli donishmanid, faylasuf va Vatan uchun jon fido qilgan buyuk inson sifatida bizga aziz va faxr ham ibrat namunasidir.

Najmiddin Kubro ta'lilotiga xulosa yasrar ekan, shuro davri falsafasi uni "mistika, zohidlik va tarki duniyochilikni targ'ib qilib, reaksiyon rol o'ynagan" dedi va hukmron mafkuraga xushromadguylig qilib "hozir uning ta'siri deyarli yo'qolib ketgan" deb yozdi. Najmiddin Kubro va uning hayoti, ijodi va asarlari to'g'risida biz uning Vatanida tadqiqot olib borolmasdik. Uning to'g'risida V. Bartold, Ye. Bertels, I. Petrushevskiy kabi olimlarning asarlaridan o'qib bilardik. O'zbekistonda Najmiddin Kubro nuqtai nazarlari va talimotini tahlil etgan olimlar bor edi (masalan, I.M. Muminov), lekin Hukmron mafkuraning talabi bilan buyuk ajdodimiz haqida so'z aytishimiz mumkin emas edi.

Najmiddin Kubro hayoti va ta'lilotini har tomonlama tahlil qilmoq va uning Markaziy Osiyo ma'naviy hayoti hamda turmush tarzining rivojlanishidagi aharniyatini ko'rsatmoq uchun hozirgi paytda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Tabiiyki, har bir ulug' inson, o'zining favquloddha chuqur fikrlari, xulosalari va tadqiqotlari bilan bir qatorda, ma'lum masalalarda xato yoki kamchiliklarga yo'll qo'yadi. Najmiddin Kubro ham istisno emas edi. Ammo, shu bilan bir qatorda uning ta'liloti inson, hayot va mavjudlikning mohiyati ustida fikr yuritishda falsafa fanida yangi sahifa ochgandi. Uning ta'liloti Markaziy Osiyo va O'rta hamda Yaqin Sharq xalqlarining milliy o'ziga xosligi, turmush tarzi va fikr yuritishdagi xususiyatlari va milliy mentalitetining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni o'rganish va bilish milliy o'zligimizni aniqlashda katta ahamiyatga egadir.

### Topshiriq:

1. Matnda sifat so'z turkumiga oid so'zlarini aniqlang
2. Notanish so'zlamining izohlari lug'atini tuzing.
3. Hajmid Kubro hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. "Kubroviya" tariqati haqidagi qanday ma'lumotga egasiz?

### **YASSAVIY AHMAD**

(taxminan 1 103-1166)

- sufiylik tariqatining Xoja Yusuf Hamadoniy maktabiga mansub targ'ibotchisi, turkiyzabon shoir. U o'z asarlari ni hozirgi davrda ham tushunarli O'zbek (turk) tilida yozgan. Yassaviy asarlarini majmuasi 1878 yili nashr etilgan "Devoni hikmat" nomi bilan ma'lum. 1990 yili "Devoni hikmat"ning Toshkentda nashr etilishi muhim voqeа bo'ldi va u tez orada tarqalib ketdi. Shu boisdan 1992 yilda ikkinchi bor nashr etildi. Xoja Ahmad Yassaviy Yassi (bugungi Turkiston) shahrida tug'ilgan. Uning otasi Shayx Ibrohim ismli eshon bo'lib, o'g'lini yoshligida vafot etgan. Yetim qolgan Yassaviy o'sha zamoning mashhur shayxlaridan biri - Arslonbobdan ta'lrim olgan. Arslonbob vafot etganda keyin, Yassaviy pir izlab, Buxoroga kelgan. Bu yerda Xoja Yusuf Jamadoniy bilan uchrashib, unga murid bulgan. Yusuf Jarnadoniy vafotidan so'ng Buxoroda, uning uchinchisi xalifasi siyatida, shayxlik qilgan. Bir necha yildan so'ng, Buxoro shayxligini Yusuf Jamadoniyning to'rtinchi xalifasi bo'lgan Abdulkoliq G'ijduvoniyga topshirib, o'zi Yassiga jo'nagan. U yerda xonakoh oolib, shayxlik qilgan va ko'plab muridlari ortirgan. Yassaviyning fors adabiyoti vazn va uslubida emas, turk milliy vazniда, xalq aclabiyoti uslubida hikmatlar yozgani aynan shu davrga to'g'ri keladi. Yassaviy oltmis uch yoshdan oshgach, xonakohda yerosti sillaxonasini qazdirib, shunga kirgan va foniy dunyodan aloqasini uzib, shayxlikni davom ettirgan, hijriy 562 yilda vafot etgan.

Xoja Ahmad Yassaviy she'rlarining har parchasiga "hikmat" unvoni berilgan va ular to'planib kitob shakliga keltirilgan.

Ahmad Yassaviyning bu asari xijriy V-VI asrning adabiy yutug'i bo'lmish mashhur "Qutadg'u bilik" (Yusuf Xos Hojib) kitobidan bir asr keyin, "Hibatul haqoyiq" kitobi bilan bir davrda yozilganligi Vatanimiz tarixi uchun katta ahamiyatga ega.

Bahouddin Naqshbandga talluqli deb tan olingen "Dil ba yor, dast ba kor" iborasini ham birinchi bor Ahmad Yassaviy "Niyating xudoda, Qo'lda ishing" shaklida bayon etgan. Demak, Yassaviy tariqati bilan Naqshband ta'limoto mohiyatan bir bo'lib, o'sha mashhur ibora birinchi marta XII asrda turkiy, XIV asrda esa forsiy tilda aytilgan.

Ahmad Yassaviy Qur'on hikmatlari, hadislar mazmunini va tasavvuf g'oyalarini qo'shib kuylagan, insofu adolat, halollik va to'g'rilikni oriflik, oshqlik, xilvat va uzlat bilan bog 'lagan. U birinchi bo'lib, tasavvuf g'oyalarini turkiylar orasiga yoyib, nafs va xudbinlik kabi ko'pgina yomon illatlarni qattiq tanqid qildi.

Qo'shi i Qozo'gistonning Turkiston shahrida mustaqillik yillarda Yassaviy universiteti ochildi va yil sayin o'qish jarayonini takomillashtirib bormoqda.

### Topshiriq:

1. Matndan ravish so'z turkumiga oid so'zлами aniqlang.
2. Notanish so'zлarning izohli lug'ati ni tuzing.
3. Ahmad Yassaviyning hayoti haqida qanday ma'lumotga egasiz?
4. Yassaviy asarlari majmuasi qanday nomlanadi?

## BURHONIDDIN MARGINONIY

**BURHONIDDIN MARG'INONIY** (to'liq ismi Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'ioniy) (1123.23.9, Rishton tumani, Dahbet qishlog'i — 1197.29.10, Samarqand) — buyuk faqih, imom. Dastavval otasi Abubakr ibn Abduljalil, so'ng Simon Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy qo'lida tahsil ko'rdi. Rishton, Margilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnaxming boshqa shaharlarda islomiy ta'lim olib, hanafiya mazhabining buyuk faqifi sifatida nom qozondi. Shayxulislom bo'lib yetishdi. 1149 y. haj safariga bordi Burhoniddin Marg'ioniy.

Samarqand shahridagi Chokardiza kabristonga dafn etilgan. Burhoniddin Marginoniy. fiqh bo'yicha asosiy asari "Bidoyat ul-mubtadi" ("Boshlovchilar uchun qo'llanma")ni h anafiya nazariyotchisi, shariat asoschilaridan Abul Hasan al-Quduriy (1029 y. v.e.) va Muhammad ash-Shayboniy (884 y. v.e.) asarlariga tayanib yozgan. Burhoniddin Marginoniy ning ushbu kitobi nazariy asar edi, undan amaliy jihatdan foydalinish qiyin bo'lgan. Shu sababli B. M.ning o'zi 8 jildli sharh — "Kifoyat ul-Mu'mtahiy" ("Yakunlovchilar uchun tugal ta'lilot")ni yozishga karor qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida "Kitob al-Hidoya" (qisqacha nomi "Hidoya" — "To'g'ri yo'l")ni yaratadi (1178). Burhoniddin Marginoniy bu kitobda o'sha zamonalarda mo'minmusulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burchi va mas'uliyatlariga taalluqli juda ko'p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib berdi. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islam sharqida bir necha tillarga tarjima etilib ma'lum va mash'hur bo'l ib ketdi. Bu kitob fiqh ilmi bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar

bo'lgan. Undan asrlar davomida islam huquqshunosligi bo'yicha nufuzli huquqiy manba — asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan (q. Hidoya). Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasicda ham "hidoyat yo'lining sarboni" deya katta hurmat-e'tibor topdi.

Burhoniddin valmilla (islom dinining dallili, isboti) degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Burhoniddin Marginoni yana bir qancha asarlar yozgan: "Nashr al-mazhab" ("Mazhabning tarqalishi"), "Kitob at-tajnis val-maziyd" ("Fuqarolik huquqini taqdim etish"), "Kitob ul-faroi z" ("Majburiyatlar haqida kitob"), "Maziyd fi furu ulhanasiy" ("Hanafiya mazhabiga qo'shimchalar") va boshqalar. U o'z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslarini, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoiy ishni ko'rish masalalarini batatsil yoritib berdi. Bu asarlarda adolat tuygusi, o'z davrining huquqiy mszonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehroqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati olib berilgan. Burhoniddin Marginoniyning o'zi hayoti davomida ana shunday insoniy fazilatlarga amal qilib yashadi. Ilmu urfon yo'lidagi fidoyiliги, kamtarligi o'z asarlarida bir "on marta ham "men" degan so'zni ishlatmay, "bu zaif banda aytadi", deya hokisorlik bilan izoh berishida ham ko'rinish turadi. Burhoniddin Marginoniy ning ilmiy merosi o'z ahamiyatinn yo'qotmagan. Jahondagi ko'p o'liy o'quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi fanlari Burhoniddin Marginoniy ning fiqh ta'lomi asosida o'rganiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng uning ilmiy merosini har tomonlama chuqur o'z asarlarini chop etish ishlariga katta e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Burhoniddin Marg'ioniy vafotining 800 yilligi (1997), tavalludining 910 yilligi (hijriy sana bo'yicha) (2000) keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg'ilon sh. markazida Burhoniddin Marginoniy yodgorlik majmui buyyod etilib, shu yerda uning ramziy maqbarasi o'rnatildi.

### Topshiriq:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan otlarni aniqlang.
2. Matnga reja tuzing.
3. Marginoniy qalamiga mansub asarlar ro'yhatini tuzing.
4. Mustaqillikda so'ng Marginoniy nomi qanday abadiylashtirildi?

## ISMOIL JURJONIY

Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniy al-Xorazmiy ulug' olim va zamonasining eng mashhur tabiblaridan biri hisoblanar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Zahiriddin Abul Hasan Bayhaqiy o'zining "Tatima sifon al-hikma" ("Donolik xazinasiga qo'shimcha") asarida Ismoil Jurjoniy haqida shunday yozadi: "Men u kishini 531 hijriy (1136 milodiy) yilda Saraxsda keksalik chog'larida ko'rgan edim.

Yer yuzining adolat peshahukmdori Xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad uni bimecha muddatga Xorazmga taklif etganedi. Korazmda bo'lган vaqtida u "Al-Xuffayi al-a'loiy" ("Poyalarning yuqori qismi"), "At-Tibb al-mulukiy", "Kitob az-zahiraye Xorazmshohiy", "Kitob al-ahrod" ("Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar"), "Kitob yodgor" ("Esdalik kitobi"), "Kitob fi rad alal falosafa" ("Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi"), qozi Abu Said Shori'iyga bag'ishlab "Kitob tadbir yaum va laylat" ("Kecha bilan kunduzning almashinishi haqida kitob"), "Kitob vasiyatnom'a" va boshqa tabobat hamda falsafaga doir asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari sevib o'qilganidan tez orada jahonga mashhur bo'ldi.

Muhtaram kishilardan eshitishimcha, u kishi ochiq chehrali, xushmuomala, tabiatan saxovatli shaxs ekanlar". Ismoil Jurjoniy 1042- yilda Jurjon shahrida tug'ilgan bo'lsa ham, umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazganligidan Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniy al-Xorazmiy deb ulug'lanar edi. Jurjoniy Xorazmshohi Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097-1127) va uning o'g'li Alouddavla Otsiz (1127-1156) saroyida xizmat qildi.

Jurjoniy o'z davrida qadimgi yunon tabobati vakillari Galen, Gippokrat, shuningdek, o'zidan oldin o'tgan Abu Bakr Roziy va ayniqsa, ibn Sino asarlarini chuqur o'rgandi. Tabobat ilmidan tashqari boshqa ilm sohalarida ham mashhur bo'lganligidan unga oyiga ming dinordan maosh tayin qilingan edi. Ismoil Jurjoniy o'zining tabobatga bag'ishlangan eng yirik asari "Zadiraye Xorazmshohiy" ni 1110 yilda yozib tugatdi va uni Xorazmshoh Qutbiddinga bag'ishladi. Otsizning buyrug'iga ko'ra, bu asarning qisqartirilgan nusxasini 1113- yilda "Al-Xuffayi al-A'loiy" nomi bilan yozib tugatdi. Asar hammaga tushunarli fors tilida yozilgan bo'lib, harbiy yurishlar va sayohatlarda ham har kim etigi qo'njiga solib yurishiga (etigxuff) quayaylik yaratish maqsadida shunday qilindi. "Zadiraye Xorazmshoxiy" o'n kitobdan iborat bo'lib, keyinchalik unga "Dorisozlikka oid kitob" ("Qo'rabodin") qo'shildi.

Birinchini kitob umumiyy nazariy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiat va koinot haqidagi qarashlar bayon etiladi. Inson organizmining birlamchi a'zolarini tashkil etgan unsurlar, mijoz, to'rt suyuqlik, badanning har bir qismining nimalarga

qodirligi haqidagi ta'limot va shu munosabat bilan tabobatning fan sifatidagi vazifalari haqida gapiriladi.

Ikkinci kitobda SOG'LIQ va kasalliklar haqidagi ta'limot, ularning turlari, namoyon bo'lish belgilari, to'mir urishiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risida so'z yuritiladi.

Uchinchini kitob SOG'LIQNI saqlash, bunda atrof-muhitning ta'siriga, ya'ni davo, maskan, suv, oziq-ovqat, ichimlik, uyqu, bedorlik, harakat va osoyishtalikka bag'ishlangan. Bu kitobda bolalar, qariyalar, safardagilar uchun alohida-alohida qoidalar bayon etilgan.

To'rtinchi kitobda kasallikni qanday kechishi mumkinligini belgilash, qaysi paytlarda eng OG'IR Holatlarga tushib qolish, ulardan qutulish muammolari haqida gap boradi.

Beshinchi kitobda bezgak kasalining paydo bo'lish sabablari, uning belgilari, davolash tarzi bayon etilgan.

Oltinchi kitobda inson a'zoyi badanining har xil joylarida paydo bo'ladigan kasalliklar, ularni davolash usullari tahlil etilgan.

Yetinchi kitob rak kasalliklariga, yaralar, shishlar, suyak chiqishlari va sinishlariga bag'ishlangan.

Sakkizinchi kitobda pardoz-andozlar, o'ziga oro berishlar haqida gap boradi.

To'qqizinchi kitobda zaharlar va unga qarshi davolash usullari hakida hikoya qilinadi.

O'ninchi kitob davosi zlikka bag'ishlangan. "Zahiraye Xorazmshohiy" o'z vaqtida omma orasida keng tarqalgan tabobat sohasidagi eng mashhur asar bo'lganligidan jahon kutubxonalarining ko'pchiligidagi uning qo'lyozmalari hamon saqlanib kelinmoqda.

XII asr muallifi vatandoshimiz Aruziy Samarqandiy bu asarni buyuk olimlar Jolinus, Roziy, ibn Sino va boshqalarning shu sohadagi kitoblari qatoriga qo'ygan. Bu asar hatto yahudiy tiliga tarjima qilingan edi. XVI asrda esa Abul Fadl Muhammad ibn Idris Daftariyi uni turk tiliga tarjima qilgan. Ma'lumki, Sharq olimlarigina emas. balki XVI II asr oxirigacha yashagan Ovrupo olimlari ham barcha borliqning asosida to'rt unsur, ya'ni tuproq, suv, havo va olov yotadi deb bilishgan. Ismoil Jurjoniy ham inson tanasi mazkur to'rt unsurdan tashkil topganini, u sababsiz kasallikka chalinmasligini qayd etadi. Kasallik sababi esa, yuqorida zikr etilgan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan to'rt unsur muvozanatining buzilishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Jurjoniy tabobatni malaka hosil qilish yo'li bilan qo'llga kiritiladigan fan deb hisoblaydi. Ismoil Jurjoniy fikricha, isbot va tafakkur vosisasida hosil qilingan narsa ilm deb ataladi. Ilm ham o'z navbatida ikki xil bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarga adabiyot, mantiq, riyoziyot kirsa, amaliy ilmlar o'z ichiga mexanika, tikuvchilik va boshqa qo'l ishlari, hunarmandchilikni qamrab oladi.

"Tabobat ilmi esa, ayni holda ham nazariy va ham amaliy ilmlardan tashkil topadi". Tabobat ilmidan kuzatilgan maqsad tanani butunlikda — sog'lomlikda ushlab turishga tibbiy tadbirlar qo'llash yuli bilan erishmoqdir. Bunday holat bemor kishilarning va ularni davolovchi tabiblarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Tabiblar esa, tabiatning barcha siru asrordan boxabar bo'lishlari lozim. Ma'lumki, tabiatning eng buyuk mo'jizasi — bu insondir. Shuning uchun ham bu mo'jizaning nimadan tarkib topganini bilish — uni davo lashning kalitidir.

Ismoil Jurjoniy fikricha, hayvonot olamining ham o'z mijozsi bor, ammo insondagi mijozigina mo'tadildir. Bunday natijaga Ovrupo olimlari XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridagina eriwdilar. Ular butun inson badanida bo'ladigan kimyoviy jarayonlar, uning ona qomida paydo bo'lishidan boshlangan o'zgarishlar, tug'ilgandan keyingi hayotiy yuli: chaqaloqligi, o'spirinligi, yoshligi, keksaligi, qarilik va o'lim bilan yakunlanadigan hayotiy boskichlaridagi har bir hujayralarning paydo bo'lishi, zavolga yuz tutishi, bir tomonidan asab tizimining daholati sababli yuz bersa, ikkinchi tomonidan, badan a'zolariga ma'lum mijoz (temperament)ga ega bo'lgan harmonlarning aralashishi oqibatida yuz berishini aniqladilar. Harmonlarning kishi jismiga, ruxiyatiga ta'siri oshkora bilinib turadi.

G'ariza (instinkt) va hayajon, fe'l u atvor va mizojarlar darmonlar ta'siri vositasida namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda issiq, sovuq, nam va quruq mijozli insonlarning bo'lishligi ishonchli dalillarga asoslangan ilmiy hakiqat sifatida tan olingan. Chunki ularning manbai asab tizimi, ichki harmonlar amaliyotida ekanligi isbotlangan.

Ismoil Jurjoni kishilar mizozi ularning umrlari davomida o'zgarib turishligini va o'limning tabiiyligini ilmiy jihatdan soda va ravon tilde tushuntirdi. Insonlar umrini u to'n davrga bo'ladi:

Birinchi davr — tug'ilish, o'sish va parvarishlash bosqichi bo'lib, 15-16 yoshgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi davr — yoshlilik va etuklik bosqichi bo'lib, 30 yoshgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Bundan keyin jismonan o'sish va ulg'ayish davri boshlanadi. Ba'zilarda o'sish va ulg'ayish yoshi 35 yoki 40 yoshgacha ham davom etishi, shu yoshgacha bo'lgan umrni yoshlilik davri deb hisoblash mumkin.

Uchinchi davr — muysafidlik bosqichi, bu davorda inson to 60 yoshga yetguncha yoshlilik quvvatidan baxra olib yashashi mumkin bo'ladi.

To'rtinchi davr — kishi umrining qarilik davri bo'lib, bunda quvvatning susayish holati kuzatiladi va bu jarayon umrning oxirigacha davom etadi. Qarilikning fazilati shundaki, ba'zilar 60 yosh yashaydi, ba'zilar esa yana o'spirinlik, yoshlilik va muysafidlik yillari qancha davom etgan bo'lsa, o'shangaleng teng keladigan vaqtgacha yashab, 120 yoshga kirishi mumkin.

Kishilar bolalik davrlaridan to etuklik yoshiga yetgunlariga qadar issiq va nam mijozga, etuklik yoshidan so'ng esa issiq va quruq mizoja ega bo'ladilar; 35 yoshtan keyin bunday holat kamayadi.

Ismoil Jurjoniyning koinot va inson haqidagi ilmiy mulohazaları vogelikdan olingan manbalar asosida shakllangan bo'lib, u insonning tabiiy extiyojlari cheksizligidan kelib chiqadi va ulami qondirishni aqliy yul bilan chegaralashni yagona chora sifatida targ'ib etadi.

Uning fikricha, haqiqiy lazzat jismoni huzur-halovatda, to'kin- sochin hayot kechirishda ernas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishishdadir. Narigi dunyodagi bexisht, jannat huzur-halovatlarini ruxiy, aqliy orom olishlikda deb tushunadi. "Zahiraye Xorazmshohiy" asarini tugatgandan so'ng Jurjoniy Marv shahriga keladi. Bu paytda Marv shahri Sulton Sanjarning poytaxti hisoblanar edi.

Sulton Sanjar unga katta iltifot va izzat-ikrom ko'rsatganligi sababli Jurjoniy umrining oxirigacha shu erda yashadi. Bu erda hadis ilmida Abul Qosim Qo'shayriy bilan muloqatda bo'ldi, tabobat sohasida esa mashhur tabib ibn Abi Sodiq bilan hamkorlik qildi. Bundan tashqari Iraq, Fors va Xuziston tabiblari bilan, ibn Sinoning ba'zi shogirdlari bilan harmsuhbat bo'ldi. Umrining oxirigacha Marv madrasalarida bir necha fanlardan dars berdi. Yokut Hamav'iyning "Mujam ul-buldon" asarida keltirilishicha, Ismoil Jurjoniy Marvda hijriy 531 (1136) yidda vafot etdi.

Ismoil Jurjoniyning ilmiy merosidan foydalananish keyingi asrlarda ham samarali davom etdi.

#### Topshiriq:

1. Matndan son so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.
2. Matnda -lik, -chilik, -shunos, -chi qoshiinchalari yordamida yasalgan otlarni topib ko'chiring.
3. Jurjoniy Xorazmda bo'lgan vaqtida qanday asarlar yaratdi?
4. Ismoil Jurjoniyning tabobatga oid kitobi qanday nomlanadi va u necha kitobdan iborat?

#### NOSIRIDDIN TUSIY

Aniq fanlar sohasida O'rta Osiyo olimlari IX-XVIII asrlarda o'zlarining ko'pdan-ko'p ilmiy asarlaribilan, ayniqsa astronomiya va riyoziyotda, buyuk yangiliklar kiritdilar. To'qqiz asr davomida Sharq mamlakatlari, shu jumladan, O'rta Osiyoda ham, ulug' madaniy shaharlari vujudga keldi, bu shaharlarda



ilmiy maktablar va aniq fanlar bo'yicha hisoblash markazlari tashkil etildi. Ular ichidan faoliyatining asosiy yo'nalishi astronomik tadqiqotlar bo'lgan uch ilmiy maktabda vujudga kelgan kashfiyotlar e'liborga loyiqdirdi.

Birinchi ilmiy maktab XIII asrda Janubiy Ozarboyjonning poytaxti Marog'a shahrida tashkil qilindi. Maktabning ilmiy rahbari Nosiriddin Tusiy edi. Uning iltimosiga ko'ra, 1259 yili Xuloguxon rasadxona qurdirdi. Chunki xon bundan o'z manfaatini ham ko'zlagan edi, ya'ni turli harbiy yurishlar va boshqa ma'muriy tadbirlarni amalga oshiradigan omadli kunlarni aniqlash va bunday kunlarni oldindan bildiradigan jadval-goroskop tuzib berishlarini u olimnlardan talab qilgan edi. Bunday jadvallarni tuzish esa ma'lum astronomik kuzatishlarni taqozo qilardi.

Biroq keyinchalik Nosiriddin Tusiyning g'ayrati va shijoati sabab bo'lib, bu rasadxona XIII asrning yirik ilmiy markaziga aylandi va tarixda o'chmasizqoldirdi. O'rta asr tarixchisi Rashididdinning ma'lum qilishicha, rasadxonaning yuzga yaqin xodimi bo'lgan. Ozarboyjonlik olim H.Mamedbeylining «Nosiriddin Tusiy – Marog'a rasadxonasining asoschisi» degan asarida rasadxonada ishlagan 21 astronomning ro'yxati keltirilgan. Tusiy tarixga qomusiy alloma sifatida kirdi. Uning matematika va astronomiyaga oid «Algebra va almuqobaladagi hisoblash masalalari haqida risola», «Astronomiyadan Nosiriddinning esdaliklari», fizikaga oid «Nurming sinishi va qaytishi haqidagi risola», «Issiq va sovuq haqidagi risola», boshqa fanlar sohasida Xuloguxonga bag'ishlangan «Tansiqnomai Elxoni» («Elxon mineralogiyasi»), pedagogikaga oid «Axloqi Nosiri», mantiq bo'yicha yozgan «Asos al-iqtibos» («Bilim olishning asoslari») va boshqa asarlari qimmatli meros hisoblanadi.

Olimning ilmiy merosi ichida uni dunyoga tanitgan buyuk astronomik asari «Ziji Elxoni» («Elxon ziji») bo'lib, u Xuloguxonga bag'ishlangan edi (Xuloguxonning taxallusi Elxon bo'lgan). Bu asarda keltirilgan talay yirik shaharlarning geografik koordinatlari, yulduzlarining koordinatlari, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarining harakatlari aks ettilrilgan jadvallar, to XV asrda Ulug'bek rasadxonasining yirik astronomik asbobida bu ma'lumotlar aniqlashtirilgunga qadar, ya'ni ikki yuz yildan ko'proq davr mobaynida dunyo astronom olimlarining foydalanadigan kundalik lug'atiga aylandi. O'z asarida olim mashhur yunon astronomi, olam tuzilishining geosentrik ta'lilotining asoschisi K.Ptolomeyning (mashhur «Almajistiy»ning muallifi) Oy va Utorud (Merkuriy)ning harakatiga bag'ishlangan nazariyasiga qarshi chiqib, o'zining nisbatan yengil hisoblash usulini taklif etadi.

Tusiyning Marog'adagi rasadxonasi o'rta asrlarda ishlagan va dunyoga dong'i ketgan eng yirik rasadxonalardan bo'lib, uning Sharq astronomiyasi rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. 1935-1937 yillari rasadxona qoldiqlari arxeolog P.Varjivand va uning shogirdlari Murtazaviy va Haydariylar tormonidan o'rganilib,

uning asl o'lchamlari haqida quyidagi ma'lumotlar qo'lga kiritildi: uzunligi 510 metr, kengligi 217 metr bo'lib, rasadxona o'rnatilgan bu tepalikning balandligi 110 metr. P.Varjivand qazilmalari asosida Tabriz universitetining olimlari Marog'a rasadxonasining asosiy «teleskopi» — kvadrantning radiusi — 18,4 metr, asosidagi aylanmaning diametri — 22,8 metr, devorining qalinligi esa 80 santimetrligini aniqladilar.

Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan arab olimi Al-Ordiziyning kitobida Tusiy rasadxonasining 10 ta astronomik asboblari haqida ma'lumot berilgan.Tusiyning vafotidan(1274 yil) keyin rasadxonaga uning katta o'g'li Sadreddin Abul Hasan ibn Nosiriddin rahbarlik qildi.Sharqning ikkinchi ilmiy maktabi XV asrda Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek tomonidan tashkil etildi. Ta'kidlash lozimki, birinchi ilmiy maktab — Marog'a rasadxonasi Samarqand rasadxonasidan 150 yil oldin qurilib, ishga tushirilganligi tufayli, Ulug'bek rasadxonasining qurilishi va ishga tushirilishida Tusiy rasadxonasining ko'pgina ijobji tajribalaridan, jumladan, ilmiy ishlarni rejalashtirishda va olingan natijalarni taq qoslashda keng foydalanildi.

#### Tops hiriq:

- 1) Tomon, keyin ko'makchilari ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.
- 2) Mantdan sifat va ravish so'z turkumiغا oid so'zlarni yozing.
- 3) Nima uchun Tusiy tarixiga qomusiy alloma sifatida kiritildi?
- 4) U buyuk astronom sifatida qanday ishlarni rejalashtirishda va olingan natijalarni taq qoslashda keng foydalanildi?

#### NOSIRIDDIN RABG'UZIY (XIII-XIV asrlar)

Rabg'uziy (taxallusi; asl ism-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o'g'li) (13-asr oxiri — Xorazmning Raboto'g'uz mavzei — 14-asr boshlari) — shoir. Raboto'g'uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og'zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlamli, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarни chuqur o'rgangan. O'zi ham ko'pgina ibratlari hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha «Qisasi Rabg'uziy» (1309—10) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo'g'ul beklaridan Nosiriddin To'qbug'aning topshirig'i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba'zi qissalarining xulosalari, lirik kechinmlar va xotima qismi esa nazmda yozilgan.

Qur'oni karindagi ba'zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Ishoq Nishopuriyning «Qisas ul-anbiyo» sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi, so'ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma'lumot beruvchi qisqa so'zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72

qissadan iborat. **Mavzu** doirasiga ko'ra, asar qissaları juda rang-barang. Olamdagı butun mavjudot egasi bo'lgan Allohnı ulug'lash. payg'amarlar hayotiga doir lavhalarnı eslash, kamtarinlik va takabburlik, otaona va farzand munosabatlari, erk va adolat **mavzuları** shular jumlasidandır. Qissalar hajmi turlicha: masalan, Yusuf haqidagi qissa saltkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadan gina iborat. Qissalarda real hayot voqealari bilan bog'liq mavzular ham uchraydi. Qissalar bayonida, personajlar tasvirida xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri seziladi. Asarda ma'rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va b.), qis salardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va b.).

Rabg'uziyning bu asari o'zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13—14-asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qissaning 15-asrga oid qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, 16-asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, 19-asrda ko'chirilgan qo'lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. ?1025, 7397, 1874) saqlanadi.

### Topshiriq:

- 1) Matndan ergashgan qo'shma gaplarni topib ko'chiring.
- 2) Son so'z turkumiga oid so'zлarni ajratib yozing.
- 3) Rabg'uziy turkiy xalqlar adabiyoti tarixida qanday janmi birinchilardan bo'lib boshlab bergan?
- 4) "Qissa Rabg'uziy" asari haqida ma'lumot bering.

### JALOLIDDIN MANGUBERDI

Jaloliddin (Jaloliddin ibn Aloviddin Muhammad) (1198-1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220 – 1231), mohir sarkarda. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankbumi nomi bilan atagan. Keyinchalik talaffuzda bu nom o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etadi. U o'zining jasur jang chi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish qiladi.

Jaloliddin xorazmshoh etib tayinlangandan so'ng ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga mo'g'ullarga qarshi Gurganj mudosaasiga o'tadi. Lekin unga suiqasd uyushtirganlarini eshitgach, Temur Malik bilan birga Xurosonga yo'l oladi. U yerda 700 nafar mo'g'ullar suvoriysi bilan shiddatli jang olib boradi. Viloyat hokimlarini yig'ib mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da`vat qiladi. 3 kunlik

jang qilib turgan mo`g`ul qo`shniga hujum qilib, 1000dan ortiq mo`g`ulni o`ldiradi. U “Ota o`g`il shunday bo`lishi kerak!” deydi.

Hindistonda J.Manguberdi 30.000 ortiq, 100.000 piyoda, 300 ta fil bilan qo`shin tortgan Shamsuddin Eltutmishdan ustun keladi. U Hindistonda kumush va mis tangalär zarb qiladi. Vaziyat qiyinlashadi. J.Manguberdi harbiy kengash chaqiradi va 4000 jangchisi bilan Iroqqa (Kirmon) yetib keladi. Isfahindan esa aholi uni tantana bilan kutib oladi. 12 kundan keyin Ozarbayjonga keladi. Oradan oz fursat o`tib, u Gruziya tomon yuradi.

1230 yili J.Manguberdiga qarshi birlashgan kuch jang qiladi. Jaloliddin oz qo`shini bilan yengiladi. Tariixchi Nasviy yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan o`ta bo`yli turk lafzli odam edi. Fors tilini yaxshi bilardi. Sultan arslonlar orasidagi eng kuchli she`r edi. U adolatsizlikni yomon ko`rardi. O`ta qatiatlri nihoyatda irodali, favqulodda mard va botir sarkarda edi. Ochiq ko`ngilli, kek saqlamaydigan to`g`ri odam edi. Ujilmayardi xolos.

O`zbekiston Jaloliddin Manguberdining mo`g`ul bosqinchilariga qarshi ko`rsatgan jasorati, ruhni abadiylashtirish maqsadida tavalludining 800 yilligini nishonlash munosabati bilan Xorazimda haykal o`rnatildi. 200yil 30 avgustda “J. Manguberdi” ordeni ta`sis etildi.

#### Topshiriq:

- 1) Matndan son so`z turkumiga oid so`zlarni yozing.
- 2) Notanish so`zlarning izohli lug`atini tuzing.
- 3) Jaloliddin Manguberdi mo`g`ul bosqinchilariga qarshi ko`rsatgan jasorati haqida nimalar bilasi?

### XIII-XV ASRDA YASHA B IJOD QILGAN ALLOMALAR

#### AMIR TEMUR

(to`liq ismi-sharifi Amir Temur Ko`ragon ibn Amir Taragay Bahodir, 1336, 9.IV., hozirgi Qashqadaryo viloyati Yakkabog` turnani Xo`jailg`or qishlog`i, - 1405, 18.II., O`tror shahri) – yirik davlat arbobi, yengilmas sarkarda, o`ta asrda eng katta davlatlardan birining buniyodkori, tashqi munosabatlarda eng oqil yo`llarni topa bilgan rahbar, jang san`ati va qonunlarini ishlab chiqqan mashhur lashkarboshi. Otasi Amir Taragay Bahodir barlos qabilasi zodagonlaridan biri, zamor asining ko`zga ko`ringan badavlat kishisi hisoblangan, onasi Tegina begim esa buxorolik olim Ubaydullohash-Shari`anining qizi bo`lgan.

Amir Temurning go'dakligidanoq irodali, yaxshi tashkilotchi, o'tkir jangchi ekanligi namoyon bo'la boshladi. U o'z kuchi, g'ayrati va irodasini chiniqtirish maqsadida yigirma besh yoshigacha bir qancha hukmdorlar xizmatida bo'ladi. Bu davrda Muvarounnaxr bir qancha amirlilarga bo'lingan, tarqoqlik kuchaygan, qabililar va elatlar o'tasidagi nizolar avjiga chiqqan edi. Shunday murakkab vaziyatda Amir Temur harbiy va diplomatik qobiliyati tufayli Kesh (Shahrisabz) hokimi darajasiga ko'tarila oldi. 1370 yilda Amir Temur Keshdan Balxga yurish qilib, Amir Husayn qo'shinlarini yengdi, raqibini qatl qildi va uning xotinlaridan biri Saroymulkxonim (Bibixonim)ga uylandi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur "ko'ragon", ya'n'i "xonning kuyovi" nomini oldi.

O'sha 1370 yiliyoq ko'chmanchi zodagonlar, o'troq feodallar va muslimon ruhoniyari Amir Temurni Mavarounnahr amiri deb e'lon qildilar. Amir Temur Samarqandni davlatning poytaxtiga aylantirdi, o'z yakka hokimligi va davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida isyonchi amirlarga qarshi qat'iy kurash boshlab yubordi. U Yettisuv va Sharqi Turkistonga yurishlar qildi, 1388 yilga kelib Xorazmni u zi'l-kesil zabt etdi.

1380 yildan Amir Temurning boshqa mamlakatlarga yurishlari boshlanadi: 1381 yilda Hirotni, 1383 yilda Seyistonni egallaydi. 1386 yildan "uch yillik yurish", 1392 yildan "besh yillik yurish" va 1399 yildan esa "etti yillik yurish"larni boshlab, ularni izchillik bilan amalga oshiradi va natijada Kavkaz, Eron hamda Iroqni o'z davlatiga bo'yundiradi, Oltin O'rda xoni To'xtamishni Markaziy Osiyodan haydab chiqaradi. 1395 yilda Amir Temur To'xtamish qo'shinlarining Kavkazortiga hamlasini qaytarib, ularni tor-mor qildi va Moskvadan 400 kilometr masofada joylashgan Yelets shahrigacha quvib bordi, Oltin O'rda poytaxtini ishg'ol qilib, 1396 yilda Samarqandga qaytdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga yurish boshlab, Lohurni va Dehlini egalladi. 1400 yili Halab (Aleppo)ni, 1401 yilda Damashqni oldi. 1402 yilda Usmonli Turkiya sultonasi Boyazid Yildirimning qo'shinlarini tor-mor keltirdi.

1404 yilda Samarkandga qaytib, Xitoga yurishni tayyorlashga kirishdi va 1405 yilda qo'shinlari bilan yo'lga chiqib, Toshkentdan shimoli-sharqdagi O'tror shahriga kelganda kasallanib vafot etdi.

Amir Temur yurishlarida 20 dan ortiq mamlakatni zabt etdi, Oltin O'rda xoni To'xtamishni yengib, Qadimgi Rusni mo'g'ullar istibdodidan qutqarilishini osonlashtirdi, Turkiya sultonasi Boyazd Yildirimni yengib, Bolqon yarimoroli xalqparini ma'lum muddat mustabidlikdan saqlanib qolinishiga sababchi bo'ldi.

Amir Temurning sarkardalik mahorati dunyo ahamiyatiga egadir: jahon harbiy akademiyalarida quldarlik davri harbiy san'atining eng yorqin vakili sifatida Aleksandr Makedonskiy, o'rta asrlardan - Amir Temur, kapitalizm davridan Napoleonning sarkardalik mahorati o'rganiladi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda savdogarlarga, hunarmandlarga, shayxlarga va islom diniga tayandi, ichki va tashqi savdoni yo'lga qo'ydi, ilm-fan, adabiyot, san'at taraqqiyoti uchun qulay sharoitlar yaratdi, zabit etilgan mamlakatlardan olimu fu'zolarni, ilohiyotchilarni, san'at namoyondalarini Samarqandga olib keldi. Natijada me'morchilik, rassomchilik, naqqoshlik yuksak cho'qqilarga ko'tariildi. U Samarqandni jahonning eng go'zal shaharlaridan biriga aylantirdi, atrofidagi qishloqlarga Bag'dod, Qohira, Damashq, Forish (Parij) kabi nomlarni berish bilan poytaxting mavqeini oshirishga harakat qildi, qator xorijiy mamlakatlar bilan, shu jumladan, Fransiya, Ispaniya, Genuya, Angliya bilan aloqalar o'rnatdi.

Markaziy Osiyo Uyg'onish davri Amir Temur va uning avlodlari hukmonligi yillarda mustahkam negizga ega bo'ldi.

### Topshtiriq:

- 1) Matndan ko'rsatish olmoshlarini ajratib yozing.
- 2) Matnda ishlatilgan va bog'lovchili gaplarni ko'chiring.
- 3) Amir Temur hayoti haqida ma'lumot bering.
- 4) U buyuk sarkarda sifatida qanday ishlarni amalga oshirgan?
- 5) Amir Temur davlatni boshqargan yillarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

### MAVLONO LUTFIY

Lutfiyning asl ismi noma'lum. Shoiring tug'ilgan va vafot etgan yili aniq emas. U taxminan 1366- yilda Hirot shahri yaqinidagi Dehikanor degan joyda oddiy bir oilada tug ildi.

O'z davrining g'azal ustasi Lutfiy barakali ijod etib, ajoyib dostonlar ham yaratgan. Bular orasida sho'ir adabiy merosining salmoqli qismini tashkil etuvchi devoni ayniqsa qimmatlidir.

Yosh Alisher Navoiy o'z davrining aziz va tabarruk sho'iri Lutfiy bilan tez-tez do'stona ur irashib, adabiy suhabatlardal bo'lgan. Navoiy o'z asarlarida ko'p o'rinnlarda Lutfiy nomini tilga olganda, unga hurmat, izzat bilan "Mavlono Lutfiy", "Malik-ul kalom" Lutfiy deb murojaat qiladi.

Lutfiy samarali ijod qilib, o'zidan keyin boylik meros qoldirgan. Uning o'zbek va fors tillarida o'n-o'n ikki ming bayt ijod etganligi ilmiy manbalarda xabar qilinadi. Hozirgi kunda Lutfiy devonining 30 dan ortiq qo'lyozma nushasi fanga ma'lum bo'lib, jumladan, 16 nusxasi O'zbekiston qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda.

Lutfiy ijodi markazida inson va uning muhabbati turadi. Sho'ir sevgini chuqur va badiiy ta'sirli etib kuylaydi. U sevgi insonning eng olijanob fazilati va ma'naviy

go'zalligi deb biladi va bu tuyg'uni insonning eng asosiy mazroni deb qaraydi. Oddiy va kamtorona hayot kechirgan Lutfiy 1465 yil Hirotda vafot etib o'zi tug'ilgan Dehikanordagi bog'iiga dafn etilgan.

### Topshiriq:

- 1) Oilmoq fe'li ishtirok etgan gaplarni matndan yozing.
- 2) Lutfiy hayoti va ijodi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

### AL – KOSHIY

G'iy osiddin Jamshid Ibn Masul al-Koshiy (1385.22.06.1429) matematik va astronom Samarcanda Ulugbek rasadxonasiда qozizoda ar-Rumi bilan ishlagan. Koshon (Eron) shahrida tugilgan. 1417 yilda Samarqandga keladi va shu yerda yashab ijod qiladi.

Matematikaga oid 3 ta asar yozgan: Arifmetika kaliti (Miftaxul-hisob) (1427 yilda yozgan) sodda matematika boyicha olingen natijalar bilan birqalikda kop muhim kashfiyotlar bayon qilingan. Xususan, sonlarda ixtiyoriy musbat butun korsatkichli ildiz chiqarish, ikkihad Nyuton binomini butun musbat darajaga kotarish, xitoy va arab sharqi olimlariga qaraganda izchilroq onli kasrlar va ular ustida amallar bajarish qoidalari ishlab chiqilgan. Olim yuqori tartibli tenglamalarni taqribi yechish qoidalarini Vatar va sinus haqida asarida bayon etadi. Natural sonlar 4-darajalari yigindisini topish qoidasi Koshiy nomi bilan ataladi. Aylana haq risola (1427 yil) asarida al-Koshiy P sonining verguli keyingi 17 ta qiymatini topadi (Yevropada bunday natija 1597 yilda qo'lga kiritilgan), Bunda Arximed usulidan foydalaniladi, aylanaga ichki chizilgan muntazam 3,1028 tomonlik orqali P soni qiymatini aniqlagan Cya'ni u muntazam 600335168 burchak tomonini xisoblashga to'g'ri kelgan). U trigonometrik hisoblashlarni takomillashtirdi, Osmon jismlarigacha bo'lgan masofalarni olhash usulini topdi, sayyoralar harakatini kuzatish uchun mexanik asbob ixtiro qilgan.



### Topshiriq:

1. Matndan ot so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.
2. Koshiy yaratagan 200dan ortiq asarlar qaysi fanlarga taalluqli?

## NAQSHBAND BAHOUDDIN

(Sayyid Muhammad ibn Jaloliddin, 1318-1389) - mashhur shayx, o'z nomi bilan atalgan naqshbandiylik oqimi, ya'nı tariqatining asoschisi. Buxoro yaqjniidaq Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan va shu yerda vafot etgan.

Naqshband yoshligidanoq sufizm yo'liga kirgan, ya'ni "inson xudodan", "inson xudo bilan", "inson xudo uchun", "inson xudoga" degan aqidalarga asoslangan va tasavvuf deb atalmish diniy-falsafiy oqimiga o'zini bag'ishlagan. U tasavvuf sirlarini o'rganadi, Qur'on'i karim, tafsir, hadislarni puxta egallaydi.

Naqshband tariqati markazida axloqiy va xulq-odob qoidalariga izchil amal qilish turadi. U insonlarni halol-pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun ko'rishiga, muxtojlarga yordam berishga, kamtar va sofdil bo'lishga da'vat qiladi. U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasinı olg'a surgan, insonlarni faqirlikka, kambagallikka undaydi, lekin xayr-ehson hisobiga emas, balki faqat o'z mehnati bilan yashashni yoqlaydi, "Dil - muhabbat (xudo), Qo'l - ish bilan band bo'lsin" - ("dil bayoru, dast ba kor"), deydi. Shu qoidaga amal qilgan Naqshband dehqonchilik bilan shug'ullanadi, shundan o'lgan mahsulot va daromad evaziga kun kechiradi. Keyinchalik esa shoyi gazlamalarni rangdor gullar bilan bezagan, otasi bilan birlikda temir va mis buyumlarga turli naqshlar bitgan. "Naqshband" taxallusi uning kasbu korimi xam bildiradi.

Naqshband tasavvufni keng targ'ib qilib, Arabiston, Eron va Markaziy Osiyoning ko'p shaharlarida bo'lgan. U bu dunyo ishlaridan yuz o'girmaslikni, yuksak iymon va e'tiqodga ega bo'lishni, doimo dilida xudoni jo aylab mehnat qilishni, harom-xarish ishlardan o'zini tiyishni targ'ib etadi, o'g'rilik, firibgarlik, yolg'onchilik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yish kabi tuban illatlami qoralaydi, odamlarni ahillik va do'stlikka, doimiy muloqotda bo'lishga chaqiradi. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy va badiiy fikr taraqqiyotiga asrlar davomida jiddiy ta'sir ko'rsatib keldi, mustaqil O'zbekiston hamda O'zbek millatining o'tmishi, falsafiy va ma'naviy merosini o'rganishga va milliy tiklanishimizga xizmat qiladi.

Naqshband ijodini o'rganish hozirgi O'zbekiston uchun o'ta ahamiyatga ega masalalardan biridir. Gap shundaki, o'tmish ajdodlarimiz tafakkuri, asarlari, hayot qoidalari, ta'limotlarini o'rganmay turib, yangi O'zbekistonning navbatdagagi vazifalarini, strategik rivojlanish yo'naliishi va uning bosqichlarini belgilash qiyin. Shu boisdan ulug' ajdodlarimiz hayoti va ta'limotlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biri ekanligi barchamizga ayon.

Ammo bunday o'qish va o'rganish masalaning bir tomoni. Masalaning yanada muhimroq ikkinchi tomoni bor. Biz hozircha asosan buyuk mutafakkir ajdoddarimiz

hayoti, faoliyati va ta'limotlarining tavsifi va ia'rifini berish bilan cheklanmoqdamiz. Bunday ish muhim va zarur. Biz o'zimizga yangi dunyo ochmoqdamiz.

Masalaning ikkinchi, yanada muhimroq tomoni shundan iboratki, biz o'tmishimizdagi mutafakkirlar nima sabablar ta'sirida va tazyiqida zohidlikni, tarkidunyolikni targib etishni o'z ta'limgotlarining tag asosi va umurtqa suyagi qilib olganlar, nima uchun Yevropa olimlari butunlay boshqa g'oyalami olg'a surganlar, bizning mutafakkirlar esa dunyoning huzur-halovatlaridan, turmushning lazzatlaridan voz kechishni uqtirganlar - mana shunday savollarga javob bermoq kerak. Bunday tadqiqot har bir ta'limgotning va falsafiy qarashning shu hududda, shu xalqda mavjud shart-sharoitlarga, tarixga boglik ekanligini aniqlab beradi.

Bunday xulosadan mantiqan kelib chiqadigan yangi fikr shundan iboratki, zamон о'згарishi bilan hayotga bo'lgan talab va ehtiyojlar ham o'zgarmog'i lozim. Muayyan tarixiy shart-sharoitlar xalqning fikr-zikrini ifodalovchi mutafakkirlarimizdan zohidlikni, tarkidunyolikni targ'ib etishni davr vazifasi, deb ularni shu yo'naliishga undagan bo'lsa va bu narsa o'zbek xalqining milliy xarakteri, turmush tarzi va mentalitetiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelgan bo'lsa, endi bu borada tub o'zgarish yasash uchun barcha asos bor. Bunday tub o'zgarishlarsiz biz ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lomaymiz.

### Topshiriq:

- 1) —ning, -ni, -ga kelishik qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlarni matnidan yozing.
- 2) U, bu, shu ko'rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.
- 3) Nima uchun "Naqshband" taxallusini olgan?
- 4) U qanday falsafiy-diniy oqimga o'zini bag'ishlagan?

### XOJA MUHAMMAD PORSO

Xoja Muhammad Porso (to'liq ismi Muhammad ibn Mahmud Hofiz al Buxoriy) (1345, Buxoro — 1419, Madina) — naqshbandiya tariqati namoyandasasi. Buxorodagi madrasalarda tahsil olgan. Qur'on va hadislarni, kalom ilmini chuqur o'rgangan. Bahouddin Naqshband uni shogirdlikka qabul qilgan va "porso" (taqvodor, dindor) taxallusini bergen. Naqshband vafotidan so'ng, uning o'miga tariqatiga rahbarlik qilgan.

Xoja Muhammad Porso o'sha davrdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Movarounnahr hukmdori Xalil Sulton bilan muloqotda bo'lgan, Shohruh bilan turli masalalar bo'yicha yozishmalar olib borgan. Ulug'bek saroyi (Samarqand va Buxoro) dagi ilmiy munozaralarda qatnashgan.

Tasavvuf va islom tarixiga oid "Risolai qudsiya" ("Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqidagi risola'"), "E'tiqod" ("E' haqida risola"), "Tahqiqot" ("Tasavvuf istilohlari bo'yicha risola'"), "Tafsiri Qur'on" ("Qur'on tafsiri"), "Risolai kalifiya" ("Karomatlar haqida risola'"), "Muxtasari tarixi Makka" ("Makka shahrining qisqacha tarixi"), "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" ("Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti"), "Haftodu du firqa" ("Yetmish ikki firqa") kabi 20 dan ortiq asar yozgan. Shariat va tariqat masalal ariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari "Fasl ulxitob bivusulil ah'bob" ("Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob") bo'lib, u o'rta asrlarda islom ulamolari uchun q'llanma vazifasini o'tagan. Asar 494 ta masalaga bag'ishlangan bo'lib, ularning hammasi islomda bahsli hisoblangan va muallif turli asarlarga suyargan holda bu masalalarni yechib bergen. Asar bir necha marta chop etilgan.

Xoja Muhammad Porso 2 marta haj ziyorati paytida kasalga chalinib, Madinada vafot etgan.

### **Topshiriq:**

- 1) Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- 2) Mantdan sifat va ravishlarni ajratib yozing.
- 3) Porsoning tasarruf va islom tarixiga oid qanday asarlari mavjud?

### **QOZIZODA RUMIY**

QoziZoda Rumiy — XV asr boshlari da Movarounnahrda shuhratqozonganulkhan matematik va astronomlardan biri. Olimning to'liq nomi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud. Salohiddin Movarounnahr va Xuroson olimlari orasida "QoziZoda Rumiy" (Usmonli turklar mulki bo'lib qolgan Kichik Osiyo, ya'ni qadimgi Rim imperiyasi yerlarini Sharqda Rum deyilar edi) nomi bilan shuhrat qozongan.

QoziZoda aslida hozirgi Turkiyaning shimoli-G'arbidagi Marmara dengizidan janubroqdagi Bursada tavallud topgan. Uning otasi Muhammmad "Xoja Afandi" laqabi bilan ma'lum bo'lib, Salohiddinning bolalik yillarda vafot etgan. Xoja Afandi ancha olim va komil odam bo'lib, ko'p yillar Bursaning qozisi lavozimida xizmat kilgan. Salohiddinning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Turkcha manbalarda u xijriy 755-765 (melodiylar 1354-1364) yillar orasida tug'ilgan, deb taxrnin qilinadi.

QoziZoda bo'shang'ich ma'lumotlarini Bursadagi madrasada olib, astronomiya va matematika bilimlarini mavlono Shamsiddin Fanoriydan o'rganadi. Lekin u yoshligidan Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning yuksak darajada ekanligini

eshitib, u yerga ketishga taraddud ko'ra boshlaydi. Bu haqda XX asr boshlaridagi turk tarixchisi Solih Zakiy bunday yozadi: "Mavlono Fanoriydan Xuroson va Movarounnahr ulamosining ulumi riyoziyadaki ovozai shuhratini eshita-eshita, nihoyat ikmolni tahlil uchun u joniba getmakka qaror vernish". Oila a'zolari bu sayohatga mo'nelik qilishlaridan qo'rqib, buni sir tutadi.

Qozizoda XIVasr oxirlarida bir kun to'satdan Bursadan g'oyib bo'ladi. Avvaliga u Xurosonga borib, u yerdagi poytaxt Samarqandning shuhrati hakida eshitidi va o'sha shahar tarafga intiladi. Bu orada Amir Temurning yetti yillik yurishi boshlanib qoladi. Qozizoda yo'lida Temurning ulamolari qatoriga qo'shilib qolib, ular bilan orqaga qaytib, yurishda ishtirok etadi va shu ketishda o'zining Bursadagi ustoz mullo Fanoriyning "Anmuzaji ulum" asariga sharh bitadi.

U Xuroson va Movarounnahrga kelib olimlardan tahlil olib, bilimini kamolotg'a yetkazadi. Xususan u Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddin astronomiya va matematika fanlaridan chuqr ma'lumotlar oladi. Amir Temurning yetti yillik yurishi tugagach, 1404 yil yozida Salohiddin birinchi marta Movarounnahr poytaxti Samarqandga keladi. Tez orada Salohiddin Movarounnahr va Xuroson olimlari orasida "Qozizoda Rumiy" (Usmonli turklar mulki bo'lib qolgan Kichik Osiyo, ya'ni qadimgi Rim imperiyasi yerlarini Sharqdä Rum deyilar edi) nomi bilan shuhrat qozonadi.

1405 yil boshida yuz bergan Sohibqironning vafotidan keyingi Movarounnahrda hukm surgan no tinchlik Qozizodani Ulug'bek bilan birqalikda Xirota ketishga majbur keladi. Bu yerda u bir necha yil davomida bo'lajak buyuk olimga astronomiya va matematika fanlaridan saboq beradi va unda shu fanlarga nisbatan chuqu r va so'nmas mehr uyg'otadi.

Ulug'bek keyinchalik o'z "Zij"ida Qozizodani minnatdorchilik bilan "ustozim" deb tilga oladi. Ulug'bekning o'zi aytganidek, uning ustozni Qozizoda Rumiydir. Ulug'bek Samarqandda 1417-1420 yillarda Madrasa ta'sis etib, Qozizodani u yerda rais ul-muallim in nasabiga tayinlaydi va aksariyat hollarda uning darslarida o'zi ham ishtirok etadi. Ulug'bek madrasasi kvadrat shaklida bo'lib, uning to'rt tarafida darsxonasi va har bir darsxonaning o'z mudarrisi bo'lgan. Qozizoda madrasada darsga chiqquncha darsxonalarining talabalari o'z mudarrislarbi bi-lan chiqib, uni kutib turganlar.

Bir kuni qandaydir sababga ko'ra Ulug'bek o'sha to'rt mudarrisdan birini ta'zil etadi, ya'ni koyib ishdan chetlatadi. Buni eshitgan Qozizoda raddiya sifatida darsga chiqmaydi va bu hol bir necha kun davom etadi. Ulug'bek bundan ogoh bo'lib, Qozizodan ing huzuriga boradi va uning sihat-salomatligini ko'rib, uning darsga chiqmayotganin ing sababini so'raydi. Shunda Qozizoda bunday javob beradi: "Biz mudarrislikning hech bir kimsaga aloqasi va munosabati yo'q bir mansab deb bilamiz. Handa mudarrislik mansabi ta'zil joriy etilmaydigan mansabdir, deb

hisoblardik. Xolbu ki endi bu mansab ham sultonlik tasarrufida ekānligini ko'rdik. Binobarin biz ham endi o'zimizni mudarrislik amalidan forig' etdik". Ulug'bek buni eshitib, o'sha mudarrisni darhol o'z vazifasida tiklaydi va bundan buyon hech bir mudarrisni ta'zil etmasligi haqida va'da beradi. Qozizodadan esa darslarga yana chiqishini iltimos q iladi.

Qozizoda Ulug'bek madrasasida mudarrislik yillarida "sayyid as-sanad" deb tilga olinadigan Sayyid Sharif Jurjoniy nomli bir mudarris bilan mu loqotda bo'ladi. Qozizoda u kishi bilan ko'p mubohisa va munozara qilardi. Ba'zan shunday bo'lardiki, bu mubohisalarda ikkala shaxs ham bir-biriga nisbatan ovozini ko'tarar va tafovut, muxolifotga borardilar. Shunday hollarda Qozizoda Sayyid Sharifga nisbatan "matematik fanlarda qudratsiz" desa, Sayyid Sharif Qozizodaga "ta'bi matematik fanlarga mag'lub va falsafiyotga mansub" der edi. Lekin ikkisi ham bir-birining asarlarini tahrir qilar va tortishuvga sabab bo'lgan masalalarni talabalar oldiga qo'yar edilar.

Ulug'bek Jamshid Koshiydan "Ziji Elxoni" haqida va Marog'adagi kuzatishlar haqida ko'p eshitib, o'zi rasadxona barpo etish va yangidan astronomik kuzatishlarni boshlashga tashabbus ko'rsatadi. Rasadxona qurilishini Qozizoda bilan birga Jamshid Kosliy boshqaradi. Qurilish tugatilib, kuzatishlar bosylanishi bilan q Koshiy vafot etadi.

Bundan so'ng ishlarga ilmiy rahbarlik Qozizodaning zimmasiga yuklanadi. U ham kuzatishlar oxiriga yetkazilmasdan vafot etadi. Endi kuzatishlarni davom ettirish navbat Ali Qushch iga keladi va u bu ishda katta jonbozlik ko'rsatib, ustozi Ulug'bek bilan ishni nihoyas iga yetkazadi. Qozizoda bilan Jamshid Koshiylar, shubhasiz XV ast birinchi yarmida Sharq va G'arbiyeng eng buyuk olimlardan edilar. Ular ikkisining o'zaro munosabatlari do'stona edi va ular bir-biriga katta hurmat bilan qarar edilar. Xususan Qozizoda Koshiya "birodari a'zam" deb murojaat etardi.

Qozizoda Samarcanddaligida juda ko'p shogirdlar yetishtirdi. Bularning avvali va eng buyugi Ulug'bekdir. Ikkinci shogirdi Fathulloh Shervoniy bo'lib, u 1449 yili Ulug'bek o'ldirilishi bilan darhol Kichik Osiyoga ketadi va Kastamonu shahrida mudarrislik bilan shug'ullanadi. Qozizoda Samarcanda uylanib, bu nikohdan bo'lajak yirik olim Miram Chalabiyning otasi Qutbiddin dunyoغا keladi. Qozizodaning vafot etgan yili ma'lum emas. Lekin bu voqyea 1426-1436 yillar orasiga to'g'ri keladi, deb taxmin qilinadi. Olimning qalamiga mansub asarlar quyidagilardir:

1. "Risola fi-l-hisob" ("Hisob haqida risola"). Arifmetikaga doir arab tilida yozilgan risola bo'lib, unda kasr va butun sonlarning o'nlik uslublaridagi hisobi bayon etilgan. Risola 1382 yili Bursada yozilgan. Ikkita qo'lyozmasi Mashhadda imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.

2. "Sharhi mulaxxis fi-l-xay'a" ("Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharxi"). Asar Mahmud ibn Muxammad ibn Umar al-Korazmiy al-Chag'miniyning (XIII asr) "Mulaxxis fi-l-hay'a" nomli asariga arab tilida yozilgan sharhidan iborat. Sharh hijriy 1412 yili Ulug'bek uchun Samarqandda yozilgan. Risolaning 150 dan ortiq qo'lyozma nusxalari dunyodagi turli kutubxonalarda saqlanadi.
3. "Sharhi ashkol at-ta'sis". Bu risola XV asrda yashagan matematik Shamsiddin Samarqandiyning "Ashkol at-ta'sis" ("Asoslangan jumlalar") nomli geometriyaga doir risolasiga arabchada yozilgan sharhidir. Bu ham 1412 yili Samarqandda Ulug'bek uchun yozilgan. Bu risolaning ham 70 dan ortiq qo'lyozmalari bo'lib, turli kutubxonalarda mavjuddir.
4. "Risola al-jayb" ("Sinus haqida risola"). Bu risolada bir darajaning sinusini aniqlashning yangi bir usuli bayon etilgan, arab tilida Samarqandda yozilgan. Uning ikki qo'lyozmasi Istambulda Sulton Muhammad kutubxonasida saqlanadi.
5. "Dar bayoni istirohati jaybi yak daraja" ("Bir daraja sinusini aniqlash usulining bayoni haqida"). Bu risola ham oddingi risola mavzusiga bag'ishlangan va fors tilida Samarqandda yozilgan.
6. "Dastur al-amal va tas'hiq al-jadval" ("Amal dasturi va jadvallarini tuzatish"). Arabchada yozilgan va Ulug'bek "Zij"idagi bir matematik masalaning sharhiga bag'ishlangan. Birgina qo'lyozmasi Tbilisida saqlanadi.
7. "Misoxa" ("O'lchash"). Arab tilida yozilgan, yuzalarni o'lchashga bag'ishlangan risola. Bir nusxasi Mashhadda Mavlaviy kutubxonasida saqlanadi.
8. "Risola fi-l-hay'a va-l-handasa" ("Astronomiya va geometriya haqidagi risola"). Birgina nusxasi Turkiyada, Bursa shahrida caqlanadi.
9. "Sharh at-Tazkira". Nasiriddin Tusiyning "At-Tazkira" nomli arab tilidagi risolasiga sharh.
10. "Sharh Tahrir al-Majistiyy" arab tilida yozilgan. Astronomiyaga doir risola, ikki qo'lyozmasi Berlin va Londonda saqlanadi.
11. "Risola fi ilm al-hay'a" ("Astronomiya ilmi haqida risola"). Birgina qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda saqlanadi.
12. "Risola fi rub' al-mujayab" ("Sinus kvadrat haqida risola"). Arab tilida. Qo'lyozmalari Sankt-Peterburg, Mashhad va Texron kutubxonalarida saqlanadi.
13. "Lima kana halla kavni nisba irtifa' a'zam al-jibol ila kutri al-arz kanisba sub' ard sha'ira ila zira'" ("Nima uchun tog'larning eng balandining Yer diarametriga nisbati arpa donining bir gazga nisbati kabi ekanligi qabul qilingani"). Yer o'lchamiga bag'ishlangan arab tilidagi risola. Birgina qo'lyozmasi Berlinda saqlanadi.
14. "Risola fi samiy al-qibla" ("Qibla azimut haqida risola"). Qo'lyozmasi Bursada (Turkiya) saqlanadi.

15. "Sharh hikmat al-ayn". Al-Qazviniyning "Hikmat al-ayn" nomli risolasiga sharf, arab tilida. Qo'lyozmalari Bog'chasaroy (Qrim), Berlin, Dushanbe, Qozon, Qohira va boshqa ko'plab shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi.

Ulug'bek rasadxonasingin yetuk namoyandalaridan sanalgan va Ulug'bek dek buyuk olimni tarbiyalagan Qozizoda Rumiy qoldirib ketgan adabiy-ilmiy meros bugungi avlodning oltin mulki hisoblanadi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu olimning qator asarlari o'z tadqiqotchilarini hanuzgacha kutib yotibdi.

### Topshiriq:

1. Matndan sifatdosh va ravishdosh shakllaridagi so'zlarni topib yozing.
2. Matndan ko'chirma gapni topib daftaringizga ko'chiring.
3. Rumiy fanning qaysi soxasida ijod qilgan?
4. Kim Rumiyini o'z ustozи deb hisoblagan?

### ULUG 'BEK VA U NING AKADEMIYASI

Amir Temuming nabirasi, Shohruuxning o'g'li Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449) dunyoda davlat arbobi va olim sifatida malum va mashhur. Ulug'bek, 17 yoshidan boshlab to'vafot etgunicha, 39 yil Movarounnahrga hokimlik qiladi. Lekin tarixda buyuk tabiatshunos olim, munajjim va matematik sifatida dong taratgan, o'sha davrlarda tengi bo'limgan Samarqand astronomiya observatoriyasini yaratgan, o'z zamonasining yirik akademiyasini tashkil qilgan, "Ziyiji Ko'ragoni" kitobini yozib qoldirgan. Shuningdek, boshqa sohalarda ham ijod qilgan. Masalan, "To'rt ulus tarixi"ni yozgan. Bir qancha madrasa va ma'rifat maskanlarini qurdirgan. Ilmi bo'lish, ilmiy haqiqatni yechish inson uchun oliy fazilat ekanligini alohida ta'kidlagan.

Ulug'bek fanda kuzatish usuliga va ilmiy asboblarining roliga katta e'tibor beradi, ilmiy tadqiqotda matematik vositalar va mantiqiy usullar o'mini alohida qayd etadi. Uning ilmiy faoliyatining muhim fazilatlaridan biri - tadqiqotni mavhumi mulhazalardan emas, balki jonli mushohadadan boshlaganligidadir; shu asosda mavhum umumlashmalar chuqr abstraksiyalarga o'tadi.

Ulug'bekning jadvallari bayon etilgan "Zij"ida jahonda har xil xalqlar yil hisoblaridagi eralar va ularning o'zaro munosabatlari, vaqtini aniqlash, ekvator, ekliptika, azimut, kenglamta, uzunlama, umuman, samoviy jismlarning koordinatlari va harakat xususiyatlari, Quyosh va Oy tutilishlari, samoviy jismlar harakatlari tenglamalari, harakat jadvallari, yulduzlar va sayyoralar nurlari kabi masalalar tarixda qanday bo'lgan, tabiiy jismlar karakatining qonuniyatları qanday degan savollarga javob bergen. Ulug'bek astronomiyasi geosentrizmga asoslangan bolsa-da, uning

astronomiyaga tegishli matematik mulohazalari eskirmaydi va hanuz ilmning rivojiga xizmat qilmoqda.

Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishga birinchi bo'lib Yevropa olimlari alohida ahamiyat berishdi. Polyak, ingлиз, fransuz astronomlari, keyinchalik, nemis sharqshunoslari va Yevropaning boshqa yirik olimlari uning asarlarini atroficha o'rgandilar va nashr ettirdilar. O'z zamonining eng yetuk olti astronom olimlarining birinchisi deb tan olingan. Bizning asrimizda Qator olimlar Ulug'bek ilmiy ijodini o'rgandilar, ilmiy tahlil qilib berdilar.

Ulug'bek akademiyasida bir qator yirik olimlar xizmat qilganlar: G'iyosiddin al-Koshiy, Qozi zoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar. Mazkur akademiyada istagan trigonometrik funksiyalarni bir darajaning sinusi yordamida aniqlash - itaratsion algoritm - kashf etildi; "Pi" sonining eng aniq qiymati topildi va hokazo.

Ulug'bek Allohnning qudratiga ishongan. Ulug'bek, Jordano Bruno kabi ateistik duvyoqarashni tufayli o'ldirilgan, deb kelingan fikr haqiqat emas. U asosan, ijtimoiy to'qnashuvlar sababli, johil fitnachilar tomonidan o'ldirilgan, desak haqiqatga yaqinroq bo'ldi. Ulug'bek o'z vataniga 40 yilcha xizmat qildi, o'z yurtini hamda jahon fanini rivojlantirdi. Shuning uchun ham, YUNESKO Ulug'bek tavalludining 600 yilligini jahon miqyosida o'tkazdi. Xalqimizning Ulug'bekka bo'lgan ixlosi nihoyatda baland. Toshkent Davlat universiteti, Toshkent astronomiya instituti, Kitobdag'i xalqaro kenglik stansiyasi, Samarcand arxitektura-qurilish instituti va bir qancha maktablar, shaharchalar, Toshkentda metro stansiyasi va ko'chalar uning nomida. Mustaqil O'zbekistonimiz tarixida u mustahkam o'rinni egallagan.

### Topshiriq:

- 1) Mantdan mustaqil so'zlarning ma'naviy turkumlari – son, olmoshlarga 5- 10 tadan misol yozing.
- 2) Bo'lmoqfe'li ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.
- 3) Ulug'bek ilm – fanning qaysi sohalarida dong taratgan?
- 4) Uning mashhur asari qanday nomlanadi va unda nimalar aks etgan?

### NAVOIY NIZOMIDDIN MIR ALISHER

(1441-1501)

Ulug' shoir va olim, buyuk mutafakkir va davlat arbobi, o'zbek adabiyoti va adabiy tili asoschisi, xalqimiz ma'naviyati takomilining turli bosqichlarida uning ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan siymo.

Alisher Navoiy 1441 yilning 9 fevralida Temuriylar davlatining poytaxti Hirotda tavallud topgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon

kishilaridan va Temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo'lgan. U go'dakligidanoq she'riyatga va ilm olishga qiziqqan farzandiga ta'lif-tarbiya olishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qilgan. Alisher 4-5 yoshlarida shahzoda Husayn bilan birga maktabda ta'lif oladi. Bolalikdagi ta'limi izchil davom etmaydi: Shohrux mirzo (1409-1447 yillarda hukmonlik qilgan) vafotidan keyin mamlakatda tartibsizliklar boshlangani tufayli G'iyosiddin Muhammad 1449 yilda oilasi bilan Iroqqa ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Iroq yo'lida bo'lajak shoir Amir Temur va Temuriylar tarixiga oid "Zafarnoma" asarini yaratgan, bir necha Temuriylarni tarbiyalagan ulug' tarixchi Olim va Sufiy Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi, uning duosini oladi.

Abulqosim Bobur mirzo (1452-1459 yillarda hukmonlik qilgan) 1452 yilda Hirot taxtiga o'tirganidan keyin G'iyosiddin Muhamrnadni Sabzavor shahriga hokim etib tayinlandi. Biroq, u oradan ko'p o'tmay vafot etganidan keyin Abulqosim Bobur mirzo Alisher va Husaynni Mashhad shahriga olib ketadi. O'spirin Alisher bu yerda adabiyot bilan birga mantiq, riyozat, tarix va falsafa ilmini ham qunt bilan o'rganadi, ilk g'azallarini bitadi.

Navqiron Alisher Sulton Abu Said mirzo (1459-1469 yillarda hukmonlik qilgan) Temuriylar davlatini, ya'ni Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan davr (1460-1469)da ancha muddat (1466-1469) Samarqandda yashaydi, zamonasining yetuk olimlaridan, shu jumladan, Fazlulloh Abu Laysdan ta'lif oladi. Turkistonning turli shaharlari va qishloqlari turmushi, naqshbandiya va boshqa sufiylik tariqatlari vakillari hayoti va dunyoqarashi bilari yaqindan tanishadi.

Bir necha yillik sarson-sargardonlik va kurashlardan so'ng Xuroson taxtini egallagan Sulton Husayn Boyqaro mirzo (1469-1506 yillarda hukmonlik qilgan) Alisher Navoiyni Hirotga chorlaydi va muxrdor lavozimiga tayinlaydi. 1472 yildan davlatdagisi oliy ijroiya mansabi -vazirlik lavozimiga tayinlangan Alisher Navoiy ham ba'zi husumatchilarining g'arazi va hasadi, ham mintaqadagi og'ir siyosiy va iqtisodiy ahvolni bartaraf etishni istagan hukmdorning yuksak ishonchi bilan 1487 yilda Kaspiy dengizi va turkman dashtlariga yaqin Astrobodga hokimlik vazifasiga tayinlanadi.

Astrobodda hokimlik qilgan kezlarda (1487-1489) Alisher Navoiy xuddi 1469-1487 yillarda oliy davlat lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan davridagi singari xalq turmushini yaxshilash uchun bor kuchini ayamadi. Obodonchilik ishlariiga bosh-qosh bo'ldi, o'z mablag'idan rabotlar va ko'priklar, xonaqolar va masjidlar, maktabxonalar va madrasalar, hammomlar va shifoxonalar, binobarin, majmua tarzida barpo ettirdi, muhtojlarga xayr-ehson ulashdi, olimlar va shoirlar, muarrixlar va musavvirlarga homiylik qildi. Alisher Navoiy butun umrini Temuriylar davlatini mustahkamlashga, mustaqilligi va hududiy butunligini saqlashga, mamlakatda tinchlik va birdamlik o'matilishiga bag'ishladi.

Alisher Navoiy xastalikdan so'ng 1501 yil 3 yanvar kuni ona shahri Hirotda vafot etdi. Butun mamlakatda motam e'lon qilingan. Janozasini ulug' ilohiyotshunos va adabiyotshunos olim Husayn Voiz Koshifiy o'qigan.

Zamonasida kechran deyarli barcha siyosiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan Alisher Navoiydan ulkan adabiy, ilmiy va ma'rifiy meros qoldi. Saqlangan qo'lyozma manbalarga ko'ra o'ziga qadar va o'zidan keyin yashab o'tgan istalgan mumtoz turkey adabiyot vakilidan ko'proq badiiy meros sohibi bo'l mish daho shoir 30 dan ortiq asarlar yaratgan.

Bular: "Xazoyin ul-maoni" (Ma'nolar xazinası, jami oldindi ikki devonini ham o'z ichiga olgan to'rt devondan iborat, 1469, 1491-1498) kulliyoti; "Xayrat ul-abror" (Yaxshi kishilar hayrati, 1483), "Layli va Majnun" (1484), "Farhod va Shirin" (1484), "Sabayi sayyor" (Etti sayyora, 1484), "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori, 1485) dostonlardan iborat "Xamsa"si; "Vaqfiya" (yirik mulk sohibi Alisher Navoiyning o'z zamondoshlariga maktublarini va vaqf hujjatlarini qamraydi, 1482); "Nazm ul-javohir" (Hikmatli so'zlar manzumasi, 1485); "Tarixi anbiyo va hukamo" (Paygambарlar va tabiblar tarixi; din va tibbiyot tarixidagi buyuk shaxslar hayotidan umumtarixiy risola, 1488); "Siroj ul-muslimiy" (Musulmonlar chirog'i, 1488); "Xoloti Sayyid Hasan Ardasher" (Sayyid Hasan Ardasher hayotidan lavhalar, 1490); "Majolis un-nafois" (Nafis majlislar, tazkira, 1490); "Mezon ul-avzon" (Vaznlar o'chovi, 1492); "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" (Javonmardlik bog'laridan esgan muhabbat yillari; Shayx Farididdin Attor (1148-1231) qalamiga mansub "Tazkirat ul-avliyo" (Valiyalar zikri, 1188) tazkirasi, shuningdek, asosan ustozi va do'sti Abdurahmon Jomiy (1414-1498)ning "Nafahot ul-uns min al-hadoyiqi qudsiya" (Sharaflangan valiyalar bo'stonidan kelgan birodarlik nasimlari; Abdurahmon Jomiy 1478-1482 yillarda yaratgan ushbu avtobiografik asarda jami 662 valiy hayoti va karomatlari zikr etilgan bo'lsa, Alisher Navoiy uni to'la tarjima qildi va turkiy valiyalar haqidagi qimmatli ma'lumotlar bilan to'ldiradi; 1496) manoqibi; "Muhokamat ul-lug'atayn" (Ikki til bahsi, 1499); "Lison ut-tayr" (Qush tili, 1499-1500); "Mahbub ul-qulub" (Ko'ngillar suyuklisi, 1500) kabi asarlarining yuzlab qo'lyozmalari jahoning turli nufuzli qo'lyozma fondlarida va kutubxonalarida saq langan, butun dunyo adabiyotshunoslari tomonidan tadqiq etilgan.

Alisher Navoiyning ulkan merosi adabiyot va adabiyotshunoslilik, falsafa, siyosatshunoslik, axloqshunoslik, tilshunoslik, tarix va boshqa ko'pgina sohalardagi umumiyy va juz'iy muammolarni qamraydi. Mutafakkir shoir asarlarida Borliq va uning mohiyatini, narsalar va hodisalami idrok qilish, davlat, davlatchilik va boshqaruvs usullari, inson va uning jamiyat va olamdag'i o'rni, yetuk va adolatli jamiyat, ijtimoiy birdamlik kayfiyati, kornil inson. xush axloq, yaxshi xulq-odob va mukammal ta'lim-tarbiya haqida zamonasida qimmatli va o'zidan keyingi davrlar uchun barhayot ilg'or umuminsoniy g'oyalarni ilgari suradi.

Daho shoir haqiqatni bilishga oid qarashlarini ma'joziy va ramziy timsollar va tushunchalar vositasida bayon qilgan. Uning dunyoqarashi butun islam Sharqida keng tarqalgan "vahdan ul-vujud" (Borliq, ya'nii Yaratuvchi va yara tilganlarning birligi) ta'llimotiga asoslangan. Inson, Alisher Navoiy talqinida, mavjudotlar orasida a'losi, Tirkilik gultoji. Xususan, "Xamsa" dostonlarida mukammal davlat, adolatlilik hukmdor va jamiyat, kishilarni baxt-saodatga etuvchi fozil va odil shoh timsollarini yaratadi, xalqning orzu-niyatlari va o'y-fikrlarini batatsil bayon etadi. Binobarin "Xamsa" dostonlari, Shayx Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy "Xamsa"lari qatorida Alisher Navoiyga cha va undan keyin yaratilgan xuddi shunday dostonlar ichida eng mukammalli deb tan olingan, jahon adapbiyotining tengi yo'q asarlar sirasiga kiradi, o'zbek adapbiyoti, shuning barobari da ozarboyjon, turk, turkman, tatar, qozoq adapbiyotining keyingi asrlardagi taraqqiyoti ga katta ta'sir ko'rsatgan.

Alisher Navoiy tasavvufning naqshbandiya tariqatida undagi komil e'tiqod, mehnatsevarlik, halollik, javonmardlik kabi qadriyatlarga sodiq qoldi, butun islam Sharqida keng tarqalgan tariqatning g'oyalarini hayoti va ijodiga izchil tatbiq etdi. Muhimi, ana shunday ilg'or maskuraviy asosga tayanadigan asarlarini eski o'zbek, ya'nii turkiy tilda yaratish asnosida uni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi, badiiy ijodiyotda turkiy tilning imkoniyatlari xuddi fors tiliniki singari bitmas-tuganmas ekanligini amalda isbotladi.

O'zbekistonda Alisher Navoiy nomi e'zozlanadi: mamlakatimizdagi hududiy-mamuriy birlikkaldan biri bo'lgan Navoiy viloyati, shu viloyat markazi, ilmiy tadqiqot instituti, oliy o'quv yurtlari, katta akademik teatr, boshqa muassasalar va tashkilotlarga ulug' shoir nomi berilgan. Shu nomda davlat mukofoti ta'sis etilgan. Alisher Navoiyning ijodiy mevosivahoyotlagishaxsiyibratlario'zbek xalqima'naviyatiga eranta'sirko'rsatgan vako'rsatmoqda.

### Topshiriq:

- 1) Matndan mustaqil so'zlarning ma'noviy turkumlari – fe'l, ot, sifatlarga 4-5 tadan misol toping.
- 2) Uchun, kabi bog'lovchilari ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.
- 3) Navoiy davlat arbobi sifatida qanday ishlarni amalga oshirgan?
- 4) Alisher Navoiy qaysi tillarda ijod qilgan?
- 5) Uning mashhur asarlarini aytинг.

### XAMSA

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy "Xamsa"lariga bir butun, yaxlit asar sifatida qaradi, o'zbek tilida turli mavzularda mustaqil dostonlar

emas, balki bir-birini g'oyaviy - badiiy jihatdan ma'lum darajada to'ldiradigan. yaxlit bir asar deb hisoblanishi va "Xamsa" deb atalishi shart bo'lgan dostonlar maj muini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Bunga qadar Navoiy o'z lirik she'lari bilan tanilgan "Badoye'ul- bidoya" va "Navodir um-nihoya" devonlarining muallifi sifatida mashhur edi. Navoiy 42 yoshida "Xamsa"ning birinchi dostoni - "Hayrat ul abror"ni yozishga kirishdi va shu yiliyoq uni tugallab, "Farhod va Shirin" dostonini boshladi. 1484 -yilning boshlariда "Farhod va Shirin", shu yilning fevral- mart oyalarida "Layli va Majnun", bahor va yoz oyalarida "Sab'ai sayyor", 1485 - yilning o'rtalarida "Saddi Iskandariy" dostonlari qo'ldan chiqdi.

Besh doston yozishni o'rta asr ulug' shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1203) boshlab berdi. Natijada sharq adabiyotida yangi sahifa ochildi. Shoир yaratgan asar "Xamsa" nomini olishi uchun dostonlarning soni beshtaga yetishining o'zi kifoya qilmasdi. balki ularning nomlari, janri, mavzui, obrazlari va kompozitsiyalari ham Nizomiy dostonlariga mos tushishi, lekin bu asaring qaytarig'i yoki taqlidiy nusxasi bo'lmasligi talab etilardi.

Faqat Xusrav Dehlaviy (1253-1325), Abdurahmon Jomiy (1414- 1492) va Navoiygina Nizomiy Ganjaviy qatoridan o'rın olishga tuyassar bo'ldilar.

### Topshiriq:

- 1) Matndan ko'rsatish olmoshlarini ajratib yozing.
- 2) Notani sh so'zlar lug'atini tuzing.
- 3) Alisher Navoiygacha qaysi shoirlar "Xamsa" ni yoritgan?
- 4) "Xamsa" necha dostondan iborat?

### ABDURAHMON JOMIY

(1414-1492)

Ulug' fars-tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy 1414- yil 7 -noyabrda Xurosonning Jom shahrida shayxulislom - Nizomiddin Ahmad oilasida tug'ilgan. Jomiy go'dakligida uning oilasi Hirotga ko'chib boradi. Shoир dastlab maktabda, keyin Hirotdagi Dilkash va Samarqanddagi Ulug'bek madrasalarida ta'lim oladi. Mavlono Junayd qo'llida, keyinroq Shahobiddin Muhammad Jejarmiy va Aloiddin Ali Samarqandiylardan ta'lim olgan. Abdurahmon Jomiy Samarqandga kelib Qozizoda Rumiy darslariga qatnashgan.



U til, adabiyot, falsafa, matematika, astronomiya, huquq va boshqa fanlar bilan shug'ullangan. Din va tasavvufni sinchkovlik bilan o'rgangan. Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariydan tasavvuf bo'yicha ta'lif olgan.

Abdurahmon Jomiy 1492 -yil 8 -noy abrda Hirotda vafot etgan. Abdurahmon Jomiy Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonining muqaddimasida filga qiyoslab madh etilgan. Asarlari: «Xaft av rang» («Yetti taxt», dastlab «Xarmsa»), Unga «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir», 1472), «Salomon va Absol» (1480-81), «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilarning tuhfasi», 1481-82), «Sabhat ul-abror» («Yaxshi kishilarning tasbih», 1482-83), «Yusuf va Zulayho» (1483), «Layli va Majnun» (1483), «Xiradnomai Iskandariy (1485) kabi dostonlar kirgan), «Bahoriston» (o'g'li Ziyoruddin Yusuf uchun yozgan), «Aruz haqida risola», «Arab tili darsligi», «Ruboiy sharhi», «Munshaot», «Qofiya haqida risola», «Naqshi fusus» («Javohirlar naqshi»), «Lujjat ul-asror» (qasida), «Nafohatul-uns («Do'stlik tarovati») va boshq.

### Topshiriq:

- 1) Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- 2) Abdurahmon Jomiy ijodi ga mansub asarlar ro'yhatini tuzing.

## KOSHIFIY HUSAYN VOIZ

Koshify Husayn Voiz (taxallusi; asl ismi Kamoliddin; Voiz — laqabi) (taxm. 1442/46, Sabzavor qishlog'i — 1505, Hiro) — notiqlik sanati namoyandasasi va nazariyotchisi, mutafakkir, ilohiyotchi olim. Arab, fors, turk tillarini yaxshi bilgan, matematika, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fikhdan to 'la ma'lumot olgan. Yoshligidan voizlik bilan shug'ullangan. Nishapur Mashhadda (1455—68), keyinchalik Hirotda (1468 y.dan) yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan. Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilgan, unga bag'ishlab asar yozgan ("Mavoqibi oliya" — "Oliy tuxeralar"). Falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar muallifi. Axloq haqidagi eng mashhur asarlaridan biri "Axloqi muxsiniy" ("Yaxshi xulqlar") Husayn Boyqaroning o'g'li Abulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan. "Futuvvatnomai sultoniy yoxud juvonomardlik tariqati" asari o'zbek tilida vashr etilgan (1994). Koshifyning 45 nomdag'i asarlarining 197 qo'lyozma va 75 toshbosma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

### Topshiriq:

- 1) Matindan ot so'z turkumiga oid so'zlami ajratib yozing.
- 2) Koshibiy yaratgan 200dan ortiq asarlar qaysi fanlarga taalluqli?

### XOJA AHROR VALIY (1404-1452)

**Xoja** Ubaydulloh Ahror Valiy Naqshbandiya tariqatini o'z davrida rivojlaningan shayxdir. U 1404 yilda Toshkentda tug'ilgan, bolaligi va yoshligi ona shahrida kechgan. Yosh Ubaydullohning tarbiyalanishi va ta'llim olishida tog'asi Xoja Ibrohim katta rol o'yangan. 1427 yilda Xoja Ahror Samarqandga keladi. 1428-1433 yillarda Hirotda bo'ladi.

Manbalarning dalolat berishicha. Xoja Ahror 1451-1452 yillarga qadar Toshkent atrofi va uning tevaragidagi manzillarda yashagan. Abdurahmon Jomiy Xoja Ahrorni «Ka'bai maqsud» deb bilgan bo'lsa, Navoiy uni «Tariqat qutbi» deya ta'riflaydi. Zahiriddin Bobur esa shayxni «Hazrati Xoja Ubaydulloh» tarzida ulug'lagan.

### Topshiriq:

- 1) Matindan o'tgan zamон fe'llarini ajratib, hozirgi zamон fe'liga aylantiring.
- 2) Xo'ja Ahror Valiy haqida manbalarda qanday ma'lumotlar keltirilgan?

### ALI QUSHCHI (1403-1474)

**Mavlono** Aloiddin Ali Ibn Qushchi Samarqandi y-mashhur astronom, Ulug'bekning qobilyatli shogirdi, zabardast olim, o'tkir mutafakkir edi. Ali Qushchining ilmiy-tabiyy va falsafiy qarashlari muhim ahamiyatga egadir. Uning 16-17 asarlarida orta va Yaqin Sharq mamlakatlarda matematika fanining rivojlanishida ta'sir ko'rsatgan "Arifmetikaga oid risola", "Kasr sonlar haqida risola", "Al Muhammadiy risolasi" kabi asarlari bor.



Olim arab, fors tillarini mukammal bilgan. Ali Qushchi falsafa, huquq, adabiyot, tarihga oid kitoblarga ham ko'p sharhlari bitgan.

### Topshiriq:

- 1) Ali Qushchi qanday sohada izlanishlar olib borgan?

## DAVLATSHOH SAMARQANDIY

Davlatshoh Samarqandiy (toliq ismi Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh assamarqandi) (taxm. 1436/37—95) — o'zbek shoiri, adabiyotshunos va davlat arbobi. Otasi Shohruxonning nufuzli amirlaridan bo'lgan.

Davlatshoh Samarqandiy zamona nasining yirik olimi Fazlulloh Samarqandiy qo'lida tahlis ko'rgan. 1480- yilgacha saroy xizmatida. Umrining oxirlarida saroy va harbiy xizmatlarni tark etib, ijod bilan shug'ullangan.

Turkiy va forsiyda yozgan. Davlatshoh Samarqandiyiga shuhrat keltirgan yirik asari "Tazkiran ush-shuaro"dir ( "Shoirlar tazkirasi", 1486 yilda yozib tugallangan ). Tazkiralari Alisher Navoiyga bag'ishlangan bo'lib, juda ko'p ilmiy tarixiy manbalar asosida yaratilgan. Asar muqaddima, yetti bob (tabaqa) va xotimadan tashkil topgan. Muqaddimada asarning yozilish sabablari hamda Labid (7-a.), Mutanabiy (915—965), Abu A'lo al-Maariy (973—1058) kabi 10 nafar mumtoz arab shoir haqida yozilgan, asosiy boblarda esa 10—15-asrlarda Mavarounnahr, Xuroson va qo'shni mamlakatlarda yashab ijod etgan 150 dan ortiq shoir va olimlar faoliyati tadqiq etilib, ularning tarjimai holi haqida ma'lumot va asarlardan namunalar keltirilgan.

Tazkiraning xotima qismida Davlatshoh Samarqandiy bilan zamondosh bo'lgan Jomiy, Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suhayliy, Xoja Shahobiddin Abdulla Marvari hamda Xoja Osafiyalar haqida ma'lumot berilgan. Tazkira 10—15-a. lardagi adabiy jarayon, uning namoyandalari hayoti, ijodini hamda madaniy, ilmiy va tarixiy sharoitni o'rganishda muhim manba.

"Tazkiran ush-shuaro" Hindiston (1887, 1924), Angliya (1901), Tehron (1958, 1960) da to'liq nashr etilgan. Ayrim qismlari rus, ingliz, fransuz, nemis, turk, o'zbek tillariga tarjima qilinib, chop etilgan Davlatshoh Samarqandiy ijodini o'rganish 15-asrda Alisher Navoiy tomonidan boshlangan. Keyinroq ingliz (Braun E.), nemis (Hammer), fors (Muhammad Abbosi, Muhammad Ramazoniy, Ahmad Gulchin Maoniy), rus (E.Ye. Bertels), o'zbek (N. Mallayev, B. Ahmedov) olimlari Davlatshoh Samarqandiy ijodini o'rgandilar.

### Topshiriq:

- 1) Mandan quyidagi jadvalning har bir ustunchasiga matndan 3-5 tadan so'z topit, qo'shimchalari bilan yozing.

Otlar	Sifatlar	Sonlar	Fe'llar	Ravishlar	Olmoshlar


- 2) Hamda bog'lovchisi i shirok etgan gaplarni ko'chiring.
- 3) Samarqandiy shoir va adabiyotshunos olim sifatida qanday asarlar yaratgan?
- 4) Eng mashhur asari qaysi va kimga bag'ishlangan?

**HUSAYNIY (Husayn Boyqiro)**  
(1438 - 1506)



Taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug'ilgan. 1469 yildan umrining oxirigacha Xuroson podshohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning muktabdosh do'sti va homiysi. Badiiy ijod bilan shug'ullanib, g'azalnavis shoir sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Boburning xabariga ko'ra, devoniidagi g'izallari aksariyat bir vaznda (ramali musammani maqsur) yozilgan.

G'azallarida danyoviy muhabbatni kuylagan, betakror satrlar yaratgan. "Risola" nomli nasriy asarida Navoiy ijodiga keng va ob'yektiv baho berган. Husayniy asarlari O'RFA Shıjamg' armasida saqlanadi.

#### Topshiriq:

- 1) Bilan, va bog'lovchilar i shirok etgan gaplarni rus tiliga tarjima qiling.
- 2) Koshiy buyuk matematik va astronom sifatida qanday asboblar yaratgan?

## KA MOLIDDIN BEHZOD

(1455 — 1536)

Sharq musavvirlig (rassomlik) san'atida yorqin yulduz bo'lib porlagan allomalardan biri — Kamoliddin Behzod. U o'z zamondoshlari tomonidan musavvirlar peshvosi, muzahhiblar yetakchisi, ustozi deb e'tirof etilgan. «Ikkinch Moniy» degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan, Yevropada «Sharq Rafaeli» deb tan olingan.

Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda tug'ilgan, shu yerda o'sib, shu yerda musavvir sifatida shakllangan. Tarixchilarining yozishicha, yosh Behzodni taniqli musavvir Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olgan. Yosh rassom o'zidan oldin o'tgan musavvirlar an'analarini organdi, uni yanada rivojlantirdi, boyitdi, kamolga yetkazdi. Bunda mutafakkir Alisher Navoiyning murabbiylilik faoliyati ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Navoiyning kutubxonasida zamonasining yetuk san'atkor (musavvir va xattot)lari ijod bilan band bo'lganlar. Behzod ana shu muhitda kamol topgan. Behzod rassom sifatida tanilgach, Sulton Husayn Boyqaro saroyiga xizmatga chaqirildi.

Ma'lum vaqtidan so'ng saroy kutubxonasining rahbari etib tayinlandi. Keyinchalik «Behzod akademiyasi» deb atalgan bu yerda qizg'in ijod bilan band bo'ldi, ko'plab mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishga rahnamolik qildi, ma'lum qismini ziynatalashda shaxsan ishtirok etdi. Bir qator zamondoshlarining (Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon) portretlarini chizdi. 1520-yilda safaviylar shohi Shoh Ismoil Behzodni o'g'liga rasm o'rgatish uchun Tabrizga taklif etadi, keyinchalik o'z kutubxonasi dagi barcha kitobat ahli (kotib, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, halkor, zarko'b va boshqalar)ga mutasaddi qilib tayinlaydi.

Behzod ko'p yillar Tabrizda Sulton Muhammad, Og'a Mirak, Mir Mansur kabi musavvirlar bilan hamkorlikda ijod qildi. Tarixiy ma'lum otlarga ko'ra Behzod hayotining oxirida Hirotga qaytgan va shu yerda vafot etgan.

O'z faoliyati va ijodi bilan musavvirlik (miniatyura) san'atining keyingi taraqqiyotini belgilab bergen Behzod o'z zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan. Uning asarlari arida tabiat jonli, hayot manzaralari antiq, haqqoniy, ishonarli va ta'sirchan tasvirlangan. Chiziqlar nozik, ranglar nafis ishlangan. Portretlarda inson, uning ruhi, qiyofasi, his-tuyg'ularini aks ettirishga ahamiyat bergen. Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», Farididdin Attorning «Mantiq ut tayr», Nizomiy, Xisrov Dehlaviy, Alisher Navoiylarning «Xamsa», Sharafiddin Ali Yazdiyining «Zafarnoma» kabi asarlariiga miniatyuralar ishlagan. Behzod asarlari bilan bezatilgan qo'lyozmalar O'zbekiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Eron, Rossiya va boshqa davlatlardagi kutubxonalar, qo'lyozma fondlari, muzeylar va shaxsiy majmuvalarda saqlanadi.

Behzod o‘z ijodi va faoliyati bilan sharq miniatyura san’ati xususiyatlarini saqlagan holda, uni yangi ijodiy an'analar, mazmun va yangi mavzular bilan boyitdi. U an'anaviy maishiy lavhalar, uchrashuvlar, jang lavhalari, ziyofat, rasmiy qabul marosimlari, qal'a qamali kabilalar bilan bir qatorda masjid qurilishi. ariq qazish, bog' bunyod etish kabi mavzularda asarlar yaratdi. Shuningdek, zamondoshlarining qiyofalari aks etgan portretlar ishladi.Behzod ustoz san'atkor sifatida Hirot va Tabrizda bir qancha shog irdlarni tarbiyalagan.

Qosim Ali, Darvish Muhammad, Maqsud, Muzaffar Ali, Mahmud Muzahib kabi shogirdlari Behzod an'analarini O'rta Sharqqa yoyib, Behzod miniatyura maktabini shakllantirdilar

O'zbekistonda Behzod an analari 20-asrga kelibUstoMo'min (A.Nikolayev), Sh. Hasanova, Ch. Ahmarov, Q. Basharov, T. Muhammedov, T. Sa'dullayev, J. Umarbekov, Sh. Muhamadjonov kabi rassomlar ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Behzod ijodi va merosi keng o'rganilmoqda. Uning nomini abadiylashtirib Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilgan (1997). Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berilgan. Toshkentda Behzod nomidagi memorial bog'ga asos sol ingan.

#### Topshiriq:

- 1) Matndan atoqli otlarni ajratib yozing.
- 2) Kamoliddin Bekzod hoyoti haqida ma'lumot bering.
- 3) "Bekzod akademiyasi" haqida nimani bilasiz?
- 4) Notanish so'zlar lug'atini tuzing.

## XVI-XX ASRD A YASHAB IJOD QILGAN ALLOMALAR

### BOB UR ZA HIRIDDIN MUXAMMAD

(1483, Andijon -1530, Agra) – o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi olim, temuriy hukmdorlarning mashhur namoyandalaridari biri, "Buyuk mo'gollar imperiyasi" deb nom o'sgan va Hindistonning yarmidan ko'pini egallab turgan boburiylar davlatining asoschisi. Otasi Umarshaix Mirzo Amir Temurning evarasi, Fargona viloyatining hokimi bo'lgan. Onasi Qutlug' Nigor xonim Toshkent hokimi Yunusxonining qizi.

Bobuming bolaligi asosan Andijon va uning atroflarida o'tdi. U saroy muhitida o'qidi va tarbiya topdi, yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqsa boshladi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" (sher) laqabini olgan.

Otasining vafotidan keyin o'n ikki yoshida taxtga chiqadi. 1504 yilda Amir Temur imperiyasini qayta tiklash uchun olib borgan ko'pyillik kurashi kutilgan natijani bermagandan so'ng, Afgon istonga o'tadi va u yerda tarqoq afg'on va turk qabilalarini bo'yundirib, 1508 yilda o'zini rasmiy ravishda ularning podshohi deb e'lon qiladi.

O'z davlatini kengaytirish va mustahkamlash uchun kurashib, Hiridistonga vaqtiga bilan hujum qilib, uni jiddiy o'r ganib boradi va nihoyat, 1526 yilda Dehli yaqinidagi jangda 12 ming askari bilan 100 mingtacha askar, ikki ming harbiy filga ega hind podshosini yengadi, jangda birinchi marta porox ishlataldi, o'zining o'tkir lashkarboshi ekanligini ko'rsatadi. Bobur o'z davlati poytaxtini Hindistonga ko'chiradi, u yerdagi tarqoqlikka barham beradi, yangi hududlarni bosib olingan yer deb qaramaydi. Mamlikat iqtisodi, madaniyati va mavqeini ko'tarish uchun astoydil g'ayrat bilan, keng miqyosda ish olib boradi, olimlar, fozillar va oriflarni o'z atrofiga yig'adi, to'rt o'g'li hamda uch qizini shu ruhda tarbiyalaydi.

1525-1530 yillarda u o'zining she'riy ijodini davom ettirdi, o'zbek tili va adabiyotining durdonalaridan biri "Boburnoma" asarini yaratdi. U Hindistonda vafot etdi va vasiyatiga ko'ra, Qobulda dafn etilgan (hozirgi "Bog'i Bobur" ziyoratgohi). Bobuming hayoti va ijodi, faoliyati O'zbekiston mustaqilligiga, yurtimizning milliy tizlanish g'oyalariga xizmat qilmoqda. Bobur xalqimizning faxridir.

#### Topshiriq:

1. Matndan ko'rsatish o'moshlarini ajratib yozing.
2. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Zahiriddin Muhammad Boburning taniqli asari qanday nomlanaadi?

## MUHAMMAD SULAYMON O'G'L FUZULIY (1498 - 1556)

Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy Sharqning mashhur shoiri, ozarbayjon xalqining buyuk mutafakkiridir. Fuzuliyning otasi Sulaymonning bir vaqtlar Ozarbayjonning Arash degan joyidan Karbaloga ko'chib borib qolganini naql qiladilar. Fuzuliy 1498 -yilda Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Fuzuliy dastlab maktabda, keyin esa madrasada (Bag'dodda) ta'llim oldi, tarix, meditsina, astronomiya, geometriya, mantiq va boshqa fanlар bilan shug'ullangan.



Maktab yoshidayoq she'r yozishni mashq qila boshlagan Fuzuliy mohir va jo'sh qin lirk shoir bo'lib yetishdi. Shoirning nomi buyuk Navoiy nomi bilan hamisha yonma-yon kelgan, devoni asrlar osha Navojyniki bilan bir qatorda maktab-madrasalarda o'qitib kelingan. Darvoqe, uning o'z ustozi Habibiyning qizini yaxshi ko'rib qolganini, unga atab she'rlar yozganini naql qiladilar. Shoir 1556- yilda vabo kasal idan vafot etgan.

Uning o'g'li Fazliy taxallusi bilan she'rlar yozganligi ham ma'lum. Shoir bir she'rida uch til - turk, arab, fors tillarining shuhratini o'z asarlari bilan olamga yoygan uch buyuk dahoni: Abu Nuvos, Nizomiy va Navoiyni tilga olgan. Fuzuliy g'azalga alohida ixlos va muhabbat bilan qaradi, uni iste'dodga mezon deb bildi.

G'azaldur safobaxshi ahli nazar,  
G'azaldur guli bo'stoni hunar  
G'azal bildirur shoirning qudratin,  
G'azal orttirur noziming shuhratin,

- deb yozgan edi shoir. Fuzuliyning juda ko'p g'azallari, shu jumladan

Shifo yi vasi qadrin, hajr ila bemor o'landin so'r,

Zulol i zavq-shavqin tas hnai diydor o'landan so'r

- misralari bilan boshlanuvchi g'azali mashhuri. Fuzuliy XVI asr turkiy she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan zabardast lirk shoirdir. Shoir vafotining 400 yilligi munosabati bilan 1958- yili devoni, 1968-yilda Xolid Rasul tashabbusi bilan ikki jildlik asarlari nashr etilgan. Asarlari: «Laylovu Majnun» (1537, turkiy tildagi doston), «Haftjom» «Anisul qalb» («Qalb do'sti»), «Matla' ul-etiqod» («E'tiqodning boshlanmasi»), «Rindu zohid» kabi falsafiy dostonlar, «Sixxat va maraz», «Bangu Boda» («Nasha va may»), «Suhbat ul-asmor» («Mevalar suhbat») kabi majoziy asarlari, «Shikoyatnomalar» (nasriy asar) va boshqlar.

### **Topshiriq:**

- 1) Uyushiq bo'lakli gaplarni topib, daftaringizga yozing.
- 2) Matndan notanish so'zlarni yozib, lug'atini tuzing.
- 3) Fuzuliying hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
- 4) Shoyiming 400 yilligi munosobati bilan qanday ishlar amalga oshirildi?

### **ZEBINISO (1639-1706), DILSHOD - BARNO (1800-1905), ANBAR – OTIN (1870-1915)**

Zebiniso Boburning avlodlaridan biri hisoblanadi. U Deli shahrida tug'ilgan. Yoshligida shoira, ma'lumotlikni o'z vaqtida buyuk domlalardan biri Xofizdan o'rgangan. Shoira va olimlardan tarbiya olgandan keyin u arab tilini, sheriy toplamni vamusiqiy sa'natni huquqshunoslikni va mantiqni o'rganib, falsafa va tarix fanlariga ishtiyobi uyg'onadi. Zebiniso atrofdagi dunyosiga qarab, o'sha davrdagi hukumronlik qilgan va odam erkinligiga zid keluvchi omillarga qarshi o'z fikrini bildirgan. Shoiraxalq bilan bog'liqligini his etib „Garchi men shoh farzandiman. Yuzim mani gadoylarga qaralgan“-dedi. U xalqlar qalbida insoniylikni kuylaydigan, hayat va tabiatni sevuvchi shoira sifatida qolgan. Shoiraning she'riyatlari bobokalonlarning ona yurtiga ham yetib kelib, o'zbeklar ichida ham o'z o'mini topgan. Shoira o'z zaminiga xos fors-tojik tillarida she'r yozgan.

Uning sheriyatları Hindistonda, Eronda, Avg'onistonda va O'rta Osiyoda ham mashhur.

Dilshod va Anbar-otin bir-biriga yaqin bo'lgan davrlarda yashagan. Dilshod Istravshanda (Xozirgi Tojikiston O'ratega qishlog'ida) tug'ilgan. 17 yoshida Qo'qon xonligi Istravshanga hujum qilganda u Qo'qonga surgun qilingan va uni umri o'sha yerda o'tgan. She'riyatda shoira she'riyatda o'z aksini topib, o'zining yurtiga bo'lgan eng iliq tuyg'ularini qog'ozga tushiradi. Ikki do'st xalq orasida Dilshod o'zbeklar hamda tojiklar orasida sevimli shoira bo'lgan.

She'riyatning mazmuni 19-asrning yarimidagi she'riy turkumlarga o'xshash bo'lgan.

Hozirgi kunda Dilshoddan lirik asarlar hamda avtobiografiya turiga xos „Ko'chmanchi xalq, tarixi“ asarlari yetib kelgan.

Dilshod xofiz va Navoiylar tahlil olganini g'ururlanib aytardi. Dilshodning lirik asarlarida insoniylik, hayotdan mamnun va xalqnı sevish haqida ko'p yozgan. Uning asarlarida yorqin kelajak haqida orzu-umidlari, she'riyatlarida insonilik buyukligi haqida yozilgan.

Taqdirimga nur yoyilsin mening- bir orzu bilan to'ladir hayot,

Inson taqdiri qo'shig'l kabi, kuylayin men hayot!  
 Sevishganlar jo'shqinidan yorqinroq, yorug'likdan yorqin hayot,  
 To'liq guldon kabi, oshib toshibu bu hayot.  
 Quyosh nuri kabi, tongimiz to'liq bo'lsin hayot!

Hayotdan mammunlik qirralarini Dilshod shogirdi Anbar-otin she'riyatlarida ham ko'rganmiz. Dilshod boshchiligidagi Anbar-otin tarixini adabiyotni va yoshlik yillardayyoq o'z iqtidorini she'riyatda qo'llagan. Keyinchalik u demokratik oqim sifatida Muqimiyl, Furqat, Avaz va boshqa shoirlar bilan ko'p to'qnashgan.

Anbar-otining qisqa umri fojiali o'tgan. Uning she'rlari feodal urf-odatlari xavflarini oshkor qilib, bu hol g'azablantirib, Uni yaxshilab kaltaklashadi. Ikkala oyog'ining paralichi uni butun umrga o'ringa mixlaydi. Ammo uning ruhiyati so'nmaydi va porloq kelajak haqidagi sa'natini davom ettiradi.

Shoiraning adabiy me'rosiga lirik she'rlar „Qoralar falsafasi“ traktati kiradi. Ichki mantiqiy joylari bilan Anbar-otin san'atlari Dilshod san'atlari bu bir qatorda turib uni rivojlanishi va davomiyligi sanaladi. Dilshod kabi, Anbar-otin O'rta Osiyo Rossiya qo'shilganidan so'ng kelajagi buyukligiga ishongan. Dilshod va Anbar-otin davlat boshqaruvini ko'p yomonlagan. Ularning ikkalasida ham satiraga bog'liq she'riyalar bor.

Anbar-otin o'zbeklar hamda ruslar orasidagi do'stona munosabati kuchayishini juda orzu qilar edi. Shoir ma'naviyat g'oyalariga sodiq bo'lib, uni xalqqa kerakligini ta'kidlab o'tgan. U insonlarning teng huquqliligi, sevgi muhabbat, ona yurtiga muhabbati haqida yozgan:

Inson shuni biliishi kerakki,  
 Vatan ona kabi siypalab demakki.

Zebiniso, Dilshod, Anbar-otin lirikalari mumtoz adabiyot janrida bo'lib, u albatta ko'p adabiyotshunos o'quvchilarida katta his tuyg'u uyg'otadi.

### Topshiriq:

1. O'zlik olmoshi ishtirok etgan gaplami daftaringizga yozing.
2. Matndan si fat so'z turkumiga oid so'zlarni yozib oling.
3. Dilshod Barnoning qanday avtobiografik asari bizgacha yetib kelgan?
4. Zebiniso she'riyati qaysi davlatlarda mashhur?

## MASHRAB

Qo'qon xonligida ijod qilgan ulug' inson lardan biri iste'dodli shoir Boborahim Mashrab edi (1640-1711). U Namanganda tug'ilgan. 7 yoshligida xat -savodi chiqqan. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan. 18 yil davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan.

Mashrab o'z sherlarida hukumron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulumlarini, ochko'zlarini, ba'zi ruhoniylarning, eshonlarning avom xalq ruhini do'zah va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganini ayovsiz fosh etadi. Xalqning og'ir ayanchli ahvoliga a'chinadi. Mashrab bitgan quyidagi satrlar buning dalilidir.

Dili ti g'i sitam din porla bo'lg'on xalqni ko'rdim,  
Tani dard-u alamdan yora bo'lg'on xalqni kordim.

Mashrab asarlari to'plangan devon haqida manba topilmagan. Uning "Devoni Mashrab", Devonayi Mashrab", Eshoni Mashrab" nomlari ostida xalq orasida tarqalgan qo'lyozma va toshbosma shaklidagi qissalari qolgan. Mashrab dinka shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yil g'animirining ig'vosi bilan Balx hokimi Mahmudbiy Qatag'on tomonidan o'liinga hukum etiladi.

### Topshiriq:

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
2. Matndagi notanish so'zlar lug'atini tuzing.

## HUVAYDO

Huvayo taxallusi bilan she'r yozgan va keng omma orasida ma'lum bo'lgan shoiring asl nomi Xo'ja-Nazar G'oyib-Nazar o'g'lidir. Huvaydoning qaysi yilda tug'ilgani ma'lum emas, u 1780 yilda vafot etgan.

Huvaydo Farg'on a vodiysi idagi Chimyon dunyoga keldi. Maktabda va tahsilini olgach, o'zi mifik tab o'chdi va uzoq yillarda davomida dars berish bilan mashg'ul bo'ldi hamda kosibchilik ham qildi.

Huvaydo she'rlar devoni bir necha marta tosh bosmada nashr qilingan. Ularning ichida shoiring nabirasi tashabbusi bilan Shohmurod kotibga ko'chirtirilib, 1909 yilda nashr qilingan nusxasi eng e'tiborlidir.

Huvaydoning she'riyatining harhma asosiy shakllarida ijod etdi: g'azal, masnaviy, ruboiy va hokazo.

Huvaydoning ko'p asarlарining tili juda sodda, mazmundordir, iboralari va fikrlari o'yinoqi hamda jo'shqin dir. Shoir fantaziya va rang-baranglik zo'r.

Huvaydo ning dunyoqarashi ko'p jihatdan juda murakkab va ziddiyatlidir. U hamisha yer bilan osmon orasida ikkilanadi: goh yerdan xafa bo'lib osmonga yuz o'giradi, osmonda osudalik, haqiqat, baxt topmoqchi va topganday bo'ladi, mistikaga beriladi, goho yana yer go'zalligi, real hayat jozibasi uni o'ziga tortadi, yerga tushiradi, yer bilan chambarchas bog'laydi.

Huvaydo ning xudoga sig'inish, toat va ibodat qilishga chaqiruvchi noto'g'ri fikrli she'rlari bilan bir qatorda jannat va undagi hurlarga, muqaddas havzi kavsarga til tegizuvchi, bularning hammasidan real yor visolini yuqori qo'yuvchi asarlari han mavjuddir.

Bunday holat Huvaydo yashagan davtdagi hokim-g'ayri insoniy va juda murakkab, ziddiyatlari sharoitlarda butunlay tabiiy edi.

Shoir o'z davrining imtiyozli tabaqa ahllarining qabihlik va razilliklarini, ochko'zlik va aldamchiliklarini, inson normiga isnod keltiradigan ishlari bilan mashg'ul bo'lishlarini, oltinni insondan yuqori qo'yishlarini bir necha masalalarda ochadi va tanqidi qiladi. Zamondan achchiq uqubatlar chekadi.

Shuning uchun ham shoir, bir nafas ham shod yashamaganligidan, g'addor zamona va zolim falakning zulmidan faryod qilib zorlanadi:

Huvaydo ayladi zolim falakni zulmidin ming dod,  
Manga qolganda ul zo limni charxi kaj ravon bo'ldi...  
Boqsam bu jahonda hammada dardu alam bor,  
Har odamining ko'nglida bir zaylda g'am bor...

Ziddiyatlari k Huvaydo ijodida keng o'rinni olgan bo'lsa-da, har holda real insoniy his siyotlarni tarannum qilish ustun turadi.

### Topshiriq:

- Matndan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni topib yozing.
- Huvaydo ijodida qanday mavzular tarannum etilagni?

### NODIRA

Shoira Nodira 1790 yilda Andijonda tug'ildi. Uning asli ismi Mohlar bo'lib, u o'z she'rlarini dastlab «Komila» so'ng «Nodira» taxalluslari bilan yozgan, keyinchalik xalq orasida «Nodira davron» deb tanilgan edi. Nodira ham yuqoridagi shoiralar bilan zamondosh edi. U Andijonlik dala oqsoqol Rahmonqulbek deganning qizi bo'lib, 14 yoshidayoq o'zining o'tkiz aqli, bilimdonligi, donoligi va ajoyib xusni bilan butun Farg'onaga ovozasi ketgan edi. Nodiraning daragini eshitgan Marg'ilon

hokimi 16 yashar Umarbek ung'a kishi qo'yadi. Rahmonqulbek rozilik bermagach, bu ishga Umarbekning akasi -Farg'onaxoni Olimxon aralashib Nodirani o'z ukasiga olib beradi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, xalqqa qilgan jabr-zulmi bilan «Zolim xon» deb nom chiqargan Olimxon qo'shni xonliklar yeriga bosqinchilik urushi qilib turgan bir paytda xalq talabi bilan o'z lashkarlari tornonidan otib o'diriladi. Akasi o'rniga taxtga chiqqan Umarmxon Marg'ilondan poytaxt- Qo'qonga kelgach, Nodirani ham saroya olib keladi.

Nodira saroyda yashar ekan, hamish'a o'qish, o'rganish va ijodga berildi. U hayotni kuzatib bordi va ijodini turmush taas surotlari bilan bog'ladi.

Ayollar hayotida gi fojialarning sababi- xotin-qizlarning erksiz, chorasiszligidan, ba'zi erkaklarning g'ayri-insoniy harakatlardan, muhabbatni bilmaslik va vafosizlikdan deb bilgan Nodira, zo'r berib vafodorlik va muhabbatni tashviq qildi. U ishq- muhabbat mavzu yi takror-takror qalarnga olib, vafo va muhabbatga insomning eng oljanob fazilati sifatida yuksak baho berdi.

**Olam elida vafo topilmas.**

Bu gavhar erur jahonda noyob:

Muhabbatsiz kishi odam emasdир,

Gar odamsan muhabbat etixiyor et.

**Kirib, e Nodira olam eliga**

**Muhabbat shevasini oshkor et!**

Nodira xotin-qizlarni xo'rlayotgan va kamsitayotgan din vakillariga qarshi o'z fikirini ochiqroq ayta oldi, dinni quroq qilib undan o'z haromxo'rliklari yo'lida foydalanuvchi zohidlar va shayxlarning butun kirdikorlarini, riyokorliklarini ochib tashladi. Ularning hamma so'zi aldamchilikdan, ochko'zlikdan, tama'girlikdan iborat deb tushuntirdi.

**Riyou, hirsu tama' savtidur taronai shayx,**  
**Eshitmagum, hama afsun erur fasonai shayx.**

Nodira malika bo'lishga qaramay, behad faryod chekdi. Bu faryod-fig'onlar bir tomondan saroy hayotining ko'ngilsizligidan bo'lsa, ikkinchi tomondan, saroy tashqarisidagi ayanch ahvolda kun kechirayotgan xalqqa achinish edi. O'z hayotidagi ayrim ko'ngilsiz hodisalar va xalqning dardi-alamlari u istasa-istamasa uning ijodiga ta'sir eta boradi. Bu ta'sir Nodira ijodini xalq bilan bog'ladi.

Charx elni giriftoi g'amu dom ham aylar  
Bisyor ja folar qilibon rahm kam aylar.

Nodira hayotda ham ijoddha ham o'tkir fahm-farosatlik, ziyrak va o'sha davr adabiyo tida trad itsiya bo'lgan mushoirachilikda ham hozirjavob san'atkor edi. Uning mushoiralari ko'pincha Amir Umarxon bilan bo'lди. Bu mushoiralardagi javoblarda ham Nodira sotsial hodisalarining mohiyatini ochadi. Bir mushoirada Nodira Umarxonning:

Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor? ya'ni nega aqlilar jinnilardan or qiladilar?-bergan savoliga Nodira:

Kim bular uryoni, olarning jubbau dastori bor. Ya'ni: bular och-yalang'och, ularning esa, kiyim va salilari bor, ular yuqori tabaqqa kishilar, deb javob qiladi.

Nodirashe 'rlaridahamboshqashoirlardabo'lganikabite matiktorlik, saroya'sirigaber ilishvashe'riytuzilishidakamchirliklarbor. Bu kamchilik va nuqsonlar uning hayoti va ijodiy muhit uchun tabiiydir.

Amir Umarxon vafotidan keyin uning 14 yashar o'g'li Ma'dali taxtga o'tirgach, Ma'dalining yoshligi tufayli davlat ishlari asosan saroy ahli qo'lida bo'lib, bu davrdagi maclaniy va adabiy ishlarga shaxsan Nodiraning o'zi raiibarlik qildi. Nodira masjid-m adresalar, hammom va karvon saroylar qurdiradi, ilm va ma'rifatni yoqlaydi. Har yoqdan olimlar, yozuvchilar yig'ib, turli ta'rixiy va adabiy kitoblar yozdiradi. Qo'qonda katta bir kutubxonasi tashkil etadi. O'z zamonining kambag'al shoirlariga in'ormalar berib, ulami ma'naviy jihatdan qo'llab turadi. Uning bu progressiv harakatlari 1842 yil Qo'qonga bostirib kirgan Buxoro amiri Nasrulloning hujumi bilan barbos bo'ladi. Bir kazinak bahonasi bilan bos hlangan bu urushda Amir Nasrullo g'olib kelib, yurtni va xalqni talaydi. Necha yuzlab gunohsiz kishilarni qilichdan o'tkazadi. Ma'dali va uning o'g'li Muhammad aminni jallodga topshiradi. Jallod ulami o'lди rishga tayloranib turganda, oppoq sochlari to'zilgan, parishon holda Nodira paydo bo'ladi. U begunoh 3 yashar nabirasini quchoqlaydi va Nasrulloqarab shunday xitob qiladi:

Ey zabardasti zerdast ozor,  
Senga ham keladi budek bozor.

Amir Nasrulloning buyrug'i bilari Nodira, uning o'g'li Ma'dali va nabirasi Muhammad Amirni jallod kundasiga keltiradilar. Jallod avval Nodiraning sochini qirqadi. Keyin nabirasi, o'g'li va har uchovlarning qo'llarini kesadi. So'ng oyoqlarini qirqadi va oxiri uc hovlarining baravar kallalarini oladi.

Nasrullo Nodiraning qiyimalangan jasadini xalq oldiga chiqarib tashlaydi va 7 kungacha ko'mmay, shunday qoldirishga buyuradi. Xalq o'z kuychisi Nodira jasađi ustida motam tutadi va yashirinchada dafni etadi.

Nodira shu xilda feodal tuzumning dahshatlari va mash'um hayotning fojalari bilan halok bo'ldi. U o'z mavqeい va ijodi bilan o'zbek xalqining sevimli shoiralari qatorida katta hurmatga sazovor bo'ldi, u devon tuzgan yetuk shoira edi. Uning o'zbekcha va forscha yozilgan chiroysi g'azallari, muxammaslari adabiyotimiz sahifalarida katta o'rinn tutajakdir.

Xullas, shuni aytish kerakki, bu har uchala shoira ham o'z davrining igtimoiy voqealariga bo'lgan munosabatlari bilan demokratik adabiy yo'nalişiga yaqinlasha borgan bo'salarda, demokrat darajasiga ko'tarila olmagan edilar. Lekin ular ayol bo'lganlari holda, o'sha davr sharoitida bilimdon, atoqli qalam sohibi, o'tkir aql, iroda, chuqr muhokama egasi bo'lib tanilishlari va ayrim yetuk fikrlar bilan chiqishlarining o'ziyoq katta hodisa edi. Bu hodisa- ayollarga qaratib aytigan "sochi uzun, aqli qisqa" degan feodal-diniy aqidalarini puchga chiqaruvchi real fakt sifati da ham katta hodisa edi. ular shu mavqedagi ijodiyotlari bilan o'zbek mumtoz adabiyotimizdan o'zlariga alohida bir sahifa ochdilar. Bu sahifa doim mazkur shoiralarni eslatib, ularga nisbatan hurmat va muhabbat uyg'otib turadi.

### Topshiriq:

1. Matndan uyushiq bo'lakli gaplarni topib daftaringizga yozing.
2. Matndan qo'shma fe'llami ajratib yozing.
3. Shoira hayotiga oid ma'lumotlarni aytib bering.
4. Nodira ijodida qanday mavzular tarannurni etilagan?

### NODIRABEGIM HAQIDA RIVOYAT

Qo'qon xoni shoir va fuzalo Umarxon bilan uning umr yo'ldoshi shoira va oqila Nodirabegim juda inoq, ahil yashar ekanlar. Bir-birlarini qattiq sevishganidan gap-so'z, savol-javobni she'r bilan qilishar ekanlar. Kunlardan bir kun Umarxon kechki bazni jamshiddan rnastligi bir-muncha me'yordan oshgan holatda kelibdi lar. Shoir, fuzalo va xonning tunda ichib, sarmast yurishlarini ko'rgan Nodirabegimdek dono malikaga bu ahvol ma'qul tushmay tanbeh beribdi. Shunda shirakayf Umarxonning jahli chiqib:

-Begin, biz bir - birimizni tushunmaydigan ko'rinishimiz. Men shunday qarorga keldim; Saroydan hohlagarningizi olib, tong sahar ota-onangiznikiga jo'nang.

Nodirabegim Umarxonning aytgan so'zlaridan qaytmaydigan, bir so'zliligini bilganligidan tunni tongga yetkazguncha g'am- qayg'uda istirob chekibdi. Ketay

desa, Umarxon yurtga xon, ulug' boshini ham qilib, ikki dunyoda orqasidan borib olib kelmaydi. Ketmasdan saroyda qolay desa, aytilgan so'z-otilgan o'q. Qolaversa, xon amri vobij... Shunday og'ir sarosima bir holatda malika uzoq o'ylab qolibdi. Nodirabegim darrov qirq kanizlarini birma bir uyg'otibdi. Honarabaga tulpor otni qo'shtirib, uni nikoh kunlarida yasatilganiday yasaitribdi, eng yaqin kishilarini yordamida bo'za ta'sirida qattiq uyquda yotgan Umarxonni tashqariga olib chiqib, aravaga solingan joyga yotqizibdi. So'ngra Andijon qaydasan, deb ota-onalari uylari tomon ravona bo'libdi.

Yo'l yarimlab qolganda aravalarning taqir-tuquri otlarining dupur-dupuri-yu, kishnashlaridan uyg'onib ketgan Umarxon hayron bo'libdi. Keyin tepasida kulum surab o'ziga termulub turgani go'zal Nodirabegimga ko'zi tushubdi. Hayron bo'lib, malikadan so'rabi:

Malikam bu ne shovqin, bizga yo'l bo'lsin? Qaysi muzofattamiz o'zi?

Xonnингsovollariga Nodirabegim tabassum bilan:

Andijonga yaqinlab qoldik.begim. Andak sabr qilsangiz, yetamiz – debdi.

Nechuk, ne sababdan Andijonga?! – taaJJub bilan so'rabi Umarxon. Shunda Nodirabegim odob bilan:

Begim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytay. Oramizda biroz tushunmaslik sodir bo'lib, menga: "Saroydagi hohlaganingizni olib, o'zingizga yoqqan, ma'lum bo'lgan, ko'nglingiz hush ko'rgan narasalarni oling – da, tong-sahar bilan ota-onagiznikiga jonang, - dedingiz. Mening esa saroya... Sizdan boshqa hech qanday boyligim ham, davlatim ham, shon-shavkatim ham yo'q. Shu boisdan erta tongdan ana shu men uchun har qanday boylikdan ortiqroq, duru gavhardan a'lороq, hayot – mamotim, borlig'im bo'lmish sizni olib, ota-onamnikiga, Andijonga ketyapman, - debdi. Umarxon tepasida ta'zim bajo keltirayotgan malikasining donoligi va aql-idrokiga qo'll bo'lib, tan berib: Menden aqil qochibdi, malikam. Mening ham sizdan boshqa na davlatim va na shon-shuhratim bor. Siz men uchun, meni avf etgaysiz, debdi. Xon shunday ot boshini Qo'qonga burushni aytibdi.

### Topshiriq:

1. Rivoyatni o'qing. Uni so'zlab bering.
2. Matndagi notanish so'zlar lug'atini tuzing.

## MUHAMMADRIZO OGAHİY

Ogahiy (taxallusi; to'liq ism-sharifi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li) (1809.17.12, Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'i — 1874.14.12) — shoir, tarixchi, tarjimon. Mirrob oilasida tug'ilgan. Xiva madrasalarida tafs il ko'rgan. Arab, fors, turk

tillarini puxta egallagan. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan. Sharq klassiklari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan.

1829 yilda armakisi va ustozi Munis vafot etgach. Xiva xoni Olloqulixon (1825—42) Ogahiyni Muniisning orniga mirob etib tayinilagan. Shu davrdan e'tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug'ullangan. Qizg'in ijtimoiy-siyosiy mehnat bilari mashg'ul bir paytda ot'dan yiqilib, oyog'i «shakarlang» (shol) bo'lib qolgan (1845). 1857 yildan miroblik vazifasidan iste'fo bergen. Umrining oxirigacha moddiy rmuhtoj, g'amgin, kasalm and ahvolda kun kechirgan. Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarda tuzgan lirik kulliyoti — «Ta'viz ul-osh iqin» («Oshiqlar tumor», 1872) bizgacha to'la yetib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 4 70 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammras, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga «Ash'ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzui turadi. Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin. ishqni chetlab o'to Imaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she'riyatida ishq — iymon, e'tiqod. Vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlaniruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondo shlari tasviri ham katta o'rinn egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berg anda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan.

Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan: o'zigacha bo'lgan 7—8, 10—12 baytli g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan, mustazod janrining qo'sh orttirma misrali yangi shaklini kashf etgan.

Shoir aruzning juda ko'p bahrlaridan foydalangan. Uning g'azzallari «Shashmaqom»ning hamma kuyalariga tushadi. Xorazm xalq ohanglariga mos keladi.

Ogahiy «Riyoz ud-davla» («Sultanat bog'lari», 1844), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i», 1845 — 46), «Jome' ul-voqeoti sultoniy» («Sultonlik voqealarini jamlovchi», 1857), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani», 1865), «Shohidi iqbol» («Iqbol guvohi», 1872) va boshqa tarixiy asarlarida Olloqulixon, Rahimqulixon (1843—46), Muhammad Aminxon (1846 — 55), Sayid Muhammadxon (1856—64), Muhammad Rahim II (1864—1910) hukmronligi davrida Xorazmda yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining boshqa xonliklar bilan munosabati va boshqa tarixiy voqealar aks etgan.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari Feruzga bag'ishlangan. U o'z nasihatlarida sultanatni boshqarishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Qasida Masnaviy janrida yozilgan bo'lib, unda shoimining siyosiy-ma'rifiy qarashlari yorqin aks etgan. Ogahiy fikricha, har qanday davlat boshlig'i hokimiyatrini mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

Podshoh himmatli, shijoatli, adolatli, g'ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, ahamiyatli, kambag'alparvar bo'lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo'lsa, uning hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo'ladi, degan fikri ilgari suradti. Ogahiy davlatni boshqarishning yo'llarini ham ko'rsatib o'tgan. U ayshishratdan, fitna va g'iybatdan, g'aflatdan, yalqovliqdan, zulm-razolatdan, chaqimchil ikdan, molparastlikdan uzoq bo'lishi kerak.

Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga qulog tutgan, uniring hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arzonalariga qo'ydirgan, ko'p ezgu ichlarni amalga oshirgan. Shu bois ham Ogahiy tarixiy asarlari badiiy nasr sifatida hamda 19-asr Xorazm voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlar sifatida qimmatlidir. Ogahiy «Ravzat us-saf» (Mirxon), «Tarixi jahonkushoyi Nodiri» (Muhammad Maxdiy Astrobodiy), «Bade' ul-vaqoe» (Z. Vosifiy), «Miftoh ut-tolibin» (Mahmud binni Shayx Ali G'ijduvoniy), «Tabaqoti Akbarshohiy» (Muhammad Muqim Hirotiy), «Tazkirai Muqimxoniy» (Muhammad Yusuf Murshiy), «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (Rizoqulixon Hidoyat), «Axloqi Muhsiniy» (Koshifiy), «Qobusnom», «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloil ul-hayra» (Muhammad Voris), «Guliston» (Sa'diy), «Yusuf va Zulayho» (Jomiy), «Shoh va gado» (Hiloliy), «Haft paykan» (Nizomiy) va boshqa tarixiy-badiiy asarlami fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. Ogahiy «Haft paykan»ni nasriy yo'l bilan, «Guliston»ni qisqartirib, keng kitobxonlarga tushunarli qilib tarjima etgan. «Yusuf va Zulayho» hamda «Shoh va gado» dostonlarini esa baytma-bayt tarjima qilib (kirish qismidan tashqari), aniq ijodiy tarjima namunasini yaratgan.

«Miftoh ut-tolibin» (inv. ?8473), «Ravzat us-safoyi Nosiriy» (D-125), «Tabaqoti Akbarshohiy» (TNS—106), «Tazkirai Muqimxoniy» (TNS—105), «Firdavs ul-iqbol» (S—571), «Shohidi iqbol» (S—572), «Yusuf va Zulayho» (TNS—117), «Ta'vez ul-oshiqin» asarlarining qo'lyozma nuxsalari Toshkent, Dushanba va Sankt-Peterburgda saqlanadi. «Zafarnoma» (Ali Yazdiy), «Bahoriston», «Salomon va Ibsol» (Jomiy), «Hasht behish» (Xusrav Dehlaviy) asarlarining Ogahiy tarjimasi hamda qurʼangacha topilmagan.

«Ta'vez ul-oshiqin» Xivada toshbosmada nashr etilgan (1905—09). O'zbekistonda ko'chalar, maktablar, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya

teatri, istirohat bog'i va boshqa muassasalarga Ogahiy nomi berilgan. Qiyot qishlog'ida Ogahiy bog'i tashkil etilib, shoirning uy-muzeyi ochilgan; muzey oldida Ogahiyga haykal o'rnatilgan.

### Topsiq:

1. Matndan fallarning orttirma, o'zlik va majhul nisbatlar kabi shakllarda kelganlarini alohi da – alohida ko'chiring.
2. Matnda sinonim so'zlarni aniqlang va daftaringizga yozing.
3. Ogahiy hayoti va ijodi haqida qanday malumotlarga egasiz?
4. Ogahiyning tarixiy qimmatga ega asarlarini aytинг.

### BEHBUDIY MAHMUDXO'JA

(1875-yil, Samarqand – 1919-yil, Qarshi) – ruhoni oиласида tavallud topgan, eski maktab va madrasada o'qigan, qozixonalarda mirzolik va muftilik qilgan. Shu boisdan ba'zi maqolalariga "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy" deb imzo chekkan. Arabiston, Misr, Turkiya singari Sharq mamlakatlariga safar qilgan (1900–1914), shuningdek, Qozon va Ufaga (1903–1904) borgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda yangicha "usuli jadid" maktablari zarurligini nazariy asoslagan va ulami tashkil etishga yo'naltirilgan katta ishlarga rahnamo bo'lган. Bunday maktablar uchun u yuzdan ortiq darsliklar va qo'llanmalar yozib, chop etirgan: "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiya" (Qisqacha urnumiy jug'rofiya), "Kitob atul-atfol" (Bolalar maktublari), "Muxtasari tarixi islomiya" (Islom qisqacha tarixi), "Amaliyoti islom" (Islom amaliyoti), "Madxali jug'rofiyayi umroniy" (Aholi jug'rofiyasiga kirish), "Muxtasari jug'rofiyayi Rusiya" (Rossiya qisqacha jug'rofiyasi) va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistorida jadidchilik harakatining asoschisi va karvonboshisidir. U davr taqozosi va ehtiyoji o'rtaga tashlagan masalalar va muammolarni hal etish yo'llarini shakllari tiritishda taniqli taraqqiy parvar ziyoli, olim, jamoat arbobi Ismoil Gaspralining (Qirimdag'i Gaspra shaharchasidan, ruschada - Gasprinskiy) ilg'or g'oyalarini keng tarqatuvchilardan biri bo'ldi. Shu maqsadda Behbudiy 1913 yilda "Samarqand" gazetasini va "Oina" jurnalini chiqara boshladi. "Oina" o'lkada chiqqa boshlagan o'zbek tilidagi birinchi jurnal edi. "Samarqand" gazetası 45-sonidan keyin moddiy tanglik sababli to'xtadi. 1913 yilda chop etilgan "Padarkush" pyesasi bir yildan keyin Toshkentda "Turon" truppasi tomonidan sahnalashtirildi va muallifga katta shuhrat keltirdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va unga bog'liq dunyoqarashida quyidagi uch qoidani olg'a surdi: 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish; 2) millat

taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlami yetishtirish; 3) milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oладиган, chet ellar bilan siyosiy, iqlisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. О'tgan asr boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrga hamohangdir va bu riarsa ulug' siyemo naqadar uzoqni ko'ra bilganidan dalolat beradi.

Behbudiy 1917- yildagi to'ntarishni qabul qilmadi. Biroq u yangi ijtimoiy muhitga moslashishiga majbur edi: 1918 -yilda Samarqandda tuzilgan "Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi"da maorif komissari lavozimrida ishlay boshladi. U bevosita maktablarni tashkil etish, o'quv tizimini isloh qilish, darsliklar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu davrda "Yangi hisob" darsligini yozib nashrdan chiqaradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyatni tabaqalab, proletariat-yo'qsullar g'oyasi asosida hayotga yondoshishga qarshi chiqdi. Aksincha, u birlashgan "Muttahid front" g'oyasini bayon qilar ekan, "ulamo ila ziyoli va taraqqiyatparvarlarimiz, boy va avomimiz birlashib, dinu millat va Vatanning rivoji uchun xizmat etsak", deydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy dahosi shu qadar o'tkir bo'lganki, u deyarli yuz yil muqaddam mustaqillik tufayli biz endilikda hal eta boshlagan vazifalarni belgilab bergen edi. Jamiatdagi qora kuchlar allomani ko'rolmasdi: 1919-yilda Buxoro amiri uni "bolsheviklarning ayg'oqchilaridan" deb aybladi, uning josuslari Mahmudxo'ja Behbudiyni Qarshi shahriga keltirib pinhona qatl etdilar.

Buyuk ma'rifatparvarning g'oyalari, faoliyati tarixda qoldi va orzu-umidlari mustaqillik sharofatidan ro'yogba chiqmoqda.

### Topshiriq:

1. Matndan sonlarni aniqlab turini aytинг.
2. Xizmat qildi, olib bordi qo'shma fe'llarini shaxs-sonda tuslang.
3. Bo'burning eng mashhur asari, o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri qanday nomlanadi? Unda qanday ma'lumotlar keltirilgan.
4. Uning g'azallaridan qanday mavzular kuylangan.

### FITRAT

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886 yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. "Fitrat" uning adabiy taxallusi bo'lib, tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod, porlamoq ma'nolarini anglatadi. Uning otasi savdogarchilik bilan shug'ullangan dindor, o'qimishli shaxs bo'lган, onasi Mustaf bibi nozikta'b, savodli ayol bo'lib, asosan farzandlar ta'llim tarbiyasi bilan shug'ullangan. Fitrat dunyoqarashining shakllanishiда, uning badiiyat olamiga yaqinlashuvida onasining o'mi katta bo'lган.

Fitrat dastlab eski maktab va Mir Arab madrasasida ta'lim olib, 1909 yili, "Jamiyatı xayriya"ning ko'magida, Rossiya shaharlari orqani Istanbulga o'qishga boradi. U yerda Istanbul dorilfununing va'zxonlik kulliyotida tahlil oladi. Istanbulda tashkil etilgan "Buxoro ta'limi mtaorif jamiyatı"ning faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, turk inqilobchi yoshlari harakatiga ham aralashadi va bu faoliyatini keyinroq o'z vatanida, yosh buxoroliklar jamiyatining inqilobiy kurashida davom ettiradi.

Fitrat 17 yoshidan boshlab jiddiy ilmiy-ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Uning asarlari 260 bosma taboqdan ziyod ilmiy merosini tashkil etadi. Bu asarlar adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, falsafa, dinshunoslik, sharqshunoslik, etika, estetika, musiqa, shaxmat, melioratsiya, geodeziya kabi bilim sohalariiga bag'ishlangan bo'lib, ular Fitratning qomusiyi tafakkur va aql egasi bo'lganligidan darak beradi. Uning dastlab yaratilgan "Munozara" (1909), "Hind sayyohi" (1911), "Rahbari najot" (1915) asarlari nafaqat badiiy va diniy, balki, ijtimoiy va fansafiy, mafriifiy va axloqiy tusdag'i asarlar edi. Ularning mohiyatiда jadidchilik g'oyalarini yotar edi. Bu asarlarda xalqning o'tmishi va kadriyatlari haqida qayg'urish, tutqun va turg'un millatning istiqbolini yoritish haqidagi g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi. Fitrat, keyinroq yozilgan "Sharq siyosati" (1919), "Sharqda inglizlar", "Turkistonda ruslar" publisistik maqolalarida istilo siyosatining sabab va oqibatlarini chuqur nazariy mushohada etgan, bu siyosatning turli xalqlar va millatlar hayotidagi tasiri, salbiy oqibatlini ravshan ko'ra olgan, unga baho bera olgan yirik arbob sifatida fikr yuritadi.

Fitrat Petrograd dorilfununining Sharq fakultetida ma'ruzalar o'kib yurgan kezlar, o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib, professor unvoniga sazovor bo'lgan. U Britaniya ensiklopediyasi sahifasida o'zbek faylasuf olim sifatida qayd etilgan adibdir. Fitrat o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganish va targ'ib etishda, o'zbek mumtoz musiqa siyosatini o'rganish, "Shashmaqom"ni notaga tushirishda jonbozlik ko'rsatgan. Uning har bir asari millat merosini qayta tiklash va milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan, milliy istiqbol va mustaqil taraqqiyot konsepsiyanini bayon etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'z ilmiy va amaliy faoliyati jihatidan keng va serqirra ijod etgan olim va millatparvar Fitrat 1937 yilda mash'um qatag'on siyosatining qurboni bo'ldi.

Bolsheviklarning Rossiyada sotsialistik inqilob g'alaba qozongan taqdirda mamlakatda milliy masalani oqilona va odilona hal qilamiz, deb tuzgan dasturlari aslida ezilgan va har jihatdan kamsitilib kelingan xalqlarni sotsializm tuzog'iga tushirish rejasи ekanligini Fitrat, Cho'lporn, Abdulla Qodiriy va o'nlab, yuzlab boshqa yosh ziyorolar hamda mutafakkirlar tushunib, anglab ulgurmadir. Ularning fojiasi va istibbdod tuzumining yanada mustahkamlanishi o'sib kelayotgan o'zbek ilmiy, ijtimoiy-siyosiy boradagi ziyyolilarning ko'pchiliginib qo'yishga, ochiq va erkin ijodiy

hayotdan o'zini chetga olishga, og'ir, shafqatsiz vaziyatlarga moslashishga, xayolida bir fikr, so'zlaganda boshqa fikr aytishga majbur etdi. Yangi Fitratlar va Cho'lponlarning yuzaga chiqishi, shakllanishi va erkin ijod etishi uchun barcha shart-sharoitlar mustaqillik tufayli bunyod etildi.

### Topshiriq:

1. Mantdan quyidagi jadvalning har bir ustunchasiga matndan 3-5 tadan so'z topib, qo'shimchalari bilan yozing.

Otlar	Sifatlar	Sonlar	Fe'llar	Ravishlar	Olmoshlar

2. Hamda bog'lochi sihtirot etgan gaplarni ko'chiring.
3. Fitrat shoir va adabiyotshunos olim sifatida qanday asarlar yaratgan?
4. Eng mashhur asari qaysi va kimga bag'ishlangan?

### CHO'LTON ABDULXAMID SULAYMON O'G'LII

(1897-1938)

XX asr o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri. Andijonda tug'ilgan. Uning otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li bazzozlik (ya'ni gazlama sotuvchi) bilan shug'ullaniganiga qaramay, o'z davrining nozikta'b kishilaridan bo'lgan, "Rasvo" taxallusi bilan hajviy she'rlar ham yozgan. Shoirning buvisi "totli va boy til" sohibasi bo'lgan.

Cho'lpon madrasa va rus-tuzem muktabida tahsil ko'rib, bir tomondan, an'anaviy sharqona bilimlardan, ikkinchi tomondan, yevropacha tahsil va tarbiyadan bahramand bo'lgan. U 1914 yili, jadid yozuvchisi bo'lish niyati bilan, Toshkentga ko'chib kelganida, "Sadoi Turkiston" gazetasi, "Shuro" (Orenburg) va "Oina" (Samarqand) jurnallari hamda "Tarjimon" (Bog'chasarov) va "Vaqt" (Ufa) gazetalarida bosilgan xabar, maqola, she'r va hikoyalarning muallifi sifatida tanilgan edi. shuning uchun ham xuddi shu yili andijonlik bu yosh istedodli shoir bilan uxhrashgan Fitrat unga Cho'lpon (ya'ni yorug' tong yulduzi) taxallusini hadya etadi. Toshkentda Munavvar qori Abdurashidov boshliq jadidlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi, ular tashkil etgan "Turon" jarniyatining faoliyatida ishtirot etib, jadidchilik harakati va jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biriga aylanadi.

Cho'lpon 1917 yil fevral inqilobini katta umidlar bilan kutib olgan, Turkiston muxtoriyati hukumatining vujudga kelishida faol ishtirok etgan va bu hukumatning "Ozod turk bayrami" deb nomlanigan madhiyasini yaratgan.

Turkiston muxtoriyati bolsheviklar tomonidan tormor etilib, o'zbek diyori sho'rolashtirila boshlagan yillarda, Cho'lpon mustabid tuzumning reaksiyon mohiyatini fosh etuvchi otashin she'rlarini yozdi. 20-yillarning o'rtalarida unga "millatchi" degan tamg'a yopish tiliradi; u 1924-1927 yillarda Moskvada teatr san'ati bilan qizg'in shug'ullandi, bugungi professional o'zbek teatrining tom ma'nodagi asoschilaridan biri bo'ldi.

Cho'lpon 1931-1934 yillarda qatag'on to'lqinidan qochib, Moskvada yashadi va tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanib, V.Shekspir, A.S.Pushkin, A.P.Chekov, L.Andreyv, M.Gorkiyning qator asarlarini o'zbek tiliga o'girdi. Uning tarjimon sifatida olib borgan samarali faoliyati o'zbek tarjima maktabining shakllanishi va karnol topishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Cho'lpon o'zbek tilining yetuk adabiy til darajasiga erishishi va boyishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub asarlar o'sha davr o'zbek sh'eriysi, nasri va dramaturgiyasining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishida muhim omil bo'ldi. U milliy teatr tanqidchiligidagi asos soldi, o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining shakllanishiga muayyan ta'sir o'tkazdi.

### Tops hiriq:

1. Matndan kishilik, ko'rsatisni olmoshlari ko'chiring.
2. Olmoshlar ishtirok etgan gaplarni rustiliga tarjima qiling.
3. Fitrat dunyoqarashining shakllanishida u tug'ulib o'sgan oilani ta'siri qanday bo'ldi?
4. Uning jurnalistik faoliyati to'g'risida nimalami bilasiz?

### ABDULLA QODIRIY (Julqunboy)

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tug'ildi.

"Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada ... tug'ilg'anman", - deydi u o'z tarjimai holida. - Yoshim to'qqiz o'nliga borg'onda meni muktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chiamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtarda nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatkorlikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv bilaturlar on kishiga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'Msa

kerak, meni o'ris mактабига yubordi. 1912-yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm barobariga prikazchik bo'lib kirdim... Shu miyonalardan bozor vositasи bilan tatarlardan chiqadirg'on gazetalarni o'qib, dunvoda gazeta degan gap borligiga imon keltirdim. 1913-yilda chiqqan "Padarkush" ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim..." (1915-yil). Bo`lg'usi adibning ilk ijodi 1913-1914-yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoир sifatida qalam tebratdi. Uning "Axvolimiz" "Millatimga", "To4y" (1914- 1915) kabi she'rlari "Oina" jaridasida bosilib chiqqan edi. O'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoир va adib sifatida maydonga chiqadi. Uning "Baxtsiz kuyov" (1915) nomli fojiasi, "Juvonboz" (1915), "Uloqda" (1916) kabi hikoyalariда ham o'z xalqini savodli, bilimdon, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1924-yil Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, jumalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib "Mushtum" jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi. Uning Toshpo'lat tajang nima deydi?" va Kalvak maxsumning xotira daftandan" turkumi dagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosila bordi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918-yillardan boshlab "O'tgan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926-yillarda "O'tgan kunlar" uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi.

1928-yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani "Mehrobdan chayon" nashrdan chiqdi. U "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri", "Dahshat" kabi romanlar yaratish orzusida boo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt o'lim orzulari ro'yobga chiqishiha imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrida qamoqqa olindi. "Menga qo'yilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lidan hech qanday jazodan, qynoqdan qo'rqlayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman..." Abdulla Qodiriy 1937-yil 4-oktabrda Toshkentda otildi. Uning asarlari 1956-yildan boshlab yangidan nashr etila bordi.

1990-yilda Respublika Prezidenti Farmoni bilan A.Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1991 - yilda esa A.Qodiriyiga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, mакtablar, kutubxona, mahalla va oliv bilingohlar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi. Uning nomidagi Toshkent Davlat madaniyat oliygohida eng bilimdon va iqtidorli talabalar uchun Abdulla Qodiriy davlat stipendiyasi joriy etilgan. Uning yuz yillik tavallud (1994) sanasiga yetti jildlik to'la asarlari nashr etildi.

### Topshiriq:

1. Quyidagi jadvalning har bir ustunchasiga matndan 3-5 tadan so'z topib yozing

Fe'llar	Otlar	Sifatlar	Sonlar	Ravishlar	Olmoshlar

2. Matndan bilan ko'makchisi ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

3. A.Qodiriy hayoti va ijodi haqida gap iring bering.

4. Uning eng mashhur asarlarini nomini ayting.

### ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODI



Abdulla Avloniy o'zbek shoiri, dramaturgi va taniqli jamoat arbobidir. XX asr boshlarida 30-yillarning o'rtalarida bo'lган o'zbek matbuoti va aqabiyoti, shuningdek, mari fatni va maorifni Abdulla Avloniysiz tasavvur etish mumkin emas. Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ildi. Eski mакtabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshig ida mehnat qildi. Mardikorlikdan tortib duradgorligu g'isht quyishgacha, suvoqchilik dan tortib tunukasozlikkacha bo'lgan kasb-korlari bilan shug'ullandi. Mehnatkash, zehni o'tkir yigit mahallada mahoratchi usta degan nom qozondi. Hayot o'zining qaysi og'ir ko'chalariga olib kimasin, yosh Abdulla doimo o'qishga, ilm olishga charuqqlik bilan yashadi. Shu boisdan, aksar yillari kuz va qish yillari o'qib, bahor va yozda oila tirikchiliga qarashdi.

O'n besh yoshlari she'rlari matbuotda ko'rindi. El-yurt ichida bo'lish, turli daraja va toifa odamlar suhbatidan baharmand bo'lish Abdullaga zamonaning ilg'or tamoillari, yangiliklari va zamondoshlarining hayotga turlicha qarashlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatini tug'dirdi. Bu shart-sharoitlar natijasida unda matbuotga havas erta uyg'ondi. Turkiston, Tatariston, Kavkazda nashr etiluvchi qator gazeta va jurnallarni kuzatib borish uning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri bo'lgan Avloniy o'lkada uning ham nazariyotchisi, ham amaliyotchisi sifatida ko'p ishlarni amalga oshirdi. 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi yo'nalishdagi jadid maktabini ochdi, o'zi unga mudirlik va o'qituvchilik qildi.

1909-yilda kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi "Jamiyati xayriya" degan uyushuma etdi. Turkistonda birinchilardan bo'lib mакtabda geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni hayot, turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'tasida muayyan tanaffuzni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishda alohida e'tibor berdi.

Uning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklari hamda "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913) nomli qo'llanmasi o'z davrida yoshlarni yanqicha yo'nalishda o'qitish va an'anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yaratgan besh to'plamdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1919) maktablarda qo'llanma vazifasini o'tadi.

Abdulla Avloniy ko'plab she'rlar, she'riy to'plamlar muallifidir. Uning she'rlarida vatanparvarlik, marifatparvarlik va milliy-ozodlik taronalari alohida o'rinn tutadi. Masalan, bolalarga bag'ishlangan "Vatan" (1916) she'rida dunyodagi eng ulug' va muqaddas tus huncha vatandir, vatanga sadoqatli bo'limoq, har bir insonning vijdoniy burchidir, dehan g'oyani ilgari suradi. Marifatlari va ilmli bo'lismi har bir xalqning taqdiri va taraqqiyotini belgilaydigan omildir, deydi o'nlab she'rlarida Avloniy. "Maktab", "Maktab bolasi", "Bog'cha", "Yalqov shogirt tilidan" kabi she'rlar ana shunday ruh bilan sug'orilgan. "Har millatning taraqqiyysi ilm ila. Nodon xalqning ko'z yoshi manjon emish". ("Tog'lardan bir manzara" she'ri) der ekan, shoir bu va ko'plab she'rlarida el ichida ba'zan hukm surib kelayotgan ilm-marifatga e'tiborsizlikni qattiq qoralaydi. Shoir "Tog'lardan bir manzara" she'rida:

Kecha-kunduz bizlar dardu mehnatda,

Ilm ila ovrupalik xandon emish.

Nonimizni teva qilib berurlar,

Bizlar xo'p befarosat, nodon emish.

Der ekan, she'r yozilgan vaqtga kelib ham hamon el nonini tuya qilishda davom etayotgan Rossiya hokimiyatiga ishora etgani holda, bir tomonidan, bizni mute' qili bo'lib, yana ikkinchi tomonidan, bizni nodonlikda ayblamoqchi bo'layotganlar ustidan achchiq istehzo qiladi.

1914-yilda "Sədoi Turkiston" gazetasida bosilgan she'rlarida u shunday yozadi:

Har g'amning poyoni bordur, har alamning oxiri,  
Har zimistonning bahori, har hazorning oxiri.

Turkistonda yuritilayotgan istibdod siyosatiga ham, o'lkaning o'zidagi yurtfurush amaldorlarning zulm - zo'ravonligiga bir kun kelib chek qo'yishini aytadi. Avloniy faoliyatida gazetachilik, teatr ishlari, o'qituvchilik alohida o'rinn tutadi. U Oktabr o'zgarishiga qadar "Shuhrat" (1907), "Turon" (1917) nomli gazetalarni chiqardi, ma'lum muddat Turkistonning ilg'or va mashhur gazetasini "Sadoi Turkiston"da faoliyat ko'rsatdi. sho'rolar davrida esa 1918-yilda "Ishtirokiyun" gazetasida muharrir bo'lib ishladi. "Turon" gazetasiga Avloniy "Yashasin xalq jumhuriyati!" degan shiorni tanlagan edi. Bu orzu deyarli 70 yil o'tganidan so'ng bizning kunlarimizda amalga oshdi.

Avloniy she'r, qo'shiq darsliklari dan tashqari bir qator pyesalar muallifi hamdir. Uning "Advokatlik oson mi?" (1914), "Pinsk" (1916), "Biz va Siz" (1917) kabi sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasining shakllanishida munosib o'rinn tutdi. U "Ikki muhabbat", "Portugaliya in qilobi" nomli pyesalar yozgan. U 1934-yilda vafot etdi. "Turkiy Guliston yoxud axloq". Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" nomli 1913-yilda yozilgan asari asr tonggi o'zbek badiiy pedagogikasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. U shakl, qurilish (kompozitsiya), mazmun va maqsad jihatidan buyuk fors shoiri Shayx Sa'diy (1203-1292)ning "Bo'ston" hamda "Guliston" nomli jahonga mashhur asarlarining an'analari ruhida yozilgan. Buni asar nomidagi ishoraning o'ziyoq ko'rsatib turibdi.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston..." asarini o'z davrining maktablari, yoshlari, xususan, yuqori sinf o'quvchilari uchun qo'llanma tarzida yaratdi. Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma'rifatga chorlash, sharqona, ko'p milliy an'analarimiz ruhidagi tarbiya ishining yo'l-yo'riqlarini talqin etish, ayni vaqtda, ta'lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg'or talabalarini qo'yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi o'rmini yoritish tashkil etadi. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston..."da yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, o'y va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritar ekan, ularning har biridagi o'ziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qildi. Uning o'qish, o'qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish niroyatda zarur degan fikrni o'z zamoni uchun ham, bugungi kuni uchun ham qrimmatlidir. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur", deb yozadi Avloniy. Shunisi alohida diqqatga sazovorki, "Turkiy Guliston..." da tarbiyaviy ishlar bugun deyarli unutilib borayotgan diyonat, sa'y va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, hilm, nafs, vijdon, i fflat, havo, viqor, hivzi lison, munislik, xayrixohlik, oliyhimmatlik kabi yuksak axloqiy tushunchalar (ilmni egallash va vatanparvarlik g'oyasi bilan chambarchas aloqada); zulm, nifoq, ta'ma, hasad, loqaydlik, g'iybat, haqorat, uyatsizlik, namimat (chaqimchilik), adovat, xasislik, vijdonsizlik, johillik, g'azab, xiyonat singari shaxs tabiatidagi yomon xulqlar (millat va vatan saodatiga

e'tiborsizlik va bepisandlik bilan bog'langan holda) muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etiladi. Ularning inson hayoti va taqdirdagi o'mi va rollini muallif lo'nda, aniq va muxtasar ravishda talqin qiladi.

Bu axloq tuzumlarini chuqur o'zlashtirish bugungi yoshlar uchun ham, shubhəsiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Asar quruq pand-nasihatlardangina tashkil topgan emas. Undagi qator fikr, g'oyalarda XX asr boshlaridagi Turkiston xalqlaridagi milliy uyg'onish ruhi aks ettiligan. Xususan, millat kelajagi haqidagi qayg'urish, Vatan istiqboli haqida o'ylash, el va yurtga sodiq, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga birinchi darajali e'tibor berish kerakligi "Turkiy Guliston..."ning g'oyaviy-badiiy mazmunida alohida o'rın tutadi. "Men xastayamu millatim o'lmish nega bemor?!", deydi Avloniy kitobning boshlanishida va xasta dilni, bemor millatni davolashning asosiy yo'lli nimadan iborat? — degan savolga butun asar davomida javob berishga intiladi.

Asardagi barcha naql-hikoyatlar g'oyasidan kelib chiqadigan badliy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatning ravnaq toptirishning asosiy yo'lli — har bir shaxsning yuksak axloqli va ma'naviy go'zal, ilmli va ma'rifatli bo'lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, bilimu idrok, aqchayu iqtisod — barchasini vatan ravnaqiga va xalq saodatiga yo'naltirishdan iboratdir.

Asarda XX asr boshlaridagi milliy uyg'onish ruhi, ayniqsa, vatanga, millatga sodiq farzandlar tayyorlash zarurligi o'tkir qo'yilgan. "Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Ovrupalilar o'zimizdan olgan besh tiyinli paxtamizni keturib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo bizlar osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rninga kesak tishlaymiz!" degan fikrlar ulug' adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq bu masala xususida nechog'lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko'rsatib turibdi.

Bu — o'zligimizni anglash uchun, o'z qadrimizga yetish, istiqloini kiritish uchun aytilgan dadil va jasur fikrlar edi. Biz haqiqiy mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingina o'shanday kamchiliklarni bartaraf etish, o'shal orzu, o'shal da'vatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Hozir alohida iftixor bilan takrorlayotganimiz — muqaddas hadisda aytilgan "Xubbul vatan-minal iyomon" — "Vatanni sevmoq iymondandir" degan fikrga ham Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston..."ida alohida o'rın ajratgan. Yoxud yana bir misol. "Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotining saqlamagani aytilur, - deydi Abdulla Avloniy shu asarida.

Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Tilimizning yarmiga arabiyl, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tili ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga huquqatimiz bo'lg'on rus lisonin bilmak hayot va saodatimiz uchun

osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z erkimizga ishlatmak va so'zlamak lozimdir".

Avloniying asr boshidagi bu xasratli nidosi buyuk bobolarimiz arvohlarining ruhi yanglig' turkistonliklar boshi uzra deyarli sakson yil davomida charx urib yurdi. Axloqiy-falsafiy mazmuniga ega bo'lgan "Turkiy Guliston..." badiiy teran va go'zal asadir. U "Axloq", "Tarbiya", "Yaxshi xulqlar", "Yomon xulqlar" deb nomlangan kimsalarga bo'linadi. Ularning ichida har bir axloqiy tushunchani yuritishiga alohida pacha ajratiladi va u mo'jaz naql, ixcham hikoyatlar bilan bezaladi-pedagogik mazmun badiiy va tarixiy obrazlar vositasida yanada mustahkamlanadi.

### Topshiriq:

- 1) Matndan qoshma, juft otlarni topib yozing.
- 2) Notanish so'zlar lug'otini tuzing.
- 3) Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
- 4) O'zbek badiiy pedagogikasi tarixida o'rinni olgan asari haqida ma'lumot bering.

### ABDULLA AVLONIY

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoир, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'llim oldi. U o'z tarjimai holida yozishicha: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo'lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjimon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim".

Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi turdag'i maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'llim tarbiyaviy ishlarni amalgaga oshiradi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912), "Tarix", "Turkiy guliston va ahloq" (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1985-yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy "Qobir", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abulfayz", "Indamas" taxalluslari bilan she'r, hikoya, felyeton va kichik hajmli dramatik asarlar (1900-1917) yaratdi. Shoир o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar . va kishilarni bilmaga, ma'rifatga chaqiradi.

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy xalq vakillaridan yetishib chiqqan yirik jrnalist sifatida Toshkentda "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazetalami tashkil etadi. U

"Advokatlik o'sonmi?", "Ikki muhabbat", "To'y", "Syezd", "Layli va Majnun", "OMiklar" kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojiali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarni fosh etadi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqi maorifi, mafifati bilan bir qatorda qo'shni afg'on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham 20-yillarda muhim rol o'yagan. U ma'lum vaqt Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng Sho'rolar Ittifoqining Afg'onistondagi konsuli-elchisi vazifalarida xizmat qilgan.

Abdulla Avloniyning fidokorona mehnati munosib baholangan. U 1925- yilda "Mehnat Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. 1930-yilda esa "O'zbekiston xalq maorifi zarbiori" va til bilimi bo'yicha professor degan faxriy nomlarga sazovor bo'lgan. U 1934-yilning 25-avgustida 56 yoshda vafot etgan.

### Topshiriq:

1. Matndan sifatlarni topib yozing.
2. Sifatlarni orttirma daraja va qiyosiy daraja ko'rinishida ifodalang.
3. A.Avloniy o'z tarjimai holida qanday ma'lumotlar bergan?
4. A.Avloniy qanday mukofotlarga sazovor bo'lgan?

### FURQAT

XIX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotining rivojlaniishi katta hissa qoshgan, demokratik adabiyotning yirik siyoshi Zokirjon Furqat madaniyat va adabiyotimiz tarixida yangi sahifa ochdi va o'zbek sheriyatini yuksak bosqichga kotorildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar adabiyotida ham aks etadi. Muqumiylar, Furqat kabi progressiv shoirlaridagi asarlaridan Vatanga, xalqqa muhabbat, dostlik va sadoqat xislari kuyylanadi, hayot lavhalari realistik tasvirlarda mujassamlandi, chuqur umumlashlar berishga intilindi.

Zokirjon Xolmuxammad o'g'li Furqat 1858 yilda Qo'qon shahrida mayda savdogar-kustar oilasida dunyoga keldi.

Oilaning moddiy ahvoli 17 yoshli Zokirjoni madrasadagi o'qishni to'xtatib, ishlashga majbur etdi. U ishlab, o'z bilimini oshirishi bilan birga o'zi xam dars beradi va ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Uning lirik she'rlarida o'z zamonidan nolish, mehnatkash xalqni erkiri, yorug' hayotiga chaqirish baralla yangraydi.

Bu she'rlardagi fikrlar reaksiyon feodal - klerikal adabiyotga, diniy, afsonaviy uydirmalarga qarama-qarshi turadi. Tabiat manzarasini muhabbat, hayotiylik bilan bog'langan holda tasvirlash Furqat lirkasining eng yaxshi xususiyatligidan biridir. U mehnatkash xalqning fikr -hisolarini, orzularini , intilishlarini aks etdirgan demokratik shoirdir.

Furqat 1889- yilning may oyida Toshkentga kelib, Ko'kaldosh madrasasidagi bir hujrada istiqomat qilib, 1891 -yilning may oyigacha bu yerda yashaydi . Toshkentda Furqatning ijodiy faoliyatidagi eng yorqin, eng mahsuldar davr boshlanadi. Furqat rus madaniyati bilan yaqindan tanishib, hayotni, jamiyatdagi hodisalarni chuqurroq tushuna bordi. Uning ijodida g'oyaviy – badiiy jihatdan yuksalish paydo bo'ldi . Shoimring 1889 — 1891 yillarda Toshkentda yashab, ijtimoiy xayotda yuz berayotgan yangiliklarni kuzatib borishi uning g'oyaviy – ijodiy taraqqiyoti muhim rol o'ynadi .

Shoir "Ilm hosiyati" she'rida fan, texnikani, ijodchi insonning aql- idrokini ulg'aydi va rus ilg'or kishilarining ijobiy obrazlarini chizib berishga intildi .

Furqat rus olimlarini fan – texnika sohasiga yutuqlarini, ijodiy qobiliyatlarini ko'rib quvondi. Shuning uchun u " Zamon o'ldi o'rusiya zamoni!" deyishga xaqli edi. Furqat o'zining olijanob fikrlarini she'rlarida ifoda qilibgina qolmay, publistik maqolarda ham ilg'or rus madaniyatini targ'ib qildi . U o'zbek shoirlari orasida birinchi publistist sifatida rus xalqi bilan do'stlashish, uning madaniyatini, fan-texnikani o'rganish uchun rus tilini chuqur bilish kerakligini uqtirdi.

XIX asr oxirlarida o'zbek adabiyotida taromana yangi fikr- g'oyalarni targ'ib etgan Zokirjon Furqat asarlari o'zining g'oyaviy-badiiy yuksakligi, musiqiyligi bilan o'quvchilarni mamnun etib keladi.

### Topshiriq:

1. Majhul nisbat shaklida kelgan fe'llarni topib, daftaringizga yozing.
2. O'zlik olmoshi ishtirok etgan gaplarni yozing.
3. Furqat hayoti va ijodi haqida nima larni bilasiz?
4. Shoimring Toshkentda yashab yurgan davrida jamiyatdagi hodisalar uning ijodiga qariday ta'sir ko'rsatgan?

### UVAYSIY

Jahon otin Uvaysiy lirik she'rlaridan iborat devon va bir necha dostonlar sohibasi bo'lgan o'zbek shoirlaridandir.

XIX asrdagi tazkira va tarix asarlarida shoiraning asli marg'ilonlik bo'lib, Oo'qonga keyinchalik kelib qolgani hamda shoh saroyida Nodira bilan yaqin tutinib, bir necha muddat shu yerd a yashaganligi aytildi.

Jahon otin 60 yildan ko'proq umr ko'rgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida va Andijon Davlat pedagogika instituti fondlarida saqlanadi.

Shoiraning Navoiy, Fuzuliy g'azallariga bog'langan muhammaslari, naziralari, Bedil she'la riga tatabbu'lari Uvaysiy iste'dodi balog'atidan dalolat beradi . Uning ijodida insonni e'zozlash, tabiat noz-ne'matlardan bahramand bolishga undash, do'stlik, vafo, sadoqatni ulug'lash kabi motivlar kuylanadi

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Uvaysiy uzoq vaqt muallimalik qilgan. Shoira talabalari uchun tez fikrash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston-topishmoqlar yaratgan. Uning anor haqidagi chistoni Uvaysiy ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko'zga tashlanadi. Ul na gumbazdir eshigi, tuynugidin yo'q nishon, Necha gulgun po'sh qizlar anda aylabdir makon? Sindurib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar. Yuzlarida parda tortig'liq turarlar - bag'ri qon.

Uvaysiy merosi o'zining latif mazmuni va dilkash badi iyligi bilan yillar, asrlar davomida yashab kelmoqda. Shoira she'rлari bugungi o'quvchilarimizga ham katta zavq baqishlaydi. Ular xalq orasida keng yoyilgan. Shashmaqom ohanglarida haligacha kuylanib keladi.

### Topshiriq:

1. Matndagi fe'llarni topib, ularga so'roq bering.
2. Notanish so'zlarini aniqlab lug'at tuzing.
3. Uvaysiy hayoti va ijodi haqida gapiring.
4. Matnni o'qib, rus tiliga tarjima qiling.

## MAHZUNA

XIX asrning yana bir atoqli shoirasi Mahzunadir. Bu shoir ham Nodira va Uvaysiylar bilan zamondosh edi. Shoir Pisandiying bergan ma'lumotiga qaraganda (Pisandiy Avaz Muhammad ug'li 102 yoshga kirib 1918 yilda Qo qonda o'lgan) Mahzuna Qo'qonning yuqori G'alchasoy dahasidan bo'lib, daha qorovuli Boshmon degan kishining qizi bo'lgan. Daha mana shu Boshmonning nomi bilan aytilib, hozir ham Boshmon mahallasi deyiladi.

Mahzunaning she'rлari uming xiyla bilimli va yetuk shoir ekanligini ko'rsatadi. Shoir Fazliy ham Mahzunaning kimligi va ijodiy tajribasi haqida xabar berib: Mahzuna Qo'qonlik bo'lib, ayollar ichida kam topiluvchi iftixorgal oyiq bir shoir edi, deb uning bilimiga, iste'dodiga tan beradi.

Mana shu o'tkir fikrli, hozirjavob shoir Mahzuna o'z ijodi bilan davrinining kuchli literik shoirlari qatoriga kira olgan edi. Uning bu kamolotini e'tirof qilib Fazliy yana: Mahzuna ham ma'noda Zebunniso va Nodira kabi kamyob bo'lib, Qo'qonning mashhur shoiralaridan edi, deb maqtaydi.

Shunchalik ijodiy kamolotga ega bo'lgan shoiraning ijodiy mahsuloti ham ko'p bo'lishi shubhasiz. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan yoki hozirgacha topilmagan. Biz Mahzuna ijodi haqida so'z ochar ekanmiz, faqat "Majmuatush-sharo" dagi birikki forsi g'azali va Fazliy bilan qilgan bir o'zbekcha, bir forscha rasi va yana bir o'zbekcha muhammasi ustidagina gapira olamiz.

Mahzuna she'rlarida ham u davr ayollariga xos tutqunlik, arning ta'qibi va g'azabi ostida mahzun umur kechirish kabi hayotiy voqealar aks etdi.

E, meni Mahzun musofirg'a malomat be sabab,  
Tutm asam farmonimi mardud etib aylar g'azab.

Mahzunaning shoir Fazliy bilan qilgan o'zbekcha va forscha ikki mushoirasi o'zbek adabiyoti tarixida juda mashhurdir. Bu mushoira shoiraning aql va idrok, mushohada va ijodda hozirjavob lirik san'atkor ekanligidan darak beradi. Fazliyning:

Yuz ofarin so'zingga lubbi lubbob ko'rmay,  
Arzi jamol etarmu oyina ob ko'rmay?

deb qilgan so'z o'yiniga hozirjavoblik bilan Mahzuna:

Kimdan chiqar bu so'zlar, bag'rin kabob ko'rmay.  
Ganj o'lmag'ay tuyassar holin xarob qo'rmay

deb chiroyli payrov qila boradi.

Haqiqatan ham, Mahzuna she'rlari mazmundo'ligi, badiyili, ifodalardagi ayrim originallik, satrlarning o'ynoqiligi, jozibadorligi va lirik ilqiligi bilan yoqimli edi.

Mahzuna ham o'zbek xalqining o'tmishtagi Zebunniso, Nodira, Uvaysiy kabi aziz farzandlari qatorida turuvchi sevimli bir shoirasidir.

### Topshiriq:

1. Matndan olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing
2. Kabi ko'makchisi bilan kelgan gaplami matndan topib, daftaringizga ko'chiring.
3. Shoir Fazliy Mahzuna haqida qanday ma'lumotlar qoldirgan?
4. O'zbek adabiyoti tarixida juda mashhur ikki mushoirasi haqida gapirib bering.

## MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA

(1869-1937)

Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik, charx tortish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Onasi Zaynab xola xohishiga ko'ra u qo'shnisi Manzura otindan xatsavod o'rGANACI. eski maktablarda ta'lim oladi. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, Muqimiy va Furqat kabi allomalar ijodini chuqur o'zlashtirib, she'rlar mashq qila boshlaydi.

Turkistorada chiqadigan «Turkiston viloyatining gazeti» kabi Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda chiqadigan ro'znama, oynomalar bilan qiziqadi. Boku va Tiflisda chop etilgan ozor tilidagi asarlarni mutolaa qiladi. 1893-1898 yillarda u Qo'qonda yashab, Muqimiy, Furqat ta'sirida «Vahshiy» taxallusi bilan hajviy asarlar yaratadi. Ayniqsa, uning «Dakaning», «Bedanang», "Ayting bu so'zimni", «O'pay», «Beg'ubor dardu olam» kabi hajviy va lirik g'azallari e'tiborga loyiq edi. Biroq hali Muqimiy hajviyasi zaridan qutulib ulgurmagan zamonha hokimlari yosh Muhammadsharifning keskin tanqidiga qarshi hujum boshlaydilar. Oqibatda u 1899 -yili Qo'qondan Chustga qaytib keladi. Ikki yil o'tgach, uni amir-amaldorlar «ul beadab va bad aslni» dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar. O'zining yozishicha, «so'ng Chustdan qochib, Mir viloyatiga tafakkur qilib, muddati 14 yil har mamlakatda yurub» («Turkiston viloyatining gazeti», 1914, 10-son) umr kechiradi.

Xuddi shu 1900-1914 yillar So'fizoda dunyoqarashida muhim bosqich hisoblanadi. Avval Bokuga borib, Jalil Dulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodiy kabi ozarbayjon adabiyotining taraqqiyat parvar vakillari bilan tanishadi. So'ng Arabiston shaharlari, Hindiston va Turkiya mamlakatlarida oddiy mehnatkash xalq hayotini ko'radi. 1910-1913-yillarda Qo'ng'irotda muallimlik qiladi, ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlarini yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan ro'znama va o'ynomalarda tez-tez ko'rina boshlaydi. Ayniqsa, uning mahoratidan darak beruvchi «O'zbek xonimiga», «Xonimlar isminda», «Vatan», «Muslimalar» asarlari e'tibori edi.

1913 -yilda Chustga qaytib kelib, yetim maktablari ochadi va unda muallimlik qiladi. Dunyoviy fanlarni yengil va yangi usulda o'rgatishga bel bog'laydi. Ayni chog'da ayrim shariat peshvolarini, boy-amaldorlarni o'tkir hajviy tig' bilan savalaydi. Bunga chiday olmagan hokim sinf vakillari uni halok etish payiga tushadilar. Buni sezgan shoir So'fizoda 1915 yili yana xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo'ladi.



Quvdi meni johillar o'shandog' vatanimdan,  
Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan,

- deb, e'tiqodi, irodasini yana bir bor tiklab oladi. Bu safar davomida u Hindistonda, so'ng Afg'onistonda o'qituvchilik bilan mashg'ul bo'ladi. 1918-yilda Afg'oniston maorif vazirining o'rinosini sifatida Turkistonga afg'on vakolatxonasining tilmochi bo'lib tayinlanadi. 1918 yil so'ngida u afg'on arboblari bilan O'zbekistonga qaytib keladi va shu yerda umrinning oxirigacha xizmat etadi. Yana munofiqlar qarshiligidagi uchrab, olti oyga qamaladi. So'fizoda butun umr qiyinchiliklar ko'rsa ham, o'z xalqiga xizmat etishdan zarracha to'xtamadi. Uning asarlari «Qizil O'zbekiston», «Mushtum», «Farg'ona» kabi ro'znama va oynomalarda tez-tez bosilib turdi.

1925 yil 13 avgustda «Farg'ona» gazetasida «Xushchaqchaq qalamlar» sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she'rlari bosildi. Uning «Haqiqatdan ko'z yunganlar», «Qalaysizlar», «Saylovg'a» kabi she'rlarida o'sha suronli yillarda tahlikalari ustida mulohaza yuritiladi. 1934 -yilga kelib, «Bayram nashidalari» nomli dostoni nashr etiladi. Unga o'zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan bir qatorda 1926-yil 27-fevralda O'zbekiston xalq shoiri degan yuksak unvon beriladi. U 1937-yilda o'g'ir betoblikdan va fot etadi.

#### Tops hiriq:

- 1) Matndan jift va takror so'zlarni topib yozing.
- 2) Qo'shma fellar ishtiroketgan gaplarni daftaringizga yozing.
- 3) Shoir "Vahshiy" tahallusi bilan qanday asarlar yaratgan?
- 4) So'fizoda qanday lavozimlarda ishladi?

#### SADRIDDIN AYNİY (1878-1954)

XX asr o'zbek va tojik adabiyotlariga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, olim va jamoat arbobi Sadriddin Ayniy Buxoro amirligiga qarashli G'ijduvon tumanining Sotkare qishlog'ida 1878-yilning 15-aprelida dunyoga kelgan.

Olti yoshidan maktabga qatnay boshlagan. Sadriddin 1890-yilda Buxoroga kelib, Mir Arab, Badalbek, Olimxon madrasalarida ta'limga olgan. Madrasani tugatgach, yangi usul maktablarida muallimlik qilgan.

Sadriddin Ayniyning adabiy faoliyatini o'tgan asrning 90-yillarda she'r yozish bilan boshlangan. Uning birinchi asari «Guli surx» — «Qizil gul» 1897-yili



yaratilgan. Shundan so'ng maktablar uchun «Tahsib us-siyobon» — «Bolalar tarbiyasi» nomli o'qish kitobini (1909) tuzib, nashr ettirgan. 1917-yil fevral inqilobidan keyin Markaziy Osiyorning turli shaharlarida istiqlol uchun kurash harakatlari boshlanib ketdi.

Sadriddin Ayniy amirlikka qarshı kurashgani uchun zindonga tashlandi. U Oktabr to'ntarishi yillarda o'zbek va tojik tillarida da'vetkor she'rlar, marshlar yaratib, ularni «Inqilob uchqunlari» (1923) to'plamida nashr etdi. Yozuvchi «Buxoro jalloddari» (1922) qissasida amir-amaldorlarning dahshatli jabr-zulmini, gunohsiz kishilarni o'rta asr qynoqlari bilan qatl etishlarini, «Odina» (1927) qissasida esa mehnatkash xalqning og'ir qismati va fojeali hayotini jonli tasvirlab berdi.

Sadriddin Ayniyning dastlabki «Qullar» romanı 1934-yilda Toshkentda o'zbek tilida, 1935 yilda esa Dushanbeda tojik tilida nashr qilindi. «Qullar» romanining bosh qahramoni tarixni harakatga keltiruvchi kuch — xalq va uning sodiq farzandlaridir, degan xulosaga yetaklaydi. Tarixning ma'lum bir davrini qamrab olgan bu roman xalq tarixini, uning hayoti va kurashini realistik aks ettiргan. Biroq «Qullar» romanining so'nggi, beshinchı qismidagi jamoa xo'jaligi qurilishi yillari tasvirida jindak tarixdan chetga chekinish ham yo'q emas. Chunki romanda davrning ijobjiy tomonlari bo'rttirib ko'rsatilgani holda Sho'ro hukumatining jamoalashtirish siyosati xas po'shab o'tilgan. Sadriddin Ayniyning «Sudxo'rning o'limi» (1937) qissasidagi bosh qahramon Qori Ishkamba jahon adabiyotidagi Plyushkin yoki Gobsek kabi murmoz obrazlar bilan bir qatorda turadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda Sadriddin Ayniy «Marshi intiqom», «Muqanna qo'zg'oloni», «Temur Malik» kabi vatanparvarlik ruhidagi ilmiy va badiiy asarlarini yaratdi. U xalq ijodidan, folklor asarlaridan keng foydalangan holda «Yeti boshli dev» asarini ham yaratdi.

Sadriddin Ayniyning urushdan keyingi tiklanish yillarda yaratgan asarlar orasida to'rt jildlik «Esdaliklar»i (1949-1954) alohida ajralib turadi. Sadriddin Ayniyning «Esdaliklar», «Sudxo'rning o'limi», shuningdek, «Doxunda» va «Qullar» romanları bolgar, nemis, polyak, venger, xitoy, frantsuz, rumin, hind, chek va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyoti tarixi yuzasidan katta ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Uning O'rta osiyolik buyuk shoir va olimlar — Rudakiy, Sa'diy, Ibn Sino, Vasfiy, Bedil, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi siymolar haqida yozgan ilmiy asarlar nihoyatda qimmatli. Unga filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950) ilmiy darajasi, Tojikistonda xizmat ko'satgan fan arbobi (1940) unvoni berilgan. Adib O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi (1943) hamda Tojikiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi va birinchi prezidenti (1951-54) qilib saylangan. Bir necha yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat dorilfuruuning professori va Tojikiston fanlar Akademiyasi tashkil topgan

kundan boshlaboq uning Prezidenti sifatida xizmat qilgan. U 1954-yilning 15-iyunida Dushanbe shahrida vafot etgan.

### Topshiriq:

- 1) – li, – chi, – chilik, qo'shimchalari yordamida yaralgan otlarni topib ko'chiring.
- 2) MATndan ko'makchi va bog'lovchilarni topib, ularning vazifasini aniqlang.
- 3) S. Ayniy adabiy faoliyatini qachon boshlagan?
- 4) Ayniy qalamiga mansub dastlabki asarining nomini ayting.

## TAVALLO HAYOTI VA IJODI

(1883 – 1937)

«Ayvonda muk tushib, Tavalloning she'rlarini o'qishga kirishaman. O'qiyman, diqqat berilib, uzoq o'qiyman... she'rlar rangdor, jonli, tili o'ziga xos, ravon»  
Bu mashhur yozuvchimiz Oybekning «Bolalik» asarididan parcha.

XX asr boshida Toshkentda kamol topib, xalq o'rtaida katta shuhrat qozongan, «she'rlari rangdor, o'ziga xos va ravon» istedodli shoir To'lagan Xo'jamyorov – Tavallo 1883-yil Toshkentda Ko'kcha dhasasi Obi Nazir mahallasida dunyoga keldi. Uning otasi Xo'jamyor Jiiyanboyev savdo ishlari bilan shug'ullanar, o'z kasbi tufayli Avliyo ota, Prjevalsk shaharlarda ko'p bo'lar edi. To'laganning o'qishi va uning kelajagi uchun Xo'jamyor aka barcha sharoitlarni mujassam qilgan. Bo'lajak shoir ibtidoiylar bilimi eski maktabda oldi. Yuqori tahsilni esa «Beklarbegi» madrasasida, keyinchalik rus-tuzem mənaktabida o'qidi. Otasining ko'magi va maslahati bilan 1900-yilda 17 yoshida Prjevalsk shahriga borib Usmonbek Solihjonboyev degan kishining qo'lida ish yurituvchi (priyazchik) bo'lib ishlay boshladi. 1909 yilda otasining bevaqt vafotidan keyin ko'p o'tmay, To'lagan Toshkentga qaytadi va ota kasbini qiladi. U shahar savdo shirkatlaridan biridan ish yurituvchilik qila boshlaydi. 1910-14-yillarda savdo ishlari bilan xuddi otasi kabi Prjevalsk, Avliyo ota, Olma ota, Yorkand taraflarga tez-tez borib turgan.

Tavallo Zuhra ismli qizga uylangan. Rahbar, Sanobar, Maqsud, Mahmud ismli 4 farzandi bo'lgan.

1910-yillardan shoirning she'r va maqolalari vaqtli matbuotda «Tavallo» taxallusi bilan bosila boshladi. 1914-yil 30-avgustda Munavvarqori, Avloniy, M.Podshoxo'jayev, Husanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li (yozuvchi Said Ahmadning otasi) kabi (jami 12 kishi) jamaoa bilan birgalikda Toshkentda «Nashriyot» shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo'lga qo'yadilar.

1915-yilda Avloniy tomonidan tuzilgan «Turon» jamiyatida faoliyat ko'rsatdi. Shoirning asl tirikchilik manbai savdo bo'lgan. U ota kasbidan uzilib ketmaydi. 1917

yilga qadar səvdo ishlərini davom ettiradi. Adib ijodiy sohadan boshqa hamma ish bilan shug`ull angan. Ichki ishlardan tortib, ma`muriy-xo`jalik ishlərigacha borgan. Qaysi sohada ishlamasın, shoir ijod qılışdan chekinmədi. Chunki ijodkor bo`lib shakllanışında Toshkent adabiy muhiti, ayniqsa, «Beklarbegi» madrasasining roli katta bo`ldı. Shu madrasanıq nufuzini belgilagan sayramlıq shoir Yusuf Saryomiy unga ustozlik qılınmışdır. Taxallusni ham Saryomiy unga təvsiya qılınmışdır.

Uning hayotlik chog`ida chop etilgan yagona she`riy to`plamı «Ravnaqul islom» kitobıdır. Mazkur she`riy to`plamı shoir ijodunu baholashdagı yagona manbadır. To`plam hajman uncha katta emas – 70 tacha she`r kiritilgandır.

Tavallo yaxshığına publisist ham bo`lgan, ammo məqolalarının hamması ham yetib kelirmən, yetib kelgəni ham to`plangan emas, hozırcha tarqoq holda.

Tavallo «Mushtum» hajviy jurnalının faollarından bo`lgan. 20-yillarda «Mag`zava» taxallusi bilan bir qancha hajviy she`rları chop etilgandır.

Shoir zəmon voqealariga befarq emas edi. Ko`p she`rları hayotda ro`y bergen real voqealar haqida.

Shoir türk, tatar, ozarbayjon adabiyoti bilan yaxşı tanış bo`lgan. Tatar shoiri Abdulla To`qay bilan ham shoir, ham şəxs sıfatıda munosabatları samimi bo`lgan. 1913 yilda Abdulla To`qayning vafotidan churqar qayg`urgan shoir matbuotda «she`rlaridan ko`p bəhralar olg'onlig'i»ni, turmushi ham To`qayning «tarjimai holiga niyoyatda o`xshab ketganligini» yozadı. «Tatar qardoshlarımızning mashhur shoiri marhum Abdulla Afandi To`qayevning she`rina tazmin» nomi bilan uning «Jumla fikrim kecha kunduz Sizga oid millatim», - deb boshlanadıqan she`riga nazirasını e`lon qıladi.

Shoir Tavallo she`riyatida millat, uning shu kündəgi ahvoli, jahon hamjamiyatıdagi tutgan o'rni haqida kuylaydı. Professor B.Qosimov ta'kidlab o'tganlaridek, «Millat», «Milliyat» tushunchalariga Avloniy va Tavallolarga qadar she`riyatımızda bünchilik ko`p e`tibor berilgən emas edi.

Darhaqıqat, Tavallo Vatan mavzusiga alohida e`tibor beradi. She`rlaridan biri hatto «Suyuklı Vatan haqında» deb atalğan. She`r «Movarounnahdur tarixda bizlarga Vatan» satrı bilan boshlanadı. She`rning boshidanoq Vatanning qadr-qiyəmatı haqida gap keta di:

«Arzıg`ay bizlər sanga xizmatda bo`lsak jonu tan», - deb yozadı shoir va «Vatan»ga «jon u tan» ni qofiya qıladi. Vatan qadri haqidəgi bu ta`rifiy fikr, misramamisra, baytna-bayt taraqqiy topıb boradı va g`azal maqtaida:

Kech gunohini Tavalloni, Vatan, ezgu Vatan.  
Bildi asling, qıldı vasfıng, bu vatandandur badan

misrasi bilan tugallarnadi. Sho'ir maqta'da Vatandari gunohini kechmoqlikni so'rayapti. She'r matla'ida har bir vatan farzandining uning oldidagi burchini belgilagan edi, so'ngida unga munosib xizmat qila olmadirn, deb o'yaydi.

Ko'rindiki, Tavallo hayoti va ijodiy faoliyatida millat va Vataniga xizmat hissi hamda shu munosabat bilan o'z-o'ziga hisob berish keng o'ririni egallaydi. Uning she'rlaridan biri «O'z vijdon-v ujudima xitob» deb nomlangani. Muxammas shaklida yozilgan ushb'u she'ming har bandi «Chiq ichirndan, jonim ey, san manga hamdamlashmasang» satri bilan yakunlanadi.

Tavallo she'rlarida «Turon» («Ko'rasisz Turon eli, Qarsda musulmonlardur...», «Yordam etmak kuni yetdi siza Turon ahli...», «Yosh-qari qadrini bil, Turon elin mehmonidum»), «Turkiston» («Bahora do'ndi Turkiston, ochildi g'unchalar xandon...», «Shuncha Turkiston elinda nodon ahli ko'b vale...») atarmalari, tabiiyki, ko'p uchraydi.

Tavallo xalq hayotini ro'yrost ko'rsatishda she'r, shoir zimmasisiga katta mas'uliyat yuklaydi:

Kel, Tavallo, bo'l musavvir, ol qalamni qo'lg'a san,  
Chek frontlar suvratin, ko'rsun hama naqqoshlar.

Shoir ijodida hurriyat mavzusiga keng o'rinn berilgan. U inson erkini hamma narsadan ustun qo'yadi. U xotin-qizlar hurriyatiga keng e'tibor berdi. Masalan «Qarindosh va hamshiralarimiz mazluma qizlar tilindan» she'rida qizlar otalariga murojaat qilishib, ularni ham o'qitishni, ularga ham insoniy munosabatda bo'lishni so'raydilar, hatto teng nikoh haqidada so'z ochadilar.

Shoiming bir qator she'rlari davr yangiliklari voqealarini haqidagi Chunonchi, «Oyna» jurnali, «Sadoyi Turkiston» gazetasining chiqishlari, Ismoilbek Gasprinskiyning vafoti, Birinchi jahona urushi va u bilan bog'liq voqealar Tavalloning diqqatidan chetda qolgan emas. O'zbek teatri va uning faoliyati haqidagi 4 ta she'r yozgan. Shulardan biri Behbudiyning «Padarkush» dramasining ilk sahnasi haqida. Tavalloning «Ravnaqul islom» to'plamidagi she'rlari ana shunday keng qamrovli. She'rlar aruzda yozilgan bo'ssa-da, ruh va mazmunda barmoq vazniga hamohang. Shoir barmoqqa 20-yillarda hajviyalarda murojaat qildi va bu davr o'zbek hajviy she'riyatining puxta namunalarini yaratdi.

To'lagan Xo'jamyorov Tavallo 1919-yilda Osipov qo'zg'oloniga qatnashganligi bilan ayblanib hibsga olindi va bir qator nohaq ayblar bilan otib o'ldirishga hukm qilindi. 1937-yil 10-noyabrida hukm ijro etildi. 1968-yil 18-oktabrda oqlandi.

Shoir Tavalloning hayoti ana shunday ayanchli tugadi, biroq uning millatni erk va adolatga uyg'otgan jo'shqin, ehtirosli she'rlari abadiy tirik. Ular o'zbek

she'riyatining maydonga kelishida muhim bir bosqich bo'lib tarixga kirdi va milliy uyg'Onish davri o'zbek she'riyatini yuzaga chiqishida ma'naviy omil bo'la oldi.

### Topshiriq:

- 1) Matndan sifatdosh va ravishdosh shakillaridagi so'zlarni topib, o'zak va qoshimchalarini belgilang.
- 2) MATnda qanday bog'lovchilar ishtirok etgan? Misollar keltiring.
- 3) 1910-yillardan boshlab shoir she'rlari qanday taxallus ostida bosila boshlagan?
- 4) Shoir oz ijodida qaysi mavzularga ko'roq etibor berган?

### ZAVQIY (1853—1921)

Zavqiy (1853-1921) lirk shoir. Shoir ijodida muhabbat lirkasi asosiy o'rinnegallaydi. Zavqiying «Kelmasa kelmasun netay?» radifli g'azali o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal an'analarini davom ettirib yozilgan asar hisoblanadi. Shuningdek,

Zavqiy Muqimiy boshchiligidagi satirik mактабning yetakchi namoyandalaridan biridir. Shoirning «Zamona kimni?», «Dar mazammati zamona», «Bo'l», «Muncha ko'p» kabi she'rlari ijtimoiy satiraning yuksak namunalari bo'lib, ularda oddiy xalqning kulfati va mashaqqatli hayoti, ayananchli ahvoli real suratlarda tasvirlanadi. Zavqiying «Voqeai qozi saylov», «Qahatchilik» dostonlari ham muhim ijtimoiy hodisalarini aks etiruvchi dostonlardir.

Zavqiy (taxallusi; asl ismsharifi Ubaydullo Solih o'g'li) (1853 — Qo'qon — 1921) — o'zbek shoiri. Qo'qondagi "Madrasai oliy" va "Madrasai chalpak"da tahsil olgan (1870—74).

Maxsido'zl ik bilan shug'ullangan. Ma'lum muddat mirzalik qilgan, Xo'jand, Samarqand, Buxoro, Toshkent. O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarida bo'lgan. Tog'asi Muhammad Siddiq bilan Madinani ziyorat qilgan (1900). 1903 yil Qo'qonga qaytgan.

Zavqiy murntoz o'zbek adabiyoti an'analarini davom etirgan, Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Nodim, Rojiy kabi namoyandalari bilan ijodiy hamkorlik qilgan. Zavqiying g'azal, muhammas, muvashshaxlari ("Aylab keling", "Radifi Zavqiy" va b.)da o'zi yashagan muhit va tuzum, mehnat axlining ahvoli tasvirlanigan. U turmush alam-iztiroblari, hijron azobiga visol umidi, vafodorlik, sadqat tuyg'ularini qaramaqarshi qo'yadi ("Yuzingni ko'satib avval", "Bodai vasling" va b.), kishilarni turmush go'zalliklaridan zavqlanishga, uni sevishga

chorlaydi. Zavqiyning bir qancha she'rlari ("Kajdor zamona", "Ajab zamona", "Abdurahmon shayton" va b.)da mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik, chor ma'muriyati himoyasida bo'lgan ayrim noplarning kirdikorlari fosh etiladi. Zavqiyning "Muncha ko'p" radifli hamda "Ajab zamondur, ahbob, bosh qotib qoldi" misrasi bilan boshlanuvchi muhammaslari 19-asr boshlari she'riyatidagi eng o'tkir ijtimoiy asarlar i jumlasiga kiradi.

Zavqiy ijodiy mero sida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzui ham katta o'rini tutadi ("Yangi Qo'rg'on qishlog'i", "Suv janjali", "Shohimardon sayohati" va b.). Bu asarlар Muqimiyning "Sayohatnomá"si ta'sirida yozilgan. Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo'lini davom ettirib, o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi ("Obid mingboshi haqida hajv" va b.). Zavqiyning "Voqeai qozi saylov" (1909—10), "Qahatchilik" (1916) kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmiga qarshi namoyishlari aks ettiriladi.

"Ajab ermas" radifli muhammasi 20-asr boshlari o'zbek she'riyatida muhim hodisa bo'ldi. Bunda sho'ir mustamlaka asoratida ezi layotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi. Ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi salbiy hollar ustidan bir qator she'rlari ("Ta'rifi kalish", "Otim", "Fonus", "Sigirim", "Pashshalar" va b.)da zaharxanda bilan kuladidi. Shoiring ishqiy g'azal va muhammaslari o'sha davrlardanoq xalq hofizlari tomonidan kuyga solinib, ijro etilgan ("Yor kelur zarrona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?!", "Kulbam aro, ey maxliqo, bиро'l xirom aylab keling" va b.).

Zavqiyning she'rlari turli bayoz, majmua, vaqtli matbuot hamda og'zaki manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Qo'qon shahridagi bir mahalla, qishloq, mакtab va ko'chaga Zavqiy nomi berilgan.

#### Topshiriq:

- 1) Fe'llarning orttirma, o'zlik va majhul nisbatlari kabi lug'aviy shakillarda kelganlarini alovida — alovida ko'chiring.
- 2) Matndan mavxum otlarni topib yozing.
- 3) Sho'ir ijodida qanday lirika asosiy o'rinni egallagan?
- 4) XX asir boshlarida o'zbek sheriati da qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

## AHMAD DONISH

(1826-1897)

«Ahmad Kalla», «Ahmad məxdum» nomlari bilan zamonasida shuhrat qozongan va ilmiy-adabiy təfakkurning yanganishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Ahmad Donish XIX asr Buxorosining qomusiy ilm əgalaridan edi. U Buxoroda shofirkonlik mudarris oиласida tug'ildi. Otasi madrasasida o'qidi. Yoshligida naqqoshlik, rassomlik, xattotlik hunarlarini o'rgandi. Tarix va falsafaga ko'ngil qo'ydi. Zehni, salohiyati bilan darrov ko'zga tashlandi.

1857-yilning kuzida Amir Nasrulloning Rusiya imperatori Nikolay vafotiga ta'ziya bildirish va valiahed Aleksandr I ning taxtga chiqishini qutlash uchun yuborilgan elchi Mullajon Miroxurga kotiblik qiladi. Peterburgda uch oy san'at-madaniyat obidalarini bilan tanishadi.

1869-yili yangi shart-sharoit taqozosini bilan Amir Muzaffar Peterburgga yana elchi yubordi. Bu elchilik yarim vassalga aylangan davlatning hokimi mutlaq ko'nglini olish harakati edi. Uning ham kotibligiga Ahmad Donish tanlandi. 1873-yilning oxirida Ahmad Donish uchinchi marotaba elchilik tarkibida Rusiyaga yo'l oldi. 1874 yil yanvar - mart oylarida Peterburgda turib qaytdi. Aleksandr II bilan uchrashdi. So'n groq bularni qog'ozga tushirdi.

Hozirda O'zFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida Ahmad Donishning 16 qo'lyozma asari saqlanadi. Aksariyati uning o'z qo'li bilan yozilgan asl nusxalardir.

Muallifning «Navodirul-vaqoe» asari 15 yil davomida, 1870—1885 yillar oraliq ida yozilgan tarixiy, falsafiy, memuar asardir. 23 bobdan tashkil topgan bu asar haligacha to'la nashr etilgan emas. Uning ayrim boblarigina chop qilingan. Shu jumladan, uning bir qismi 1964 yili o'zbekchaga ham ag'darilgan va bosilgan edi.

Kitobning ikki bobida Rusiya safari taassurotlari berilgan. Chunonchi: VII bob Ahmad Donishning 1869 yilgi Rusiya safariga bag'ishlangan va 1957 yilda chop etilgan. VIII bob podshoh Aleksandr II ning qizi Mariyaning 1874 yilda bo'lgan nikoh to'yiga yuborilgan elchi Abdulqodirbek safari haqida. Qolgan boblari xilma-xil mavzuda. Masalan, ota-onasi va farzand munosabatlari (1-bob), mol-dunyo (2-bob), tarix (Z-bob), olim va johil taqdiri (4-bob), vaqt qadri (5-bob), safar qilish foydalari (b-bob), ilm-fan manfaati (9-bob), haqiqiy va majoziy ishqhamda uning odobi (10-bob), nikoh (11-bob), taqdir (12-bob), kasbkor (13-bob), jism va ruh (14-bob), yer tuzilishi va ma'danlar (16-bob), tush ta'biri (19-bob), Bedil baytlari (20-bob), ayrim hadislar talqini (22-bob), inson axloqini belgilash (23-bob) kabi. Ta-maddun



(madaniyat) haqidagi risolasi (15-bob) va xilma-xil voqeiy hikoyalar (18, 21-boblar) ham undan joy olgan. Ularning har biri ham muhim va qiziqarlidir. Masalan, so'nggi risolada podshohning xalq oldidagi mas'uliyati 10 shart asosida ko'rsatib beriladi. Shu jihatdan, u bir tomonidan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»idagi bek va raiyat munosabatlarini esga tushirsa, ikkinchi yoqdan, Russoning «Ijtimoiy shartnomasi»ni yodga soladi.

Yoki tanlagan usulini oling. Muallif kasb-hunar egallash haqida yozar ekan, uni o'z o'gillariga «vasiyatnomasi»ga aylantiradi. Va bu orqali o'quvchida katta qiziqish va ishtiyoq paydo qiladi.

Darhaqiqat, adib boshidan kechgan baxtli-baxtsiz, shirin-achchiq kunlar, hayot, sayohat xotiralari, safarlar davornida do'stlardan tinglangan hikoyalar va bulardan kelib chiquvchi ibratlar hech kimni be farq qoldirmaydi. Muhimi shundaki, bu ibratlar XIX asr Yevropa tamaddunini o'z ko'zi bilan ko'rgan, ayni paytda, shu davr Sharq ilm-fanining Turkiston sarhadidagi eng buyuk namoyandasasi vasiyatlari edi. Kasb-hunarga, ilm-fanga mehr, halollik, mamsab-martaba, mol-dunyo hirsidan uzoq bo'lish, bani basharga xayrixohlik, har qanday holda ham yaxshilik qilish, islomiy axloq bu vasiyatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Diqqatga sazovor yana bir narsa shundaki, Ahmad Donish farang donishmandlari, «siyosiy hukamolar»i haqida yozди. Ularning «ixtilol va inqiloblar tarixini chuqur o'tganib», barcha haqsizlik va adolatsizlik sababini «davlat ishlarining yolg'iz podsho qo'lida bo'lishi»dan topganliklarini ma'lum qildi.

Ular shu sababli eski «davlat tuzumini o'zgartirganlar», deb yozdi. Ular «huquqda hammaning tengligi»ga rioya etishlari, darajalar esa, kishilarining «fazl va hunarlarining oz-ko'pligiga qarab bo'lishi», «davlatni hammaning o'rтasida turgan kishi idora qilishi» haqidagi «qonunlar chiqarganlari»ni uqdirdi. Yevropaning «barcha davlatlami yengib, butun dunyoga ega bo'lishlari»da bu asosiy omil bo'lganini ta'kidladi.

Darhaqiqat, ushbhu vasiyatnomasi ta'limiy-axloqiygina emas, muhim ijtimoiy-siyosiy mazmun ham tashir edi.

Shuningdek, uning «Majmuai hikoyati Ahmad Kalla» («Ahmad Kalla hikoyatlari to'plami») (1877), «Isloh miyon shia va sunn» («Shia va sunniyi yarashtirish haqidagi nasihat») kabi risolalari, «Daftari taqvim» («Kundaliklar»)i ham muhim ahamiyatga ega.

Ahmad Donish urmaring oxirlarida «Tarix risolasi» kitobini yozdi. Bir yoqdan, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Abdullaxon, Subhonqulixon, Shohmurod, ikkinchi tarafdan, Arnir Muzaffar sultan ati misolida har bir davlatning taraqqiy va tanazzuli sabablarini tahlil qildi. Birinchisi guruhni mujaddidlar (din va davlatni poklovchilar) deb hisobladi.

Bu asarlar sodda va jonli tili, ifoda uslubi bilan o'tmishdoshlarinikidan ajralib turadi. Sinchkov ilmiy mulohaza, tanqidiy va tahliliy tafakkur ularga alohida ruh bag'ishlaydi. Tasvir va ifodadagi dramatizmga moyillik, suhbatdialogdan unumli foyda lanish muallif fikrlarining o'quvchi ongiga yetib borishini osonlashtiradi.

### Topshiriq:

- 1) Matnda nolmoshlarni topib, ulami guruhlarga ajratib yozing.
- 2) Tomon, orqali ko'makchilari bilan kelgan gaplarni kochiring.
- 3) Ahmad Donishning qanday memuar asari mavjud. Bu asar haqida ma'lumot bering.
- 4) Ahmad Donish umrining oxirida yaratgan asari qanday nomlanadi? Unda qanday navzularga e'tibor berigan.

### ADABIYOT MUZEYI

1968- yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk Navoiyga, uning ijodiga bo'lgan muhabbatiga yorqin misoldi.

Muzey sahnidagi ko'kalamzor, gulzor bog'da Navoiy haykali o'rnatilgan. U marmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ijodkorlarning byustlari qo'yilgan.

To'rt qavatli ko'rkan binoga kiriladigan ikki katta eshik g'oyat go'zal ishlangan. Muzeyning "Navoiy Astrabodda", "Navoiy Hirotda", "Navoiy Samarqandda", "Navoiy lirikasi" deb nomlangan zallarida Navoiyning buyukligi o'z asarlari ning o'lmasligi aks ettirilgan. Umuman, Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olim larning ijodiy me'rosini yoritish uchun muzeyda o'n uchtabo'lim ajratilgan. Navoiydan keyingi ijodkorlar va ularning asarlarini yoritishga bag'ishlangan materia illar 22- bo'limda to'la aks ettirilgan.

XX-asr o'zbek adabiyotiga oid noyob materiallami binoning to'rtinchisi qavatidagi 13-bo'limda ko'rish mumkin. Muzey hodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o'zbek adabiy merosini yig'ish va ulami adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallami qiziqib o'rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

## MUNDARIJA:

1. Maxmud Zamaxshariy .....	3
2. Al-Hakim at-Termiziy hayoti va ijodi. ....	7
3. Ahmad al-Marvaziy .....	13
4. Abu Abdulloh Rudakiy .....	16
5. Al – Xorazmiy .....	19
6. Al – Buxoriy .....	20
7. Al-Farg'oniy Ahrmad Ibn Muhammad .....	22
8. Abu Mansur Al — Moturidiy .....	23
9. Qaffol Shoshiy .....	24
10. Abu Rayxon Beruniy .....	26
11. Odamush-shuaro-AbuAbdulloh Rudakiy .....	28
12. Ibn Sino Abu Ali .....	32
13. Yusuf Xos Hojib Bolsog'uniy .....	33
14. Muhammad Qoshg'ariy .....	42
15. Najmiddin Kubro .....	43
16. Yassaviy Ahmad .....	44
17. Burxoniddin Marginoniy .....	46
18. Ismoil Jurjoniy .....	48
19. Nosriddin Tusi .....	51
20. Nosiriddin Rabg'uziy .....	53
21. Jaloliddin Manguberdi .....	54

## XIII-XV ASRDA YASHAB IJOD QILGAN ALLOMALAR

22. Amir Temur .....	55
23. Mavlono Lutfiy .....	57
24. Al-Koshiy .....	58
25. Naqshband Bahouddin .....	59
26. Xoja Muhammad Porso .....	60
27. Qoqizoda Rumiy .....	61
28. Ulug'bek va uning akademiyasi .....	65
29. Novoiy Nizomiddin Mir Alisher .....	66
30. Abduraxmon Joniy .....	70
31. Koshifiy Husayn Voiz .....	71
32. Xoja Ahror Valiy .....	72
33. Ali Qushchi .....	72
34. Davlatshoh Samarqandiy .....	73
35. Husayniy (Husayn Boyqaro) .....	74
36. Kamoliddin Behzod .....	75

## XVI-XX ASRDA YASHAB IJOD QILGAN ALLOMALAR

37. Bobur Zahiriddin Muxammad .....	77
38. Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy .....	78
39.Zebiniso,Dilshod – Barno, Anbar – Atin .....	79
40.Mashrab .....	81
41.Huvaydo .....	81
42.Nodira .....	82
43. Muhammadrizo Ogahiy .....	85
44. Behbudiy Mahmudxo'ja .....	89
45.Fitrat .....	90
46. Cho'Ipon Abdulxamid Sulaymon O'g'li .....	92
47. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) .....	93
48. Abdulla Avloniy .....	97
49.Furqat .....	100
50.Uvaysiy .....	101
51.Mahzuna .....	102
52.Muhammadsharif So'fizoda .....	104
53. Sadriddin Ayniy .....	105
54. Tavallo hayoti va ijodi .....	107
55.Zavqiy .....	110
56. Ahmad Donish .....	112
57. Adabiyot muzeyi .....	114

---

## O'ZBEK XALQINING BUYUK ALLOMALARI

Мухаррир *Ш.Исматова*

Мусаххих *Н.Ниязова*

Саҳифаловчи *Н.Файзиева*

Босишига руҳжат этилди 10.06.2014 й. Бичими 60x84 1/16

Офис көғози. Ризограф усула. Times гарнитураси.

Шартли босма табоги 3,5. Нашр хисоб табоги 2,6.

Адади 50 нусхада. Буюртма № 01-06

“IMPRESS MEDIA” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.

Манзил: Тошкент. Яккасарой тумани, Күшбеки кучаси, 6 уй.